

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Xakimjonov Baxodir Xakimjonovich

**O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI
O‘QITISH ASOSIDA O‘QUVCHILARNI
MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT
RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 94:37.013

KBK: 63.3+74

X 20

Xakimjonov Baxodir Hakimjonovich.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish asosida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasi [Matn]: monografiya / B.X.Xakimjonov. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 134 b.

Monografiyada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishga qo‘yilgan zamonaviy talablar, tarix fanini o‘qitish usullari klassifikatsiyasi, tarix fanini o‘qitishda mustaqil ta’limning o‘rni masalalari yoritilgan. O‘smir yoshlar tarbiyasi va kitobxonlikning shakllanishi va rivojlanishi, pedagogik asoslari, pedagogik tizim samaradorligi haqida so‘z yuritilgan. Mazkur monografiya tarix fani o‘qituvchilari hamda ilmiy tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

t.f.f.d. . **O.Sh.Kanimkulov,**

t.f.f.d. **D.T.Qudratov**

Mazkur monografiya Guliston davlat universiteti ilmiy kengashining 2025-yil 31-maydagi 10-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-910-9

© **Xakimjonov B.X., 2025.**

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2025.**

SO‘ZBOSHI

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari milliy qadriyatlar targ‘iboti va yoshlarda unga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash masalasini dolzarblashtirmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda yoshlarni munosib tarbiyalash masalasida tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, ajdodlarga munosib voris bo‘lish hissini shakllantirish hamda yoshlarni milliy qadriyatlarga nisbatan ongli ijobiy munosabatni shakllantirishning maqbul pedagogik mexanizmlari va tarbiya metodikasini yaratish ehtiyoji ortmoqda. Ta’lim muammolari bo‘yicha Butunjahon Forumi qabul qilgan 2030-yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyada «...barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish...» [104] vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifa doirasida o‘quvchilarni axborot xurujlari va buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan himoya qilishda, ayniqsa barkamol avlodni shakllantirishda milliy qadriyatlar tizimidan samarali foydalanishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan himoyalashning samarali usullarini topish, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarni birlashtirib turadigan yakdil jihat globallashuvning salbiy oqibatlariga qarshi turishning eng asosiy omili sifatida muayyan millatning o‘ziga xos qadriyatlarini targ‘ib qilish va ularni saqlab qolishga asoslangan g‘oyada ko‘zga tashlanadi. Mazkur g‘oya mantiqan o‘zini oqlaydi, zero globallashuv jarayoni milliy chegaralarning yuvilishi bilan bog‘liq jarayondir. O‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi tarixni, o‘tmishni teran anglash, milliy qadriyatlarga sodiqlik, xolis baholash hamda ulardan kelajak uchun amaliy xulosalar chiqarish va ta’lim tizimi amaliyotida foydalanishning pedagogik tamoyillarini belgilash zaruriyati bilan belgilanadi.

Respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ijtimoiy fan o‘qituvchilari tarix darslarida ajdodlar merosi, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi, ma’naviy merosi, ilmiy asarlari, tarixiy yodgorliklarni o‘rganish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va ularda ona-Vatanga mehr-muhabbat tuyg‘usini shakllantirish orqali yot g‘oyalarga qarshi kurashishda o‘zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga mas’ul sifatida ta’lim jarayonida bu masalaga jiddiy e’tibor qaratmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “O‘qitish

metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish hamda yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish" vazifalari belgilangan[7]. O'z o'rnida bu O'zbekiston tarixini o'qitish asosida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini o'quv-uslubiy qo'llanmalar, didaktik vositalar bilan ta'minlash hamda pedagogik jarayonda qo'llanib kelinayotgan ta'lim va tarbiyaning mazmuniga xalqimizning tarixiy an'analari va milliy qadriyatlarini kiritish zarurati ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifatini ta'minlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Yurtimiz olimlaridan ta'lim oluvchilarda qadriyatlar tizimining shakllantirish mavzusi B.X.Xodjayev, N.Temirova, Sh.Taylanova, A.Alliyarov, Z.Jalilov va D.Kosimovalar; ma'naviy va badiiy qadriyatlarning tarixiy-falsafiy, axloqiy-estetik mazmun-mohiyati A.G.Abdunabiev, B.Abduraximov, S.Sh.Alimov, A.Erkaev, F.A.Babashev, E.Umarov, M.Abdullaev, E.Xakimov, N.Yu.Jurabaevlar; maktabda tarix fanini o'qitishning didaktik ta'minotini modernizatsiya qilish masalasi B.X.Xodjaev; shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim oluvchilarning tafakkur imkoniyatlarini rivojlantirish borasida

O.Abduraxmonov, D.Yakibova, R.Mavlonova, N.Raxmonqulovalar; umumta'lim maktablari uchun tarix darsliklarini yaratish va metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha E.K.Arifjonov, Sh.K.Alimov, A.V.Narbekov, K.B.Qodirov, N.Djuraev, T.U.Fayzullaev, R.Murtazaeva, B.V.Xasanov, K.Usmonov, I.P.Shodmanqulov, N.D.Ernazarovalar tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida tarix fanining metodologik asoslarini belgilashda A.A.Vagin, P.V.Gora, N.I.Aparovich, O.I.Baxtina, V.V.Shogan, T.N.Glazirina, o'quvchilarda milliy qadriyatlar tizimini shakllantirishda A.Yu.Gordina, V.V.Davidova, E.N.Igoreva [30], I.P.Dimova [28], T.M.Madatova [32] kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. M.N.Chernova [93; 94], V.Ya.Rumyansevlar tomonidan tarix darslarida amaliy topshiriqlar bajarishga mo'ljallangan ishchi daftarlarni ta'limga joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xorijiy davlatlarda Caren S.Neile [31], Sarah But, Mc Donnel, V.P.Milrud, A.Masovich, D.Kramer, P.Sorokin, R.Merton, T.Parsons, L.Uayt, X.Adams, M.Koul, K.Shar, J.Goff, N.Russele kabi olimlarning tadqiqotlarida qadriyatlarning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati, ta'limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida shaxsning kasbiy kompetentligini shakllantirishning asosiy tendensiyalari, ijtimoiy-madaniy yondashuvning imkoniyatlari keng yoritilgan.

Yurtimiz tarixchi olimlarining ilmiy izlanishlarida "O'zbekiston tarixi" fanining o'qitish metodlari xususida muayyan tadqiqotlar olib borilgan, lekin umumiy o'rta ta'lim maktablarida mazkur fanni o'qitishda milliy qadriyatlardan tarixiy manba sifatida foydalanish va o'quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muammosi alohida ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

I-BOB. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. O‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari

Dunyoda globallashuv jarayonlari kuzatilayotgan bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor masalalardan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizda ham bu borada bir qator me‘yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va olib borilayotgan ishlarni muayyan tizimga solish va samaradorligini oshirish masalalari ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida [2] belgilangan vazifalarni amalga oshirishga erishishda o‘quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim omillardan ekanligi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi”ning 71-maqsadida [9]:

o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

oilalarni, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviylikini ta’minlash;

ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldini olish;

ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash;

mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviylikini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish;

“Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini

ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar ijtimoiy soha xodimlari hamda ma'naviyat targ'ibotchilariga bosh vazifa sifatida yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak, aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"ligini qayd etgan [22;1-b.].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da yoshlarni ona Vatanga, oilaga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor yo'nalish sifatida kiritilgan [13].

Hayotimizning barcha jabhalarida "Qadriyatlar", "O'zlikni anglash", "Milliy tiklanish", "Ijtimoiy adolat", "Milliy ong", "Milliy g'urur", "Milliy iftixor", "Vatanparvarlik" kabi tushunchalarga duch kelamiz. Bu tushunchalar ezgulik sari farovon hayot barpo etishda xalqimizni birdam va hamjihatlikda harakat qilishga yo'naltiradi. O'zbek mentalitetiga xos bo'lgan milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Umuminsoniy qadriyatlar mazmun jihatidan keng qamrovli bo'lib, barcha xalqlarning maqsadlarini o'zida uyg'unlashtiradi. Tadqiqotimizdagi atama, ya'ni "milliy qadriyatlar" tushunchasiga to'xtalsak, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida bu tushuncha quyidagicha ifodalangan: muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir [117;12-b.].

Falsafa qomusiy lug'atida qadriyatlar voqelikdagi jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi. Qadriyatlar umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy bo'lishi mumkin deb talqin qilingan [112;476-b.].

Tadqiqot ishi doirasida milliy qadriyatlar tushunchasi mazmun va mohiyatining olimlar talqinidagi ta'rif va tavsiflarini qiyosiy tahlil etishni lozim deb topdik.

Qiyomiddin Nazarovning "Qadriyatlar falsafasi" nomli risolasida milliy qadriyatlar muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, yashayotgan hudud,

madaniy ma'naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikni tartib qoidalari hamda ular bilan bog'liq xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan, umumijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy bo'g'in, ya'ni millatga xos bo'lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi, deb talqin etilgan [73; 41-b.].

Olim ushbu ta'rifida qadriyat tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan yondashgan. Ayni paytda qadriyat tushunchasi mazmunini ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq holda tasavvur qiladi. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi xususiy ma'nosini ochib beradi.

Qiyomiddin Nazarovning milliy qadriyatlar borasida bildirgan fikrlaridan kelib chiqqan holda biz ushbu tushuncha tizimi bilan bog'liq barqaror holatni quyidagi shakl yoki tarkibiy qismlarga ajratdik:

1. Millatning genofondi, tabiiy betakrorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi.
2. Millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi.
3. Milliy hudud, moddiy va madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurma bilan bog'liq jihatlar.
4. Urf-odatlar, an'analar, marosimlar, turmush tarzi va boshqalardagi milliylik, ular bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar.
5. Milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, milliy ong va milliy ruh, milliy tuyg'ular va g'oyalar.

Pedagogik atamalar lug'atida milliy qadriyatlar millat uchun muhim, jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar yig'indisi deb ta'rif berilgan [57; 79-b.].

I.Saifnazarov va F.Saifnazarovalar "Ma'naviyatimizning umrboqiy sarchashmalari" nomli risolasida milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki ma'naviy boyliklarini qamrab oladi, deb ta'rif berganlar [83;10 b.].

Olimlarning milliy qadriyat tushunchasi ostida faqat ma'naviy boyliklarni tushunishlari bir oz mulohazali. Chunki milliy qadriyatlar nafaqat ma'naviy, balki moddiy ahamiyatga ega bo'lishi ham mumkin.

Abadiy o'z qadr-qiymatini yo'qotmaydigan tarixiy meros milliy qadriyatlar deb aytiladi [54;43-b.]. Milliy qadriyatlar millat uchun ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq xoslik shaklidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi [91;5-b.].

Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qanchalik ko‘p uyg‘unlashgan bo‘lsa, ularning rivojlanishiga, ommalashishiga keng imkoniyat yaratadi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi insoniyat tamaddunining taraqqiyoti bilan bog‘liqligi va umumbashariy ahamiyatga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Insonning qadr-qimmati, barcha millat va elatlarning tinch-totuvlik asosida o‘zaro hamkorlikda yashash, moddiy va ma‘naviy boyliklarni asrab-avaylash, ilm-fan rivojiga hissa qo‘shish, tinchlikni saqlash, tabiatni muhofaza qilish kabilarni o‘zida namoyon etadi. Umuminsoniy qadriyatlar O‘zbekistonda yashayotgan barcha millatlarning manfaatlarini himoya qiladi. Dunyodagi xalqlar orasida aynan shu millatning borligi, mavjudligi, betakrorligi, “Ko‘hna tarix shodasida bitta marjon” (E.Vohidov) sifatida zohirligi har qanday kishi uchun ahamiyatga ega bo‘lishi tabiiy.

Millat – har qanday milliy qadriyatning obykti, milliy qadriyatlar tizimi tayanadigan ijtimoiy asosdir. “Millat” atamasi qadriyat obykti sifatida tushunilganida, bir-biri bilan qon-qarindosh xalqlarga nisbatan ishlatiladigan “turkiy xalqlar”, “slavyanlar”, “roman xalqlari” kabilarga umummilliylik darajasi mos keladi. [73;39-b.].

O‘zbekistonlik olimlar milliy qadriyatlarni “millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan jihat va xususiyatlar”, deb ta’rif beradilar [47;141-b.]. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma‘naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi[47;141-b.].

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda tadqiqot ishimizda “milliy qadriyatlar” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berdik: **milliy qadriyatlar muayyan hudud, mintaqaga xos bo‘lgan insonni komillik sari yetaklovchi, insonda mehr-muruvvat, or-nomus, mustahkam iroda kabi ezgu xislatlarni shakllantirishda ko‘makchi bo‘luvchi moddiy va ma‘naviy manbalar majmuidir.**

Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yilishi o‘quvchilarda turli yot g‘oyalarga qarshi immunitet shakllanmasligiga va “ommaviy madaniyat” illatlariga moyillik yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

XX asr boshlarida ma’rifatparvar bobolarimiz ta’lim va tarbiya, milliy til, milliy urf-odatlarimiz va an’analarimizni tiklashga harakat qilganlar. Mustaqillik sharofati bilan dastlab yurtimiz tarixchilari A.Asqarov [51], A.Muxammadjonov [69, 70], R.Muqminova [71], H.Bobobekov [55] va boshqalar tomonidan maktab ta’limida O‘zbekiston tarixini o‘rganishni takomillashtirish maqsadida bir qancha maktab

darsliklari yaratildi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarixchi olimlarimiz U.Jo'rayev [59, 60], A.Sagdullayev [80, 81], S.Tillaboyev [85, 86], N.Jo'rayev [58], Q.Rajabov [76], A.Zamonov[61]lar tomonidan yozilgan Tarixdan hikoyalar, Tarix (qadimgi dunyo tarixi), Jahon tarixi va O'zbekiston tarixi darsliklari amalda qo'llanilib kelinmoqda.

Tarix o'qitish metodikasi masalalarini tadqiq etgan olimlardan A.Sa'diyev [82], N.Remeyev [78, 79], Ya.G'affarov [87;88], T.Toshpo'latov [87,88], J.Raximov [77], O.P.Kobzeva [66] larning ilmiy ishlari, o'quv qo'llanmalarida maktabda tarix o'qitish metodikasi xususida fikr yuritilgan.

So'nggi yillarda tarix o'qitish metodikasi sohasida A.Ismoilov [29] "Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish", S.Xaydarov [39] "Tasviriy san'at asarlari vositasida "O'zbekiston tarixi" darslari samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar.

"Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish" mavzusida tadqiqot olib borgan B.X.Xodjayevning ilmiy ishida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari, "Talaba yoshlarning ma'naviy shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi" masalasi tadqiq etilgan.

N.Temirovaning [37] ilmiy ishida talaba yoshlar ma'naviyatining shakllanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov chor Rossiyasi generali Skobelevning quyidagi gaplarini keltiradi: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi" [62;24-b.]. So'ngi yillarda yurtimiz ijtimoiy soha olimlari tomonidan milliy qadriyatlarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni xususida ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, B.Mirkomilov tomonidan olib borilgan talabalarda badiiy qadriyatlarga qiziqishni rivojlantirishning falsafiy va pedagogik-psixologik xususiyatlari mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida milliy qadriyatlar tafakkur komponentlarining badiiy iste'mol madaniyati bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan [35].

Z.Jalilov [26] tomonidan olib borilgan tadqiqotda ajdodlar merosiga nisbatan hurmat hissini shakllantirishda auditoriya va auditoriyadan tashqari

uyushtiriladigan ommaviy, guruhli va yakka tartibdagi sharq mutafakkirlarining tarbiya jihatlarini oshirishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalar shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi IX-XII-asrlarda yashab, ijod qilgan Sharq mutafakkirlari Imom Buxoriy, Imom G'azzoliylar ta'limoti mazmunida aks etgan odob-axloq, ilm olish, mehnat va kasb-hunarga oid tarbiyaviy qadriyatlarning shaxsiy, milliy va umummilliy ko'rsatkichlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

D.Kosimova o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi masalasi [32], Sh.Taylanova [36] tomonidan talabalarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish muammosi, A.Aliyorov [24] tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish mazmuni, asosiy tushunchalari, mezonlari, ko'rsatkichlari, oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning strategik hayotiy maqsadlarni shakllantirishdagi o'rni yoritib berilgan.

Yuqorida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmun va mohiyati, ijtimoiy hayotga tatbiq etilishi borasida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi mavjud holatni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar milliy qadriyatlar haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lsalar-da, milliy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni xususida tasniflash ko'nikmalari shakllanmaganligi hamda milliy qadriyatlarni o'rganishga qiziqishlari kamligi, hattoki ayrim o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida o'z bilimlarini boyitish maqsadida izlanish olib bormasliklari, kitob mutolaasi bilan shug'ullanmasliklari, fanga bo'lgan qiziqish, ichki motivatsiyaning yo'qligi ma'lum bo'ldi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan intilishlari va milliy qadriyatlarni e'zozlash hissini rivojlantirishda ta'lim muassasalarida tashqi motivatsiya berilmagan. Bunday holatda o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usi va milliy qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni haqidagi tasavvurlari to'laqonli shakllanmaydi. O'quvchilarga ilmning afzalligi, barcha muammolarning yechimini bilim bilan hal etilishini his qildirishni taqozo etmoqda. Xususan, umumta'lim maktablarining yuqori sinflar, jumladan, 7-11 sinflarda o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda. 7-11-sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda ajdodlarimizdan qolgan ulkan ilmiy, adabiy, moddiy va ma'naviy meros, mahalliy o'lkashunoslik materiallari, asrlar

osha sayqallanib kelayotgan urf-odat va an'analarimiz dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha Malaka talablari"da "Tarix" fanini [41;377-b.] o'qitish maqsad va vazifalarining asosiy negizi o'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash hamda o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratligi belgilab qo'yilgan [11].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuksak ma'naviyatli, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish va ularga ta'lim-tarbiya berish muhimdir. Ma'nan yetuk, barkamol inson tarbiyasida kompetensiya va kompetentlik tushunchasi muhim o'rin tutadi. Kompetensiya bu fan bo'yicha egallangan nazariy va amaliy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishdir. 2008-yilda nashr etilgan Pedagogik atamalar lug'atida kompetensiya so'zi soha bo'yicha bilimdonlik [57;36-b.], M.Vaxobovning "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish-zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida" nomli maqolasida kompetensiya so'zi lotin tilidagi "competo", "competentia" so'zlaridan olingan bo'lib, erishaman, mos kelaman, loyiq kabi ma'nolarni bildirishi qayd etilgan [25; 4-b.]. O'quv jarayonidan ko'zlangan asosiy pirovard maqsad – faoliyatni amalga oshirishga yordam beradigan kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishdir. Kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston tarixi fani o'qituvchilari ta'lim oluvchilarning bilimlari va kompetentligini xolis baholash bilan birga o'quvchilarning bilim olishlarida yo'naltiruvchi hamda kerakli va dolzarb adabiyot va manbalarni tanlab o'qishlari uchun maslahatchi vazifasini bajarishlari kerak. Dars mavzusini ta'lim oluvchilar to'laqonli o'zlashtirishlari, ya'ni mavzu doirasida fikrlash va xulosa qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda sinfda motivatsion muhit yaratish uchun ta'lim beruvchi mavzu doirasida fanlararo (iqtisodiyot, siyosatshunoslik, geografiya, adabiyot) [41;378-b.] tarix fanlari (arxeologiya, etnografiya), yordamchi tarix fanlari (paleografiya,

diplomatika, genealogiya, geraldika, sfragistika, epigrafika, tarixiy metrologiya, numizmatika, bonistika, xronologiya, faleristika, arxivshunoslik, toponimika) [41;378-b.] bilan bog‘lab, ko‘rgazmalilik prinsipini qo‘llash orqali (tarixiy faktlar, sxema, diagramma, chizmalar yordamida) ta‘lim oluvchilar o‘rtasida sog‘lom ta‘limiy raqobat muhitini yaratishi lozim.

Bugungi ta‘limning rivoji o‘qituvchining o‘z ustida tinmay ishlashi, innovator, tashabbuskor, ijodkor bo‘lish, zamon bilan hamnafas yashashi, o‘z fanining asoslarini chuqur egallashi, ilmiy salohiyat va ma‘naviy barkamollikka ega bo‘lishini taqozo etmoqda. Shunday ekan, ta‘lim jarayonida yoshlar ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi har bir o‘qituvchi o‘quvchilarni barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun ularning xalq insonparvarligi sarchashmalaridan, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo‘lishlariga e‘tibor berib, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkirlarimizning ma‘naviy merosini yaxshi bilishi va ularni darslarga tatbiq etishi lozim [41;378-b,73;26-b.].

2020-yil 13-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining “Xalq ta‘limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 183-sonli buyrug‘ining 18-bandiga asosan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli o‘quvchilarning qobiliyatlarini ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirish, izlanuvchan, tashabbuskor va ijodkor o‘qituvchilarni aniqlash, ularning tajribasini o‘rganish, ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilayotgan metodlarni takomillashtirish maqsadida o‘quv yilining dekabr oyi mobaynida ijtimoiy fanlar bo‘yicha fan oyligini o‘tkazish hamda mazkur buyruqning 25-bandiga asosan haftaning payshanba kunlari ijtimoiy fan o‘qituvchilarining metodik kunlarini tashkil etilishi belgilangan [102]. Xitoy faylasufi Konfutsiyning “Aytsang, unutaman; ko‘rsatsang, eslab qolaman; o‘zim bajarsam, anglab yetaman” degan so‘zlari har bir o‘qituvchi uchun dars jarayonini boshqarishda yo‘naltiruvchi vazifasini bajarishi lozim. O‘qituvchi ta‘lim oluvchining iqtidorini ham har tomonlama o‘rganishi lozim. Har bir o‘quvchida o‘zining salohiyatidan kelib chiquvchi qiziqadigan sohasi, predmeti bo‘ladi, o‘z qiziqishi tomon intiladi, o‘z iqtidorini namoyon qiladi. Pedagoglarning eng asosiy vazifasi o‘quvchilarning ana shu qiziqishlarini aniqlash va shu yo‘nalishda Davlat ta‘lim standartlari bo‘yicha to‘laqonli bilim berish va o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Zamonaviy pedagog qiyofasi deganda umidli yosh avlodni yillar davomida sayqallanib kelayotgan milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash layoqatiga ega,

fanning fundamental asoslarini va fan o'qitish metodikasini mukammal egallagan, ijodkor va kreativ fikrlay oladigan o'qituvchi shaxsi tushuniladi.

1.2-§. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablar (joriy tahlil)

Hozirgi davrda mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy sog'lom va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularni komil inson darajasiga yetkazishda milliy qadriyatlarimizning o'rnini oshirish va ularni ta'lim jarayoniga singdirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimizning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan ma'naviy merosi davrlar osha barkamol avlodni vatanparvarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik, kabi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda munosib o'rin egallab kelmoqda. Insonning ma'naviy komillikka erishishi tarbiya orqali amalga oshiriladigan ta'limiy jarayondir. Jamiyat rivojlangan sari barkamol shaxslarni tarbiyalash ehtiyoji ortib boradi. Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sohasida, milliy odob-axloq, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni rivojlantirish sohasida tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar kuni parlamentga rasmiy murojaatnomasida ilm-ma'rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratildi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" [21; 2-bet]. Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3907-sonli [6] qarorida yoshlar o'rtasida milliy g'oyani targ'ib qilish, ularda davlat ramzlari va milliy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otish, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish vazifalari yuklatilgan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida qayd etish mumkin bo'lgan ushbu qaror va uning ijrosi bo'yicha ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlarni ilmiy asosda tizimga solish mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi va ayni paytda ahamiyatini ham belgilaydi.

Markaziy Osiyoda IX–XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk allomalarning asarlari ma'naviy qadriyatlarimiz asosini tashkil etib,

ularning ijodlari va asarlari Markaziy Osiyo xalqlari shuhratini dunyoga tanitdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Qomusiy olimlar, buyuk ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya xususida aytgan nazariy fikrlari, pedagogik nazariyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q [34; 10-b.].

Tadqiqot ishi davomida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi omillar tizimlashtirildi. Ular quyidagilardir:

1. Oiladagi tarbiya. Oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam milliy an'analarga ega. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish vazifasi ota-ona va mahalla zimmasida bo'lib, bu borada ta'lim muassasasi bilan hamkorlikning samarasi yuqoridir. Milliy qadriyatlarga xos bo'lgan dastlabki tushunchalar oilada hosil bo'ladi.

2. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar. O'quvchilarni ajdodlar o'giti, ilmiy merosi, yaxlit qilib aytganda milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalash orqali ularni jamiyatda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish vazifasi ta'lim tizimi xodimlarining zimmasidagi vazifadir.

3. Jamoatchilik tarbiyasi. O'smirlik davrida ta'lim oluvchilarga ijtimoiy ta'sir susaysa, mentalitetimizga zid kuchlarning buzg'unchi g'oyalari yoshlar ongiga ta'sir qilishi, buning natijasida salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Milliy qadriyatlar yoshlarda mas'uliyat va burch hissini shakllantirishi jamiyatda yoshi katta insonlarning yoshlarga munosabatiga, ularning tarbiyasiga befarq bo'lmasligiga bog'liq.

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" risolasida quyidagilarni o'qishimiz mumkin: "Tarbiyani kimlar qilur?, qayda qilinur?, degan savol keladur. Birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidur, ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur" deya ta'kidlaydi (46; 9-b).

Shu nuqtai nazardan, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini takomillashtirish mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini ta'minlaydi. Darhaqiqat, tarbiya oiladan boshlanadi. Tadqiqot davomida mahalla, qishloqlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar tarbiyasi va milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlari shahar maktablari o'quvchilariga nisbatan yaxshi va rivojlangan ekanligi ko'zga tashlandi. Buni mahallalardagi ijtimoiy muhitning sog'lomligi, nuroniy oqsoqollar o'giti, "Bolaning begonasi bo'lmaydi" degan purma'no naqlarga rioya qilinishi shaharga nisbatan qishloqda ko'proq saqlanib qolganligi bilan izohlash mumkin. Shaharda ko'p qavatli uylarda yosh oilalar ko'proq

yashashlari, aholi soni nisbatan ko‘pligi va boshqa omillar sabab yuqoridagi naqlning amal qilishi jarayoni birmuncha sust kechadi. Bu jarayonda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda mahalla inspektorlarini jalb etgan holda “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini takomillashtirish taqozo etiladi. Bu kemitik muammoni ommaviy axborot vositalari, internet brauzerlarida tarbiyaviy ahamiyatga ega, milliy qadriyatlarimiz aks etgan videorolik, videofilm, ko‘rsatuvlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari namoyishini ko‘paytirish, mahallalar o‘rtasida milliy qadriyatlar kuni tadbirlari, shoirlar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish kabi chora-tadbirlarni mujassamlashtirgan tizimli ishlarni olib borish orqali yechish mumkin.

O‘zbekiston tarixini o‘rganishda, eng avvalo, o‘quvchilarning o‘zlari yashab turgan hudud tarixini o‘rganishga yo‘naltirish lozim. O‘lkashunoslikning asosiy maqsadi o‘z o‘lkasi aholisi, etnografiyasi, xo‘jaligi, madaniyati, urf-odatlar, jamoat arboblari, olim va shoirlari to‘g‘risida ma’lumot yig‘ib (foto va video materiallar, ashyolar, namunalar), ularni ommalashtirib, ta’lim oluvchilarga ulashish hamda ajdodlar merosini avaylab-asrash, kelajak avlodga o‘lka tarixini munosib o‘rganishga ko‘maklashishdan iborat. O‘lkashunoslik ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, o‘quv-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyatlarni aniqlash va ommalashtirishda o‘lkashunoslikning o‘rni juda katta [116;129 b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [8] 600-sonli farmonida 2020-2025 yillar davomida bosqichma-bosqich har bir tuman va shaharda tarix va madaniyat muzeylari tashkil etilishi belgilangan. Bugungi kunda Guliston shahri, Guliston va Xovos tumanlarida o‘lkashunoslik muzeylari mavjudligini inobatga olgan holda ochiq darslarni o‘lkashunoslik muzeylarida tashkil etish hamda o‘quvchilarni (dekabr oyi) tarbiya va ijtimoiy fanlar oyligi doirasida o‘lkashunoslik muzeylariga sayohatga olib borish imkoniyati mavjud.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-7-sinflariga mo‘ljallangan “O‘zbekiston tarixi” darsliklarida Sirdaryo viloyatining ko‘hna tarixidan dalolat beruvchi 2500 yillik tarixga ega bo‘lgan “Eski Xovos” shahri va “Yog‘ochli Sardoba” gumbazi haqida ma’lumot berilmagan. O‘quvchi o‘zi yashayotgan hududning ko‘hna tarixini faqat tarixiy obidalarga ekskursiyaga borganda, yoki mustaqil o‘qish orqali o‘rganishi mumkin. Zero tarixiy xotira o‘z o‘lkasi tarixini bilishdan boshlanadi desak,

mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishda tarixiy xotira yetakchi kuch, yoshlar uchun iftixor, g'urur, va vatanparvarlik omili hisoblanadi. Eng muhimi o'quvchilar o'zlari yashagan hudud tarixini o'rganishlari, ma'naviy boyliklaridan bahramand bo'lishlari mumkin. O'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda o'lkashunoslik predmetining o'rni katta. Bu boradagi kemtik muammoni "O'lkashunoslik" to'garaklarini tashkil etish orqali yechish mumkin. Lekin tadqiqotimiz davomida ayrim ta'lim muassasalarida "O'lkashunoslik" to'garaklari tashkil etilmaganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Bu borada ta'lim muassasalarida "O'lkashunoslik" to'garaklarini tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalar berildi:

- maktabning tarix fani o'qituvchisi to'garak faoliyatiga rahbarlik qiladi, geografiya, biologiya, adabiyot fani o'qituvchilari to'garak faoliyatini yuritishga ko'maklashadilar;

- o'lka tarixi, aholisi, xo'jaligi, madaniyati, etnografiyasi, toponimikasi, arxeologiyasiga va tabiatshunosligiga oid ashyoviy manbalar maktab o'lkashunoslik muzeyida jamlanadi;

- o'quvchilar o'lka tarixini o'rganishga yo'naltiriladi;

- to'garak tashkil etish orqali o'lka, mahalla tarixiga oid tarixiy ma'lumotlar tiklanishiga erishiladi;

- to'garak mashg'ulotlari mavzusi, ma'ruza matni tarix fani o'qituvchisi tomonidan tayyorlanadi va ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashida tasdiqlanadi.

O'qitish jarayonida o'lka materiallaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning o'z o'lkasi tarixini o'rganishga, mustaqil ijod qilishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va kelgusi hayot yo'lini tanlab olishga yordam beradi [72; 9 bet]. Ilmiy tadqiqotimiz davomida telegram tarmog'ida "Sirdaryo o'lkashunoslik" onlayn to'garak (https://t.me/joinchat/HcN6_udQcG023684) tashkil etildi. To'garak faoliyatini yuritishda Guliston davlat universiteti tarix fakulteti talabalari, Guliston davlat universiteti akademik litseyi va tadqiqot obyektlari sanalgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarix fani o'qituvchilari yaqindan ko'mak berdilar. To'garak faoliyatida asosan, Sirdaryo viloyati hududi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy ma'lumotlar, arxeologik va arxitekturaviy yodgorliklarning foto rasmlari, olimlarimiz tomonidan viloyat tarixga oid nashr etilgan ilmiy maqola, risolalar hamda hudud etnografiyasi yoritilib borildi. O'z o'rnida umumiy o'rta ta'lim maktablari "O'lkashunoslik" to'garaklari faoliyatini innovatsion tarzda yo'lga qo'yish, o'quvchilarni

hudud o'lkashunosligini o'rganish va ilmiy izlanishlar olib borishga yo'naltirishda muhim qadam bo'ladi deb hisoblaymiz.

Ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar tajribasida dars davomida o'qituvchi emas, balki o'quvchi markazda degan ta'limot samarali tizim sifatida ma'qullangan. Ya'ni o'quvchi mavzu doirasidagi ma'lumotlarni mustaqil ishlash natijasida egallashi, o'qituvchi esa darsda koordinator, yo'naltiruvchi, korrektsiyalab boruvchi, jarayonlarni nazorat qilib, baholab boruvchi vazifasini o'taydi. O'quvchilarning mustaqil ravishda ma'lumotlar izlash, ma'lumotlar ustida ishlash, yangi fikr va g'oyalar yaratish orqali ularda tarixiy jarayon, voqea va hodisalarni muhokama qilish ko'nikmalari shakllanadi. Dars davomida topshiriqlarni to'g'ri bajargan va faol ishtirok etgan o'quvchilarning bilimi va kompetentligi quyida keltirilgan baholash mezonlariga amal qilgan holda baholanadi. O'quvchiga qo'yilgan baho adolatli, o'quvchi uchun aniq va tushunarli bo'lishi hamda o'quvchi o'zining egallagan bilimi, ko'nikma va malakalarining qay tarzda baholanganligini bilishi zarur (1.1-rasm).

Xorijiy davlatlar tajribasida qo'llanilib kelinayotgan dars jarayonini olib borishning pedagogik va psixologik talablari, bir soatlik darsning texnologik xaritasi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik jarayon sxemasi, o'quvchilarning bilimi va kompetentligini baholash mezonlari muallif tomonidan milliylashtirilib, ta'lim muassasalarida amalda qo'llanilgan va qayta tahrirlangan variantidan amalda foydalanildi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentlik darajasini aniqlash maqsadida baholash mezonlari o'qituvchi tomonidan o'quv yili boshlangunga qadar ishlab chiqilib, ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Fan bo'yicha baholash mezonlari sinf xonasining ko'rinarli joyiga ilinishi hamda ota-onalar qo'mitasining yig'ilishida o'quvchilarning ota-onalari tanishtirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. 1.1-rasmda keltirilgan baholash mezonlari Qrim Respublikasi Yevpatoriya shahri № 8-sonli gimnaziyasining Tarix va ijtimoiy fan o'qituvchilari metodik kengashining 2017-yil 27-oktyabrdagi 5-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan "Tarix va ijtimoiy fanlar [45] bo'yicha ta'lim oluvchilarning bajargan ishlarini baholash mezonlari"ni milliylashtirish asosida shakllantirildi.

O'zbekiston tarixi fanidan o'quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan ularning og'zaki javobi, yozma ishlari, amaliy topshiriqlarni bajarish kompetensiyalarini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	Reyting bali	Baholash ko'rsatkichi
Darslikdan tashqari mavzuga doir qo'shimcha tarixiy manbalardan ma'lumot to'plash ko'nikmasiga ega; Milliy va mahalliy o'lka tarixini biladi; Ahloqiy qadriyatlarni biladi va unga amal qiladi; Milliy, mahalliy urf-odat va an'analarni biladi; Mavzuga doir qo'shimcha manbalarda berilgan savollarga javob beraoladi, mantiqiy fikrlaydi; Tarixiy jarayon va voqealarni O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi bilan qiyosiy bog'lash va taqqoslash ko'nikmalariga ega, makon va zamonda tarixiy jarayonlarni rivojlanishini doimiy kuzatib boradi; Tarixiy voqea va hodisalar hamda tarixiy shaxslar faoliyatiga baho beraoladi Tarixiy voqealarning siyosiy va iqtisodiy tomonlariga o'zining shaxsiy fikrlarni bildiradi; Tarixiy va ijtimoiy-siyosiy atamalar ma'nosini sharhlaydi; Milliy tariximizning asosiy xronologiyasi haqidagi bilimlarini namoyish etadi; Tarixiy makon va zamonga yo'naltirilgan holda xarita bilan ishlash va o'z fikr va mulohazalarini qiyosiy taqqoslash asosida tushuntirib berish malakasiga ega; Tarixiy jarayonlarni xarita bilan bog'lagan holda namoyish etish malakasiga ega; Grafika, jadval, tablitsa, diagramma, infografikalarda keltirilgan ma'lumotlarni og'zaki nutqda tushuntirish va matnga aylantirish ko'nikmasiga ega	5	A'lo, 86-100%
A'lo bahoga javob beradi, lekin tarixiy ma'lumotlarni bayon etishda mavzudan chetlashmagan holda ayrim noaniq ma'lumotlar beradi; Milliy va mahalliy o'lka tarixini qisman biladi; Ahloqiy qadriyatlarni biladi va unga amal qiladi; Milliy, mahalliy urf-odat va an'analarni biladi; Mavzuga doir bildirgan fikr va ta'riflari yetarli daraja ishonchli emas; Tarixiy jarayonlarni xarita bilan bog'lagan holda namoyish etish malakasi yetarli emas; Tarixiy xarita va tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalari to'liq shakllanmagan;	4	Yaxshi, 71-85%

Mavzuga doir tarixiy jarayon haqida umumiy fikrlarni bayon etaoladi; Tarixiy jarayonlarni xarita bilan bog'lagan holda namoyish etish malakasiga ega emas; tarixiy sanalarni chalkashtiradi, noaniq ma'lumotlar beradi; mavzuga doir tarkibiy qismlari haqida aniq tushunchalarga ega, o'z bilimlarini qisman safarbar etgan holda mantiqiy o'ylab javob bermaydi; Tarixiy jarayon va voqealarni O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi bilan qiyosiy bog'lash va taqqoslash ko'nikmalariga ega emas.	3	Qoniqarli, 55-70%
Mavzuga doir nazariy, amaliy bilimlarga ega emas; Tarixiy xaritalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega emas; Savollarga og'zaki javob bermaydi, uy vazifasini bajarmaydi.	2	Qoniqarsiz 0-54%

1.1-rasm. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quvchilar bilimni baholash mezonlari

Insoniyat ongi uchun kurashlar maydoniga aylangan jamiyatda, globallashuv davrida, o'quvchilarni turli buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish va munosib himoya qilishda ijtimoiy fan o'qituvchilari zimmasiga quyidagi ustuvor pedagogik majburiyatlar yuklatiladi:

- o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, shuningdek, halollik, vijdon, vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish;

- o'zining ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi bilan eng rivojlangan davlatlarda ta'lim olayotgan tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan zamonaviy o'quvchi shaxsini shakllantirish.

O'zbekiston tarixi darslarida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda ajdodlarimizdan bizgacha saqlanib qolgan ulkan ilmiy meros, ularning o'gitlari, purma'no so'zlari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat, tarixni bilmagan kishi har qadamda xatoga yo'l qo'yadi, o'z tarixi bilan faxrlanmaydigan xalq esa o'z kelajagini tasavvur qila olmaydi [64, 23-b.]. Bugungi kun tarix fani o'qituvchilari yuqoridagi ustuvor pedagogik majburiyatlarni bajarishlari bilan bir qatorda ta'lim oluvchilarni Vatan tarixini mukammal o'rganishga, o'z tarixi bilan faxrlanishga, ayniqsa milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishning innovatsion usullarini ta'lim jarayoniga joriy etishning samarali mexanizmini tatbiq etishlari muhimligi rivojlangan mamlakatlar tajribasida yaqqol ko'rinib turibdi.

Bizning fikrimizcha, o'qituvchilar dars jarayonini tashkil etish va boshqarishda hamda ijtimoiy hayotda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- o'quv dasturi asosida mavzu doirasida ta'lim jarayonining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash hamda dars maqsadlariga erishishda qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash, o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish, dars bosqichlari tarkibiy tuzilishiga to'liq tayanish;

- modernizatsiyalashgan ta'lim talablariga muvofiq fan bo'yicha davlat ta'lim standarti va davlat talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini yuritish;

- tarix faniga qo'yiladigan malaka talablari va ko'zlangan natijaga erishish uchun shakllantiriladigan kompetensiyalarni inobatga olgan holda baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- fanning o'quv dasturida mavzu doirasida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash hamda dars maqsadlariga erishishda qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash ko'nikmasiga ega bo'lish va dars bosqichlari tarkibiy tuzilishiga e'tibor qaratish;

- o'z sohasi bo'yicha jahonda erishilgan eng so'nggi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lish;

- o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish orqali ta'limiy bo'shliqlar va muammolarni yechish usullari va pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish;

- O'zbekiston tarixida o'chmas iz qoldirgan davlat arboblarning shonli tarixi, xalqimizning milliy qahramonlarining jasorati hamda ajdodlarimizdan qolgan ilmiy va ma'naviy merosni o'rganishga alohida e'tibor qaratish;

- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari)ga ega bo'lish hamda o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi lozim.

Pedagoglarning o'z funksional vazifalarini amalga oshirish, dars jarayonni to'g'ri tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirishda a'lo natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo'nalishidagi subyekt (o'qituvchi-o'quvchi)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali subyektlarning faoliyatini muvofiqlashtirish lozim. O'zbekiston tarixi fanidan har bir bo'lim yakunida oraliq nazorat o'tkaziladi va o'quvchilar bilimi baholanadi. O'quvchilarning olgan baholari va o'quvchilar tomonidan bo'sh o'zlashtirilgan mavzular

tahlil etilib, bo'shliq mavzularni qayta o'zlashtirish ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotimiz davomida kuzatishlar jarayoni, o'tkazilgan so'rovnoma natijalari, o'quvchilardan olingan nazorat ishlari hamda o'quvchi va o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar natijasida ta'limiy bo'shliqlarning yuzaga kelishida quyidagi muammolar borligi yaqqol ko'zga tashlandi:

- Davlat ta'lim standarti bo'yicha darsga qo'yiladigan talab bo'yicha o'qituvchining ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadga to'laqonli erishmasligi (darsga ajratilgan vaqtning yetmasligi va mavzu doirasida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tayanch ma'lumotlarning ko'pligi), o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni yetkazish uslublari darsda qo'llanilmasligi;

- o'qituvchining haftalik yuklamasida sinflar kesimida fanlar majmuasining ko'pligi (O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Tarbiya), mavzu bo'yicha to'laqonli bilim berishda qo'shimcha ta'limiy kontentlar (ilmiy-metodik, didaktik materiallar, audio, video materiallar bazasining) shakllantirib borish imkoniyatining cheklanganligi;

- dars uchun tuzilgan texnologik xarita bandlariga amal qilinmagan holda dars jarayoni tashkil etilishi hamda vaqt me'yorlariga amal qilmaslik [41;378-b.];

- dars rejasining har bir bandi bo'yicha mukammal nazariy va amaliy bilim berilmasligi va o'qituvchining mavzuga oid umumiy ma'lumotlar berish bilan cheklanishi [41;378-b.];

- ta'lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlariga e'tibor qaratilmasligi hamda ularda ta'limiy jarayon va pedagogik muhitga adaptatsiya hosil bo'lmasligi;

- o'quvchilarning o'zi yashagan hudud o'lkashunosligi va o'lka tarixini o'rganishga qiziqtirish, motivatsiya uyg'otish metodikasining ta'lim jarayonida deyarli qo'llanilmasligi;

- ijtimoiy fan o'qituvchilarining xorijiy til va axborot-kommunikatsiyalarini o'zlashtirish darajasi pastligi sababli fanning eng oxirgi yutuqlaridan ta'lim tizimida foydalanish ko'nikmalari shakllanmaganligi;

- an'anaviy ta'lim tizimida dars o'tilishi, o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatining yetishmasligi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanmaslik;

- o'quvchilar bilimini baholashda o'qituvchining baholash mezonlariga amal qilmasligi, o'quvchilar bilimi yuzaki va nisbiy, sinf o'quvchilarining bilimi nisbiy baholanishi [41;378-b.],

- o'quvchilar bilimini baholashda sog'lom raqobat muhitining yaratilmaganligi;

- mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlar uchun alohida baholash mezonlari ishlab chiqilmaganligi;

- o'quvchilarning qobiliyati va bilim saviyasini nazarda tutuvchi, tabaqalashgan, qiyinlik darajasi belgilangan variativ topshiriqlar tizimining mavjud emasligi hamda o'quvchilarning mustaqil ish topshiriqlarini tanlash imkoniyatiga ega emasliklari;

- o'quvchilarning fiziologik, psixologik va aqliy qobiliyatlariga mos tarzda tuzilgan, topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan metodik ko'rsatmali topshiriqlar bankining fan o'qituvchisi tomonidan shakllantirilmaganligi;

- dars davomida mavzuga mos ravishda yozuvsiz xarita, xarita, konturli xarita bilan ishlash amaliyoti deyarli qo'llanilmasligi;

- o'quv mashg'ulotlarida mavzu doirasida mos ravishda manbalar va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash amaliyoti deyarli qo'llanilmasligi;

- tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar haqida insho va bayonlar yozish amaliyoti tarix darslarida deyarli qo'llanilmasligi;

- mustaqil topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan ishchi daftarlar ta'lim jarayonida deyarli qo'llanilmasligi [41;378-b.];

- o'quvchining sababsiz dars mashg'ulotlarini qoldirishi;

- qoniqarli va qoniqarsiz bahoga mavzuni o'zlashtirgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borilmasligi [41;378-b.];

- qoniqarli va qoniqarsiz bahoga mavzuni o'zlashtirgan o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilmaganligi;

- mavzular bo'yicha mavjud o'quv filmlari, virtual video mashg'ulotlari, ko'rgazmali qurollar va jihozlardan unumli foydalanilmaslik, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga bo'lgan motivatsiya shakllantirilmaganligi;

-o'quvchilarda mustaqil topshiriqlarni bajarish va taqdimot qilish ko'nikmalari shakllanmaganligi;

- o'qituvchilarning tarixiy ma'lumotlarni ijtimoiy hayot bilan bog'lab qiyosiy tahlilini olib bormasliklari, faqat darslikda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanishlari;

- o'quvchilarning iqtidori, bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasiga qarab, o'qituvchining tabaqalashgan holda o'quvchilar bilan individual ishlamasligi va boshqa holatlar [41;379-b.] ;

Pedagogik jarayonda o'quvchilarning bo'sh o'zlashtirgan mavzulari tashqi monitoring natijalariga ko'ra aniqlanadi. Lekin hududiy xalq ta'limi

bo'limlari har bir umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. Bu jarayon umumiy o'rta ta'lim maktabining ichki nazorat guruhi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchilar bilimini baholashda o'qituvchi darsning mustahkamlash qismida 10-15 daqiqa oralig'ida savol-javob, test savollari orqali yoki nazorat savollariga javob yozish, mustaqil topshiriq bajarishlari doirasida o'quvchilarning bilim saviyasini baholaydi. Lekin bu vaqt ichida o'qituvchi har bir o'quvchining olgan bilimi, ularning mavzuni to'liq o'zlashtirganliklarini chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchining bilimini baholashi mumkin, lekin o'quvchi mavzuning mazmun-mohiyatini tushunishi, o'tilgan mavzuni oldingi darslarda o'tilgan mavzu bilan uzviy bog'liqligi, boshqa fanlar bilan bog'liqlik tomonlarini qiyosiy o'rganish qobiliyatlari shakllanganligini tahlil qilish imkoniyati juda kam. O'quvchilar mavzu doirasida tayanch iboralar, voqea sodir bo'lgan sana haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar, yoki yod oladilar. Lekin o'quvchilar mavzu doirasida tarixiy ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish, tarixiy voqea va hodisalarga o'z fikrlarini bildirish, tarixiy vaziyatni baholash va xulosa qilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi. Mahoratli pedagog o'quvchilarni tarixiy fakt, sanalar, tarixiy voqealar xronologik tartibda ketma-ketlik asosida mazmun va mohiyatini to'laqonli tushunish, tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishda ko'makchi vazifasini bajarishi kerak. Asosan, bu jarayon ko'rgazmali tarzda namoyon etiladi, ya'ni videofilmlar namoyishi, rasmlar, xarita, sxemalar ustida ishlash va badiiy adabiyotlar o'qish orqali shakllanadi. O'quvchilarning og'zaki nutqi va ijodkorlik qobiliyatlarini [41;379-b.] shakllantirish orqali tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, tarixiy atamalar, tarixiy makonlarni tasavvur qilish, ularni yozma ifoda etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Bo'sh o'zlashtirilgan mavzular va ta'lim oluvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirishda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida fan to'garaklariga jalb etish ham yaxshi natija beradi. Bo'shliqlar yuzaga kelmasligi uchun o'quvchilar bilan yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda suhbatlashib, o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirishga qiynalgan mavzularini qo'shimcha ravishda to'garak mashg'ulotlarida nazariy va amaliy jihatdan tushuntirib berish [41;380-b.], maqsadli o'quvlar tashkil etish, ko'proq savol-javoblar o'tkazish hamda mustaqil ishlash, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish (tarixiy shaxslar portreti, sxema, xarita, diagramma chizish, tarixiy bino va inshootlar maketini yasash va hokazo) tadqiqot olib borishga safarbar etish tavsiya etiladi. To'garak mashg'ulotlari o'tkazilishida fan o'qituvchisining fidoyiligi muhim ahamiyatga ega bo'lib,

uning kerakli bilimni ta'lim oluvchiga yetkaza bilishi, o'qituvchining mahorati va tarix o'qitish metodikasini chuqur bilishiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning tarix fani bo'yicha bilimlarini mustahkamlash hamda egallagan nazariy, amaliy bilim va ko'nikmalarini hayotga tatbiq etishlari uchun fan o'qituvchisi darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi o'quvchilarning yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishlarida ta'limiy bo'shliqlar yuzaga kelmasligi uchun har bir o'quvchi bilan dars davomida va darsdan tashqari individual mashg'ulotlar olib borishi va darslarni eng zamonaviy texnologiya vositalari hamda pedagogika sohasidagi eng oxirgi yutuqlardan foydalangan holda olib borishlarini davrning o'zi taqozo etmoqda [41;381-b.].

1.3-§. Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati va didaktik omillari

Milliy qadriyat bu millatning o'tmishi, buguni va kelajagini belgilab beruvchi omillar sirasiga kiradi. Har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlar silsilasi mavjud bo'lib, ular xalqning ko'zgusi hisoblanadi. Darhaqiqat, tarix bunyodkorlik, bag'rikenglik, adolat va ezgulikka chorlovchi barcha ibratli namunalarni o'ziga qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatlardagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" degan tamoyilga asoslangan holda milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanligi hamda maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi [20]. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari millatimiz uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi [46;10-b.]. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z nutqlarida "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir, mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, bu naqadar jiddiy masala ekani yanada yaqqol ayon bo'ladi" degan edilar [15; 89-b.].

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburliklari va madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasida bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob, 49-moddasida qayd etilgan [1;12-b.]. Milliy qadriyatlar yil sayin rivojlanib, yangilanib, sayqallanib boradi. Xalqimizning asrlar osha rivojlanib, sayqallanib, o‘zining ahamiyatini saqlab kelayotgan o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimi bor. Qadriyatlarimiz yillar silsilasi, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanadi. O‘zbek millatiga xos qadriyatlar millatning eng muhim, jozibador, inson hayoti uchun ulkan ahamiyatga ega ekanligi bot-bot isbotlangan. Milliy qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligidir. Uni asrab-avaylash, rivojlantirish, boyitish har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchi sanaladi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz hududidagi dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishida katta o‘rin tutgan, o‘nlab asrlar davomida shakllangan tarixiy shaharlar, 10 mingdan ortiq me’moriy va tarixiy obidalarini (ularning 6113 tasi davlat muhofazasiga olingan, shu jumladan, me’morchilik obidalari-2164, arxeologik obidalar-3186, monumental san’at yodgorliklari-763 ta) avaylab saqlash, hisobga olish, o‘rganish, ularni ta’mirlab, kelajak avlodlarga yetkazish, dunyoga olib chiqib, targ‘ib qilishdek ezgu maqsadlar yo‘lida chinakam tarixiy ishlar amalga oshirildi [49;196-197-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi 4038-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi” [5] tasdiqlandi. Mazkur qarorda insoniyat taraqqiyoti va jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan yurtimizning madaniy merosini YUNESKO ning tegishli ro‘yxatlariga kiritish choralari kuchaytirish, milliy merosimizni saqlash hamda milliy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston tarixi darslarida o‘qituvchi va o‘quvchilar mavzuga oid tarixiy voqea, hodisa va tarixiy faktlarni konseptual tahlil qiladilar. Dars davomida o‘quvchida tarixiy jarayonga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanadi, vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilarning tarixiy dunyoqarashi rivojlanadi. Agar o‘quvchilarda xalqimiz o‘tmishiga hurmat va faxr hissi shakllansa, keyinchalik Vatan tarixiga bo‘lgan mehr-muhabbat o‘z-o‘zidan ortib borishi tabiiy. Mana shunday ezgu niyatda, yuksak maqsad sari o‘quvchilarning tarixiy ongi va ularning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga yuzlanish, ularni talqin qilish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston tarixi darslarida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat hissi va qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlar va ilmiy merosning jahon xalqlari orasida e‘zozlanishi, ajdodlarimizning ilmiy adabiyotlaridan jahon fan, ta‘lim tizimida foydalanish darajasi haqida o‘quvchilarga qiyosiy tahliliy ma‘lumotlar berish maqsadga muvofiq. Asosan, tarix sahifalaridan o‘rin olgan ajdodlarimizdan qolgan ulkan ilmiy-adabiy meros, arxitektura yodgorliklari to‘g‘risida mukammal bilimlar berish va ularning jamiyat tarixida tutgan o‘rni, milliy qadriyatlarning asl mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga to‘g‘ri yetkazib berish metodikasini o‘qituvchi bilishi zarur.

O‘quvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishlari va ularga hurmat hissini rivojlantirishda nafaqat ijtimoiy fan o‘qituvchilari, balki aniq va tabiiy fan o‘qituvchilari ham darsning tarbiyaviy maqsadini belgilashda o‘quvchi-yoshlarning milliy qadriyatlarga sodiqlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratadilar. Lekin ijtimoiy fan o‘qituvchilarida bu sohada tajriba va imkoniyat yuqoridir. Yurtimiz qadimdan ilmu ma‘rifat, madaniyat, tamaddun o‘chog‘i bo‘lgan. Yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab mutafakkir allomalarning ilmiy merosi, nafaqat o‘rta asrlarda, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida ham yuksak o‘ringa ega. Fikrimizcha, O‘zbekiston tarixi darslarida yurtdoshlarimiz ilmiy merosining jahon xalqlari orasida ulug‘lanishi xususida eng so‘nggi ma‘lumotlar, ilmiy jurnallar, qo‘shimcha adabiyotlar va ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda keltirilgan manbalardan axborot olish o‘rinlidir. O‘zbekiston tarixi fanidan (2022-yilda nashr qilingan A.T.Zamonov, N.K.Ismatova va boshqalarning O‘zbekiston tarixi 7-sinf o‘quvchilari uchun darsligi) 7-sinfda “Aql zakovat bilan bunyod etilgan boy ma‘naviyat” hamda “IX-XI asrlarda ilm fan va madaniyatning yuksalishi” mavzularini o‘qitish jarayonida Ahmad al-Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek qoldirgan ilmiy merosning jahonda ulug‘lanishini quyidagi misollar orqali tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Farg‘ona nomini butun dunyoga tanitgan Ahmad Farg‘oniy bobomizning XII asrdayoq lotin va yahudiy tiliga tarjima qilingan “Astronomiya asoslari” kitobi hamda ulug‘ allomaning loyihasi asosida Nil daryosi suvining sathini o‘lchaydigan o‘ta noyob inshoot– “Miqyosi Nil” Misrda hanuzgacha saqlanib kelayotgani hammamizga ma‘lum [12;45-b.]. Astronom olim Yan Geveliy “Selenografiya” kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz Ahmad-al Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek [88; 298-bet] nomi bilan atalishini qayd etadi. XVII asrda Yan Geveliy tomonidan nashr etilgan Mirzo Ulug‘bekning “Yulduzli

osmon turkumi” asarida turli zamon va makonlarda yashab oʻtgan buyuk dunyo astronomlarining aksi tushirilgan naqsh mavjud. Ular astronomiya ilhom manbai boʻlmish Uraniyaning ikki tomonida stol qarshisida oʻtirishgan holda aks ettirilgan. Ular orasida Mirzo Ulugʻbek ham borligini hamda 2009-yilda Parijda Mirzo Ulugʻbek tavalludining 615 yilligiga bagʻishlangan xalqaro ilmiy anjuman oʻtkazilganligini oʻquvchilarga koʻrgazmali tarzda namoyish etish orqali tushuntirishning pedagogik samarasi yuqoridir.

Tibbiyot faniga ulkan hissa qoʻshgan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning ulugʻlanishini quyidagi misollar orqali, yaʼni oʻsimliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-78) doimo yashil boʻlib turuvchi bir tropik daraxtni jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino sharafiga Avitsenina deb atagani, Belgiyaning Kortreyk shahrida, Fransiya, Avstriya, Turkiya, Eron va Tojikiston davlatlarida olim sharafiga uning haykali oʻrnatilganligi, BMT binosi roʻparasida toʻrt nafar buyuk olimlar—sharq vakillari sharafiga haykal oʻrnatilgani, ulardan ikkisi yurtdoshimiz Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy ekanligi hamda Tojikistonda fan sohasidagi katta yutuqlarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi respublika davlat mukofoti [111, 59-b.] taʼsis etilganligini oʻqituvchi oʻzining pedagogik mahoratini namoyon etgan holda gʻurur bilan oʻquvchilarga tushuntirishi lozim.

Oʻzbekiston tarixi (2018 yilda nashr etilgan N.Joʻrayev, A.Zamonovlarning Oʻzbekiston tarixi: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 11-sinf oʻquvchilari uchun darsligi) 11-sinfda “Oʻzbekistonda maʼnaviy va tarixiy merosning tiklanishi” [58.] mavzusi oʻrganilganda, xalqimizning milliy qadriyatlari jahonning nufuzli xalqaro tashkiloti hisoblangan YUNESKO tomonidan bot-bot eʼtirof etilayotganligi hamda yurtimizdagi 200 dan ortiq tarixiy yodgorlik va obidalar YUNESKOning madaniy merosi roʻyxatiga kiritilganligini, milliy taomimiz boʻlgan “Osh” 2016-yil 1-dekabrda hamda Xorazmning “Lazgi” raqsi Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ roʻyxatiga Oʻzbekiston madaniy merosining elementi sifatida 2019-yil 12-dekabrda Bogota (Kolumbiya)da YUNESKO nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish boʻyicha hukumatlararo qoʻmitasining 14-sessiyasida qabul qilinganligini [107;5-b.] oʻquvchilarga tushuntirishining samarasi yuqori baholanadi.

YUNESKOning butunjahon merosi roʻyxatiga yurtimizning 4 ta shahri kiritilgan boʻlib, bu Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlaridir. Xalqimiz oʻzining ming-ming yillik meʼmorchilik va

shaharsozlik tarixiga, madaniy va ma'naviy merosiga ega. 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik, 2002-yilda Termiz shahrining 2500-yillik, 2003-yilda Shahrisabz shahrining 2700 yillik, 2004-yilda Qarshi shahrining 2700 yillik, 2007-yil Samarqand shahrining 2750 yillik, 2007-yilda Marg'ilon shahrining 2000 yillik, 2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yillik yubileylari nishonlandi. Ilmiy manbalardan ma'lumki, dunyodagi eng mashhur va tarixiy Rim va Afina shaharlarining tengdoshi qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva misolida qaraladi. Xiva shahri 1989-yilda YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY doimiy kengashining 37-majlisida 2020-yilda Xiva shahri turk dunyosining madaniy poytaxti, deb e'lon qilindi. Xiva shahriga bu maqomni berish taklifi 2018-yil sentyabr oyida Qirg'izistonda o'tkazilgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining VI sammitida bildirilgan.

Davlat arbobi va buyuk mutafakkir Mirzo Ulug'bekning dunyo ilm fani va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi e'tirof etilib, Turkiy dunyo me'morlari va muhandislari ittifoqi tomonidan 2021-2022-yillar "Mirzo Ulug'bek yili" deb e'lon qilindi[108].

Xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelayotganligini jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi tan oladi va nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi - AYESKO [63, 28-bet] tomonidan Toshkent shahrining 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir. Islom hamkorlik tashkiloti (ISESCO) har yili musulmon mamlakatlaridagi 3 ta shaharni Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilishi an'ana tusiga kirgan. Ya'ni ularning biri arab mamlakatlaridan, ikkinchisi Osiyo va uchinchisi Afrikadagi musulmon mamlakatlaridagi shaharlar bo'lishi lozim. Tashkilotdagi madaniyat vazirlari IX Islom konferensiyasi tomonidan 2020-yilda Buxoro, Qohira (Misr) va Bamako (Mali) shaharlari Islom madaniyati poytaxti sifatida tasdiqlangan. [109; 2-b.]. Bir necha asrlar davomida Buxoro Islom madaniyati poytaxti bo'lib kelgan. Buxoro shahri "Qubbatul Islom", ya'ni "Islom gumbazi" deb nomlangani ham bejiz emas. Bu qutlug' zaminda yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Narshahiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Mir Said Kulol, Xo'ja Orif Revgariy, Bahouddin Naqshband [18, 145-b.] kabi buyuk mutafakkirlarning nomlari, ularning boy merosi butun Sharq va G'arb olamida mashhurdir.

2017-yil 14-yanvar kuni bo'lib o'tgan mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga

mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida Prezidentimiz tomonidan kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni hal qilish va bu borada, eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish [17, 47-b.] masalasiga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston tarixi darslari samaradorligini oshirib borish uchun o'qituvchi tarix fanining rivojlanib borishini sistemali ravishda kuzatib borishi kerak. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarini O'zbekiston tarix faniga oid chop etilayotgan asarlar mazmuni bilan tanishib borishlari o'quvchi yoshlarda tarix fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada o'stiradi [87, 21-b.]. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston tarixi darsliklarining yozilishida moddiy va ma'naviy meros hamda milliy qahramonlarimizga bag'ishlangan sahifalarni o'quvchi o'qib, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlari ortishi juda qiyin edi. Misol uchun V.Kosteskiyning 8-9 sinf o'quvchilari uchun "O'zbekiston xalqlari tarixidan o'quv materiallari" (Toshkent, "O'qituvchi", 1992) kitobida O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'ullarga qarshi olib borgan kurashida xalq qahramonlari Xo'jand himoyasida misli ko'rilmagan qahramonliklar ko'rsatgan Temur Malik va 1220-yilda Xorazm shahzodasi Jaloliddin Manguberding milliy qahramonlar sifatida ko'rsatgan jasoratlari umuman o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz va Vatanni anglashga yo'naltirish yo'lida arzigulik fikrlar bayon etilmagan edi. Darhaqiqat, istiqlol tufayli milliy qadriyatlarimiz, moddiy va ma'naviy merosimiz, Vatanimiz tarixini butun dunyoga namoyon qilish imkoniyati yaratildi. Akademik, tarix fanlari doktori, professor A.R.Muxammadjonovning [110, 154-b.] 2017-yilda chop etilgan "O'zbekiston tarixi" 7-sinflar uchun mo'ljallagan darsligida [70] "Jaloliddin Manguberding Xorazm taxtiga o'tirishi" (21-§), "Jaloliddin Manguberdi mohir sarkarda" (22-§) [70], "Jaloliddin Manguberdi Vatan qahramoni" (23-§) mavzularida milliy g'ururimiz hisoblanmish Vatan qahramoni Sulton Jaloliddin Manguberdi bilan bog'liq ma'lumotlar bayon etilgan. Darhaqiqat, yosh avlod o'z milliy qahramonlaridan ilhom va ibrat olib ulg'ayadi. Ijtimoiy fan o'qituvchisi Sulton Jaloliddin Manguberding siyosiy portretiga sharh berar ekan, Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti [97] kitobidan tarixiy jarayon va voqealiklar haqida ma'lumotlar berib o'tishi ham dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy fan o'qituvchilarini o'quvchilarga ta'lim berish bilan birga eng birinchi navbatda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashlari, Vatanni ulug'lash kabi ezgu maqsadlarni o'quvchi ongiga singdirishlari lozim. Albatta, bu borada ezgu maqsadlar sari intilishda o'quvchilar uchun maktab darsligi tayanch ma'lumot bazasi hisoblanadi. O'quvchilarni Vatanni sevishga, ulug'lashga o'rgatishda eng avvalo ajdodlarimizning erishgan yutuqlari, jasoratlari, qahramonliklari va jahonda ularning ilmiy merosi va ko'rsatgan qahramonliklarining e'zozlanishini yosh avlodga ilmiy-metodik jihatdan yetkazib berish vositalarini to'g'ri tanlashimiz kerak. Milliy qadriyatlarni biryoqlama, sun'iy ravishda ulug'lash va ideallashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi, ayniqsa, O'zbekiston kabi ko'p millatli, ko'pkonfessiyali mamlakatda bunday harakatlar oxir-oqibatda millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy va diniy betoqatlik kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin [63, 60-b.]. Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirib, ajdodlarimizdan qolgan ulkan merosni yanada boyitib, zamon bilan hamqadam bo'lib yurish orqali jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimiz mumkinligi haqida o'quvchilarga to'laqonli tushuncha berish pedagoglarning birlamchi vazifasidir. Ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu jarayonda har bir pedagog, xususan, ijtimoiy fan o'qituvchilari zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va shu bilan birga bir qator vazifalar yuklatiladi. Ijtimoiy fan o'qituvchilariga yuklangan bunday yuksak mas'uliyat va vazifalar ijrosi o'quv mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishi bilan ta'minlanadi. O'qituvchining asosiy faoliyatining negizida sifatli dars o'tish va o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish mas'uliyati yotadi. Bugungi kunda milliy qadriyatlarni qadimiylilik sarqiti deb qaraydigan insonlarning fikrlari yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ulug' ajdodlarimizning asrlar osha sayqallanib kelgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalari xalqimiz mentalitetiga xosligini unutmasligimiz kerak.

Tadqiqotda o'quvchilarni milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashning didaktik ta'minotini takomillashtirish masalasi ham tadqiq etildi. Ishimizning maqsadiga erishishda ikkinchi, ya'ni ta'lim muassasalarida o'qituvchi shaxsining xislatlari, vazifalari va pedagogik omillarga to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Ular quyidagilar:

- tarix fanini o'qitishda innovatsion metodlar bilan qurollanmagan o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarga to'laqonli bilim berolmaydi;

-o'qituvchining fanga ijodiy yondashuvi va o'quvchilarda mavzuga oid tasavvurlarni hosil qildirish qobiliyati bo'lmasa, darsning samarasi ham bo'lmaydi;

-darsning yangi mavzuni tushuntirish qismida o'quvchilar yangi bilimlarni faol qabul qilishlari va mukammal o'ylash evaziga amalga oshiriladi;

- dars jarayonida o'qituvchi nutqi ravon va tushunarli bo'lishi bilimlarni intensiv uzatish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi;

- dars davomida o'qituvchining vazifasi mavzu va rejani e'lon qilish, dars jarayoniga umumiy rahbarlik qilish, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishdan iborat;

- o'quvchilarning bilimi va qiziqishlariga ko'ra iqtidori va iste'dodini aniqlash, iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish va hokazo.

Dars davomida vaqtdan unumli foydalanish maqsadida iqtidorli o'quvchi ko'magidan foydalanish mumkin. Psixologik testlar, topshiriqlarni bajarish, suhbat o'tkazish yordamida ta'lim oluvchilarning iqtidori va iste'dodini aniqlash mumkin. O'quvchilarning iste'dodini va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar quyidagi belgilar orqali sinfdoshlaridan ajralib turadi:

1) sezgir, qiziquvchan, dunyoda bo'layotgan voqealarni kuzatishga ishtiyoqi baland, ommaviy axborot va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilayotgan ma'lumotlardan foydalanish va ularni tahlil qilishda axborot madaniyatiga rioya qiladi, ijtimoiy siyosiy va madaniy sohadagi yangiliklarni tahlil qilish ko'nikmasiga ega;

2) xotirasi kuchli va nutqi ravon, o'tilgan mavzuga doir bilimlarni tez o'zlashtiradi, xulosa chiqarish, mustaqil fikr bildirish ko'nikmasiga ega;

3) tarixiy atamalar, me'moriy obidalar, tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni tez o'zlashtiradi;

4) kitob o'qishga ishtiyoqi baland, mavzuga oid qo'shimcha manbalardan yangi ma'lumotlarni to'plash hamda mavzu yuzasidan tegishlilik asosida tarixiy adabiyotlarni mustaqil tanlash ko'nikmasiga ega;

5) grafik, sxema, xarita bilan ishlashni hamda test savollari, krossvord tuzish va taqdimotlar tayyorlash bo'yicha malakaga ega va boshqalar.

Yuqoridagi toifalarga mansub eng iqtidorli o'quvchilar orasidan liderlari tanlab olinib, ular kichik guruhga sardor sifatida tayinlanishi hamda har bir kichik guruh ta'lim oluvchilarning bilimi, kompetentligi, kreativ fikrlash qobiliyatiga ko'ra 5-7 nafar o'quvchidan iborat tarzda shakllantirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Kichik guruhda o'quvchilar

orasida sog‘lom psixologik muhitni yaratish va ularni qo‘llab-quvvatlash lozim. Kichik guruh tarkibida bir xil iste‘dod va iqtidor, shuningdek, ikki nafar liderlik qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni bir guruhga qo‘shish tavsiya etilmaydi.

Kichik guruhdagi iqtidorli o‘quvchilar ko‘magida asosan darsni mustahkamlash qismida “Iqtidorli o‘quvchi minbari” ruknida kichik guruhlarining yangi mavzuni mustahkamlash, o‘tilgan mavzuga oid qo‘shimcha ma‘lumotlar berishlari uchun imkoniyat yaratib beriladi. Bu jarayonda “Tengdosh-tengdoshga”, “O‘quvchi-o‘quvchi” prinsipini qo‘llash orqali tengdoshlar o‘zaro bir-birlarini tez tushunishlariga va guruh ichida va guruhlararo sog‘lom ta‘limiy raqobat muhiti shakllanishiga erishiladi. Shuningdek, navbat bilan mukammallikka intiluvchi va o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lmagan o‘quvchilarni ham dars davomida faollashtirish bo‘yicha korreksion pedagogik jarayon olib boriladi. Kichik guruh uy vazifa sifatida tayyorlab kelgan ijtimoiy-ma‘naviy sohada yuz bergan yangiliklar, tayanch iboralar sharhi, qo‘shimcha manbalardan olingan yangi ma‘lumotlar, o‘tilgan mavzuga oid diagramma, krossvord, sxema, xarita va boshqa ma‘lumotlarni taqdimot shaklida namoyish etadilar. O‘qituvchi kichik guruhlarining taqdimot reja grafigini e‘lon qilib borishi, an‘ana tusiga kirishi lozim. Eng faol kichik guruh a‘zolariga faxriy yorliq va ularning ota-onalariga tashakkurnoma berish orqali ularda bilim olishga motivatsiya hosil qilinadi.

“O‘zbekiston tarixi” fanidan Davlat ta‘lim standartlariga asosan ta‘lim oluvchilar o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchi to‘laqonli egallashlari uchun o‘qituvchi maxsus va qo‘shimcha darslar tashkil etishi hamda to‘garak mashg‘ulotlarini olib borishi lozim. Aks holda dars uchun ajratilgan vaqt davomida (45 daqiqada) o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlarni to‘liq o‘zlashtirilmaydi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qobiliyati va bilim saviyasiga qarab individual ishlash uchun mo‘ljallangan variativ topshiriqlarning shakllantirilishi o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlari va qiziqishlariga ko‘ra topshiriqlarni tanlash imkoniyatini beradi. Quyidagi 1.2-rasmda dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish, dars jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni qo‘llab, o‘tkaziladigan bir soatlik darsning texnologik xaritasi keltirilgan.

O'zbekiston tarixi fanidan TEKNOLOGIK XARITA

1. Sinf: 11

№ Dars: № 15.

Darslik: Jo'rayev.N., Zamonov A. "O'zbekiston tarixi". 11-sinf. 1-nashr. T.: 2018.

2. Dars mavzusi: "O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi".

3. Dars turi: Yangi bilimlarni o'zlashtirish darsi.

Darsning maqsadi:

• Mustaqillik yillarida ma'naviy va tarixiy meros, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'alarimizning tiklanishi hamda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan moddiy va ma'naviy merosning jahon xalqlari orasida ulug'lanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish.

Vazifalar:

• **Ta'limiy** (o'quv): o'rganilgan tarixiy davrga munosabat bildirish, mustaqillik yillarida ma'naviy va tarixiy merosimizning tiklanishi hamda o'zbek xalqining madaniyati, ma'naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining hamda ilm-fan rivoji to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish.

• **Rivojlantiruvchi**: o'quvchilarda monologik nutq ko'nikmalarini shakllantirish, manba va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, vatan tarixi va madaniyatiga hurmat va bag'rikenglik tuyg'usini singdirish, mustaqil izlanish va vatan tarixi to'g'risidagi bilimlarni kengaytirishga intilishlarini rag'batlantirish, ularning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish.

• **Tarbiyaviy**: o'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish hamda ajdodlarimizning ma'naviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo'lishga o'rgatish.

Darsning didaktik tuzilishi	O'quvchilar faoliyati	O'qituvchi faoliyati	Kutilayotgan natijalarga erishish uchun o'quvchilar uchun topshiriqlar
Tashkiliy qism	Dars mavzusini muhokama qiladi va darsning maqsadini mustaqil ravishda shakllantirishga harakat qiladi.	O'quvchilar tomonidan belgilangan darsning maqsadini takomillashtiradi, darsning maqsadini belgilaydi.	Tarixiy xotira tushunchasini izohlang (o'quvchining mavzuga doir adabiyotlar va ijtimoiy tarmoqlardan olgan ma'lumotlar asosida).
Uy vazifasini tekshirish	Uy vazifasi sifatida berilgan savollarga javob beradi.	O'quvchilarning savolarga bergan javoblarini sharhlaydi va baholaydi.	O'tilgan mavzular doirasida blits savollarga javob bering.
Yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish	Darslikdan yangi ma'lumotlarni o'qiydi va ma'lumotlarni sharhlaydi. Mavzuga doir milliy qadriyatlarimiz aks etgan tarixiy hujjatlar bilan ishlaydi.	Yangi ma'lumotlarni og'zaki bayon usulida, ko'rgazmali tarzda tushuntiradi. 1) Tarixiy xotiraning tiklanishi. 2) Inson xotirasi boqiy 3) Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'alarining tiklanishi. 4) Ma'naviyat targ'iboti.	1) Mustaqillikning dastlabki yillarida qaysi allomalarning yubileyi nishonlandi. 2) 2007 yil Toshkent Islom madaniyati poytaxti deb atalish sabablarini izohlang.
Yangi ma'lumotlarni mustahkamlash	O'rganilgan ma'lumotlar va darslik matnini tahlil qilish asosida ishchi daftarga sxema va diagramma tuzadi.	O'quvchilar tuzgan sxema, diagrammalarni muvofiqlashtiradi.	Mavzuga doir test savollarini yeching.
Boshqaruv, nazorat	Guruhlar bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlaydi.	O'quvchilarning yangi bazaviy ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasi nazorat qilinadi. O'quvchilar bilimni baholaydi.	O'quvchilar tomonidan bajarilgan test savollari javob o'zaro tahlil qiling.
Uy vazifasi	Mavzu doirasida uy sharoitida ilmiy-tadqiqot olib boradi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlarini qayta tiklash bo'yicha qanday qarorlar qabul qilindi. (ommaviy axborot vositalari orqali savolga javob berish).	Uy vazifasini bajarish bo'yicha tavsiyalar beradi.	Darslikdan 15- mavzuni o'qish. Yashab turgan xududga xos milliy qadriyatlar ya'ni milliy kiyimlar, urf-odat va an'alar haqida ma'lumot to'plash va qisqa foto hisobot tayyorlang.

1.2-rasm. O'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan darsning texnologik xaritasi

Dars 45 daqiqani qamrab olib, o'quvchilarning bilim olish ehtiyojiga ko'ra bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan, aniq ketma-ketlikda, pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiriladigan, kafolatlangan natija berishga asoslangan yaxlit pedagogik jarayondir. Kafolatlangan natijaga erishish uchun dars davomida o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda faoliyat olib borishi, darsning maqsadi, tanlangan uslub, vosita va texnologiyaning amalda to'g'ri tanlashiga bog'liq. Qo'llanilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar va pedagogik dasturiy vositalarning aniq samarasini bilish, erishilgan natijani avvalgi metodlar bilan taqqoslash hamda sarflangan vaqt va moddiy resurslar samaradorligi o'lchanadi. Mavzular doirasida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar va moddiy resurslar grafigi shakllantiriladi. Maktabning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ko'p vaqt hamda qo'shimcha moddiy resurslar talab etadigan pedagogik texnologiyalarni qo'llamagan ma'qul. O'qituvchi darsda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar, vositalar, ko'rgazmali va didaktik materiallarni o'quvchining ixtiyori bilan tanlashi ham yaxshi samara beradi. Bu o'qituvchining kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Chunki har ikkala tomonning maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan. Odatda, o'qituvchi darsning kirish qismida o'quvchilar davomatini aniqlaydi, yangi mavzu va baholash mezonlarini e'lon qiladi. Mavzuga oid ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish uchun tizimli ravishda o'quv jarayonini tashkil etadi. O'qituvchi milliy qadriyatlarimizning jahonda ulug'lanishi haqida qo'shimcha ma'lumot va fikrlarni bayon etish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish bilan birga ularning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. O'qituvchi yangi ma'lumotlarni og'zaki bayon etishda o'quvchilarga mavzu doirasida qisqa javob talab etiladigan savollar berish orqali o'quvchilarning yangi ma'lumotlarni qay darajada o'zlashtirganliklarini bilishi hamda ularning diqqatini jamlashga erishadi.

Yangi ma'lumotlarni mustahkamlashda oldingi darsda o'tilgan mavzuga oid tayanch so'zlar, mavzuning mazmun va mohiyatini o'zida aks ettirgan savollar to'plamini o'quvchilarga taqdim etadi. Yoritiladigan dars mazmunini sodda, aniq va ravon tushunarli tilda bayon qilinishi lozim. O'qituvchining o'quvchilarga mavzu yuzasidan bergan savoli aniq, bir maqsadga yo'naltirilgan, o'quvchilarning o'ylab, o'z ustida ishlab javob beroladigan mazmunga ega bo'lishi, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga jalb etishi lozim. "Ha" yoki "Yo'q" deb javob beriladigan sayoz savollarni o'quvchilarga berish maqsadga muvofiq emas. Bunday mazmundagi

savollar o'quvchilarni izlanishga yo'naltirmaydi. Bu bilan muqobil javobli savollardan foydalanmaslik kerak degan fikr noto'g'ri. O'qituvchi o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida blits savollardan ham foydalanishi mumkin. Chalg'ituvchi savollardan imkon qadar foydalanmaslik tavsiya etiladi.

Dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadida mustaqil ravishda tayyorlanishga berilgan mavzuni bayon etishda o'quvchilarning nutqini audio fayl sifatida yozib olib, o'quvchilarga audio yozuvni eshitish uchun qo'yib berish orqali ularning mavzuga oid bilimlarini mantiqiy taqqoslash va qiyoslash imkoniyati yaratiladi. O'quvchilar o'zlarining javoblarini audio formatdagi yozuvini tinglab, o'zlarining ma'ruzalariga qo'shimcha qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu usul orqali o'quvchilarning so'z erkinligi, nutq, fikrlash qobiliyati va dunyoqarashini rivojlantirish mumkin. Yangi mavzuning mazmun va mohiyatini og'zaki uslubda, ko'rgazmali qurollar yordamida (xarita, plakat, texnik sxema, infografikalar, tarixiy voqealarning xronologik jadvali va boshqalar) tushuntirish hamda mavzuga oid test savollarini yechishlari mumkin. Test savollari orqali o'qituvchi qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar bilimini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Test savollarini tuzishda o'qituvchi quyidagi me'yorlarga amal qilishi lozim.

- **oson** – o'quvchining xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, uncha murakkab bo'lmagan tarixiy hodisa, voqea, tarixiy shaxslar, allomalar faoliyati va boshqa manbalar bilan bog'liq ma'lumotlarni bilishni talab qiluvchi testlar;

- **o'rtacha qiyin** – o'quvchining tahlil qila olish qobiliyati, ikki yoki undan ko'p tarixiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilishi natijasida to'g'ri xulosaga kelishni talab qiluvchi testlar;

- **qiyin** – tarixiy jarayonni prognoz qilishda o'quvchining to'g'ri javobni topish uchun zarur bo'lgan tarixiy ma'lumotlarni tahlil qila olish qobiliyatini talab qiluvchi testlar.

- test topshirig'ining savoli aniq, lo'nda, qisqa ifodalangan bo'lishi, unda zaruriy ma'lumotlar keltirilishi, keraksiz, ortiqcha ma'lumotlar ishlatilmasligi, shuningdek, savol ikki xil tushunilmasligi;

- test topshirig'i savolida to'g'ri javobni topishga yordam beruvchi so'z va iboralar ishlatilmasligi.

Mavzular doirasida bir nechta usulda test savollari tuzish mumkin:

Bitta javobli test - savolning javoblaridan faqat bittasi to'g'ri bo'ladi. Ushbu usul o'quvchilar bilimini baholashning eng sodda usuli bo'lib, o'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilim va ko'nikmalarini qisman baholash imkoniyatini beradi.

Ko‘p javobli test - savolning javoblaridan bir nechta variantlari to‘g‘ri bo‘ladi. O‘quvchilarning bilimi va fikrlash doirasi o‘rganiladi.

Blits savol shaklidagi test - “Ha” yoki “Yo‘q” degan javobga ega bo‘lgan test savoli o‘quvchilarning mavzu doirasidagi bilimlarini qisqa muddatda aniqlash imkonini beradi. Savollarning javoblari mantiqiy o‘ylashga jalb etib, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi, har qanday vaziyatda tezlik bilan to‘g‘ri qaror qabul qilish, kreativ fikrlash qobiliyatini shakllanishiga yordam beradi.

Yopiq test - o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari o‘rganiladi. Test savolining to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar varianti yozilmaydi. Test savoliga aniq bitta javob yoziladi.

Ekspress test - o‘quvchilar berilgan savolning javoblarini o‘zaro mosini izlab topishlari lozim.

Xronologik sanani kiritish testi - o‘quvchilarning tarixiy xronologiya bilan ishlash qobiliyatlari shakllantiriladi. Tarixiy voqea sodir bo‘lgan sana javob tariqasida kiritiladi.

Texnologik diktant - mavzuga oid matn o‘quvchilarga beriladi. Matn ichida tayanch so‘zlar tushirib qoldiriladi. O‘quvchilar tushirib qoldirilgan tayanch so‘zlarni topishlari talab etiladi.

Test savolining javobini mustaqil kiritish testi - o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash va test savollari tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan test shakli. Tuzilgan test savolidagi 4 ta javobdan 3 tasi kiritilgan bo‘lib, bitta javob varianti bo‘sh qoldiriladi. O‘quvchi mustaqil ravishda test savolining bitta javobini, mantiqiy fikrlagan holda to‘g‘ri yoki xato javobni o‘zi kiritadi.

Matnli test - tarixiy jarayon, tarixiy voqealarni sinchkovlik bilan o‘rganishga yo‘naltirilib, matn mazmuniga bog‘liq bo‘lgan holda 3-5 tagacha test savollari tuziladi. Tarixiy ma’lumotlarning o‘quvchilarning xotirasida saqlanishiga erishiladi hamda mantiqiy fikrlash va matn bilan ishlash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Belgili, rasmi, ko‘rgazmali test - savolning javobini topishga yo‘naltirilgan belgi yoki rasmni o‘quvchilar sinchkovlik bilan o‘rganib, mantiqiy fikrlash orqali test savoliga javob beradilar.

Yozuvsiz xaritali test - mavzu doirasida yozuvsiz xaritadagi tarixiy shahar, makon haqidagi test savolining javobini topish talab etiladi.

O‘rganishlar va olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot jarayonida ma’lum bo‘ldiki, aksariyat fan o‘qituvchilari test savollari tuzishda o‘quvchining xotirasini aniqlashga, yod olishga qaratilgan savollar tuzadilar. To‘g‘ri, o‘quvchining test savolarini yechish orqali mavzuga doir

tayanch iboralar haqida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin, lekin, ta'lim oluvchilarni izlanuvchanlikka, kreativ yondashuvga undaydigan test savollari tuzish dars samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. O'qituvchi har bir mavzuni to'liq qamrab oluvchi test savollari bankini yaratishi, test savollari asosan o'quvchining mavzuga oid ma'lumotlarni kitob varaqlab izlanishga, fikrlashga yo'naltirishi, mustaqil ishlashga jalb etishi lozim. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishda mavzuli test savollarining elektron varianti o'quvchilar va ularning ota-onalariga taqdim etish yoki bo'lmasa internet tizimidagi maxsus tarmoqlarga joylash amaliyotini qo'llash mumkin. Telegram kanalida *Quiz Bot*, *easyQuizzy* dasturi va internet tarmog'ida *Google* disk xizmatidan foydalanib ham test sinovlarini o'tkazish mumkin. Dars davomida o'quvchilar harakatini faollashtirish va ularning bilimini, kompetentligini rag'batlantirish maqsadida kichik guruh a'zolari jamg'argan ballar ekranda (videoprojektor yordamida) e'lon qilinib borishi, ya'ni qaysi guruh ilgari borayotganligini ko'rsatib borilishi o'quvchilarda g'urur, muvaffaqiyat nashidasini his etish tuyg'usini shakllantiradi. Baholash jadvalida darsning har bir bosqichida o'quvchilar jamg'argan ballar ko'rsatilib, dars yakunida o'quvchilar va guruhlar kesimida jamg'arilgan ballar va jamg'arilgan ballarning bahoga nisbatan ekvivalenti (shartli ravishda belgilangan baholash mezonida), o'quvchilarning va guruhning egallagan o'rni aks ettiriladi. Darsning xulosa qismida o'quvchilar test savollarini o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan javoblar kaliti orqali o'zlari tekshiradilar (Test savollari kaliti videoprojektor orqali ekranda aks ettiriladi).

Umuman, o'qituvchi darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi, o'quvchilarning mavzuga doir bilimlarini yoddan ko'tarilmasligi uchun xronologik va tayanch ma'lumotlarni takrorlash maqsadida muntazam ravishda har bir bob, bo'lim yakunida nazorat ishlari olinishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi globallashuv sharoitida har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy chegaralarning "yuvilishi" bilan bog'liq jarayonlar millatlarning asriy qadriyatlarga nisbatan munosabatni qat'iylashtirmoqda. Bugungi kunda milliy qadriyatlarni asrash va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish ta'lim tizimi xodimlari oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

2. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qo‘yiladigan pedagogik va psixologik talablarni qat’iy belgilab olish lozim. Bunda o‘qituvchida mavzular doirasida didaktik materiallari va ta’limiy kontentlar bazasi shakllangan bo‘lishi hamda o‘quv yili boshida fanga doir baholash mezonlari ishlab chiqilishi, mustaqil ishlashga mo‘ljallangan variativ toshiriqlar va ilmiy tadqiqotga yo‘naltiruvchi topshiriqlar ishlab chiqilgan bo‘lishi talab etiladi.

3. Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatini belgilash va ta’lim oluvchilar bilan olib borilayotgan ta’limiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida tarixiy me’moriy yodgorliklarga ekskursiyalar uyushtirish, tarixiy hujjatli filmlar namoyishini tashkil etish, tarixiy shaxslar faoliyatiga oid adabiyotlardan parchalar o‘qib berish metodik jihatdan o‘zini oqlaydi. Dars mashg‘ulotlarini nazariy, amaliy, seminar shakllaridan tashqari, laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga jalb etish kabi tizimli ishlarni olib borish tavsiya etiladi.

4. Iqtidorli o‘quvchilardan darsning didaktik ta’minotini boyitishda ularning kreativ fikrlash qobiliyatlaridan foydalanib, dars mazmunini boyitishga erishish mumkin. O‘zbekiston tarixi darslarida mavzuga mos ravishda xalqimizning milliy qadriyatlaridan tarixiy manba sifatida foydalanish tarixiy bilimlarni yorqinroq tasavvur etishga, tarixiy xotiraning shakllanishiga hamda o‘quvchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga zamin yaratilishiga hamda xalqimizning milliy qadriyatlariga tayangan ta’lim-tarbiya jarayonining insonparvarligini ta’minlaydi. Zero, o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirish, ma’nan sog‘lom, tarixiy xotira bilan qurollangan, vatanparvar, o‘zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

II-BOB. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISH ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH TIZIMI

2.1-§. Aksiologik yondashuv asosida “O‘zbekiston tarixi” fanidan ta’lim resurslarini takomillashtirish mexanizmlari


O‘zbek xalqi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotida yaratgan ma’naviy boyliklari yoshlar tarbiyasida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ismoil al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlarning asarlari orqali o‘quvchilar axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalari [68; 123-b] haqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar. Otabobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go‘zal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat berganlar. “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi” [63; 22-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqlarida: Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi hamda jamiyatda “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda” [15; 29-b] deb ta’kidlaydi.

Faylasuf olim J.Tulenovning “Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot” nomli risolasida quyidagi achchiq tarixiy haqiqatni o‘qishimiz mumkin. 1959-yilda nashr etilgan 40 mingdan ortiq so‘zdan iborat “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”da hamda 1988-yilda nashr etilgan 50 ming so‘zlik “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”da ham “qadriyat”, “milliy tiklanish”, “milliy ong”, “milliy iftixor” kabi milliylikimiz aks etgan purma’no so‘zlarni uchratmaysiz. Bu tushunchalar millatchilik kayfiyatini uyg‘otadigan tushunchalar hisoblangan [89; 5,6-b.]. Bu davrda hukmron doiralar o‘lkani itoatda tutib turishning yagona yo‘li sifatida tariximizni, milliy o‘zligimizni, milliy qadriyatlarimizni yo‘q qilishga harakat qilganlar. Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan o‘zligimiz, milliy qadriyatlarimiz tiklanayotgan bir pallada, shubhasiz, mamlakatimizni modernizatsiyalash jarayonida ijtimoiy axborotlar oqimining salbiy jihatlarini filtrlash ko‘nikmasiga ega yoshlarni tarbiyalashda buyuk tariximiz va milliy qadriyatlarimiz asosiy

qurol vazifasini bajaradi. Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” illatlari va yot g‘oyalar, asosan, ijtimoiy tarmoq orqali yoshlarimizning mobil qurilmalarni ishlatishga mukkasidan ketishlari oqibatida kirib kelmoqda.

Tadqiqotimizda o‘quvchilarda yot g‘oyalarga qarshi kurashish ko‘nikmalarini hosil qiluvchi immunitet hosil qilish, bunda yosh avlodning ongida tarixiy xotirani shakllantirish, ularning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishning maqbul pedagogik tizimini hamda tarix fanini o‘qitish metodikasining ayrim jihatlarini takomillashtirishga harakat qildik. Milliy g‘ururi bo‘lmagan, milliy ongi va milliy iftixor hissi shakllanmagan inson xalqimizning milliy boyliklari va milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga harakat qilmaydi, vatanparvar, xalqparvar bo‘lmaydi. Demak o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ularda milliy g‘urur, milliy ong va milliy iftixor tushunchalarini shakllantirish lozim ekan (2.1-rasm). Yuqoridagi kemtik muammoni hal etishda O‘zbekiston tarixi darslarida mavzuga mos ravishda Vatanimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan sarkardalar, xalq qahramonlari, siyosiy davlat arboblarning jasoratlaridan namunalar keltirish, Sharqning buyuk allomalari, mutafakkirlarining ilmiy, adabiy va badiiy merosining jahon fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissalar va ular merosining ulug‘lanishi haqida tarixiy faktlar keltirish, tarixiy shahar va me‘moriy yodgorliklarning salobati, ko‘hna shaharlarimiz tarixi jahonning eng ko‘hna shaharlari tarixi bilan tengdoshligi to‘g‘risida manbalardan namunalar keltirish orqali yechim topish mumkin deb o‘ylaymiz. Tarix fani o‘qituvchisi kreativ fikrlashi, topqirligi, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi ahamiyatlidir. Bu borada o‘qituvchi darslikdan tashqari xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalar, risolalar, monografiyalardan qo‘shimcha manba sifatida foydalanishi va ta’lim jarayonining didaktik ta’minotini yaratishi lozim.



2.1-rasm. O‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishning tarkibiy qismlari

“Didaktika” atamasini birinchi bo‘lib nemis pedagogi Volfreng Ratke (1571– 1635-y.) qo‘lladi va o‘zining ma‘ruzalar to‘plamini (kursini) “Didaktika” yoki “O‘qitish san’ati” deb atadi [23; 7-b.]. Ta’limni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat [43; 167-b.].

2015-yilda nashr etilgan Pedagogika ensiklopediyasida “Didaktika” yunoncha so‘z bo‘lib, o‘rgatuvchi, ta’lim beruvchi degan ma’nolarni anglatib, pedagogikaning o‘qitish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i [113; 265-b], Pedagogik atamalar lug‘atida esa “Didaktika” pedagogikaning ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i, ta’lim nazariyasi deb ta’rif berilgan [57; 34-b.]. Didaktik tizim bu-ta’lim mazmuni, uni tashkil tashkil etishning shakl, metod, jarayonlari va o‘qitish maqsadlarini belgilaydi [57; 33-b.]. Buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy [92; 19-b.] “Didaktika bu faqat ta’lingina emas, balki tarbiyalash ham” deb ta’kidlaydi.

Metod (lotincha-metodas-yo‘l so‘zidan) tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilinib, ilmiy tushuncha sifatida “metod” so‘zi keng ma’noda muayyan maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi [65; 42-b.].

Rus metodisti S.G.Simgalevich quyidagi fikrlarni yozgan: “Hayotda ko‘pincha yomon o‘qituvchilarga duch kelamiz, bu bilan ular o‘z fanlarini yaxshi bilmaydi deb ayta olmaymiz, ular o‘zlarining bilimlarini boshqalarga tushunarli, qulay shaklda yetkazib bera olmaydilar, chunki ular tarixiy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishning uslubiy asoslari bilan tanish emaslar va umuman fan metodikasini o‘zlashtirmaganlar”[98; 6-b.].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida O‘zbekiston tarixi fanidan 7-11-sinflarda quyidagi darsliklardagi mavzularining o‘qitilishida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida ta’lim va tarbiyaning ergonomik talablariga vitagen ta’lim integratsiyasini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq qo‘llash asosida kreativ yondashuvlarga asoslangan dars ishlanmalari, texnologik xarita, baholash mezonlari, testlar, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar ishlab chiqildi (1-3 va 4-7-illovalar):

Zamonov A.T, Ismatova N,K va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: 7-sinf o‘quvchilari.-T: Respublika ta’lim markazi [61], 2022.-192 b.:

1-§. Ajdodlarimizning ma’naviy qadriyatlari - jahon sivilizatsiyasi asoslaridan biri.

2-§. IV-VII asrlarda mamlakatimiz xalqlarining turmush tarzi.

- 16-17-§. VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti.
- 43-44-§. Aql zakovat bilan bunyod etilgan boy ma'naviyat.
- 45-46-§. IX-XI asrlarda ilm fan va madaniyatning yuksalishi.
- 47-48-§. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy.
- 49-50-§. Ahmad al-Farg'oniy.
- 51-52-§. Abu Nasr Farobiy.
- 53-54-§. Abu Rayhon Beruniy.
- 55-56-§. Abu Ali ibn Sino.

Jo'rayev U. va boshqalar, O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik [60].-T.:O'qituvchi, 2019.-160 b.:

- II bob, 21-§. Buxoro amirligida madaniy hayot.
- III bob, 26-§. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Shaharlar hayoti.
- III bob, 28-§. Xiva xonligida madaniy hayot.
- IV bob, 38-§. Qo'qon xonligida madaniy hayot.

Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik [85].-T.:Sharq, 2019.-160 b.:

I bo'lim, 4-5-§. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo aholisining madaniy hayoti.

- IX bo'lim, 39-§. Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti.
- IX bo'lim, 40-§. Teatr va musiqa san'ati.
- IX bo'lim, 41-§. Me'morchilik va tasviriy san'at.

Tillaboyev S., Kenjayev D. O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik.-T.:, 2022.-192 b. [86]:

- Turkistonda ilm-fan va madaniyat.
- O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat.

Jo'rayev N., Zamonov A. O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik [58].-T.:G'.G'ulom, 2018.-144 b.:

VI bob, 15-§. O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari o'quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda quyidagi o'quvlar va tadbirlarni tashkil etish tavsiya etiladi:

- shonli tarixda o'chmas iz qoldirgan davlat arboblari, olimlar, san'at arboblarning tavallud kunlariga bag'ishlangan referat va insholar tanlovini o'tkazish;

- mahalliy ziyoratgohlar, tarixiy qiymatga ega bo'lgan me'moriy inshootlar, binolar, suv inshootlariga o'quvchilarni sayohatga olib borish;
- mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan "Uch avlod uchrashuvlari"ni o'tkazish;
- ta'lim muassasasida "Milliy liboslar kuni" ma'naviy tadbirlarini o'tkazish;
- "Milliy qadriyatlarni qadrlaymiz" rukni ostida devoriy gazetalar tanlovlarini o'tkazish;
- yo'qolayotgan qadriyatlarimizni tiklaymiz mavzusida suhbatlar tashkil etish;
- "Bilishimiz kerak bo'lgan urf-odatlar" mavzusida nuroniylar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish;


Yuqoridagi tadbir va tanlovlarni ta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasiga kiritilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

O'zbekiston tarixi darslarida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishning samarali metodini qo'llash, o'qituvchilarni didaktik materiallar bilan ta'minlash va o'quvchilarning qiziqishlarini rag'batlantirish muhim omillaridan biri sanaladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim modelida pedagoglar fasilitator, tyutor, mediapedagog, moderator kabi vazifalarni bajaradilar [42;12-b., 40;660-b.]. Bu jarayonda ta'lim oluvchi bilimlarni o'zlashtirishida ichki motivatsiya uyg'onadi hamda elektron darslik, elektron qo'llanma va multimediali ta'limiy kontentlarni o'rganish orqali bilimlari mustahkamlanadi.

Ta'limiy saytlar o'quvchilarga mavzuga oid eng so'nggi ma'lumotlarni qisqa fursatda topib o'rganish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ularning zamon bilan hamnafas yashash, mavzuning tub mohiyatiga yetish, manba va ma'lumotlar ustida mustaqil ishlash, darslikda keltirilgan ma'lumotlarni asosiy manba va adabiyotlardagi talqinini qiyosiy taqqoslash qobiliyatlari shakllanishiga zamin yaratadi. Zamonaviy o'qituvchi mediapedagog (media ta'limi beruvchi pedagog, texnika vositalarini boshqara olish, namoyish etish va muloqotga kirishish) va fasilitator (kompyuter texnologiyalari asosida ta'lim berishda pedagog fasilitator, ya'ni jarayonda asosiy yordamchi) vazifalarini bajarish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Quyidagi 2.2-rasmda keltirilgan sxemada elektron ta'lim resurslari va axborot manbalari keltirilgan [40; 661-b.].

Elektron ta'lim resurslari va axborot manbalari



2.2-rasm. Elektron ta'lim resurslari va axborot manbalari

O'zbekiston tarixi darslarida mavzuga oid darslikdan tashqari ma'lumot taqdim etishda o'qituvchi bevosita kompyuter yoki mobil telefon yordamida meros.uz [119] saytiga murojaat etishi mumkin. Saytda O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlaridagi mavjud bo'lgan me'morchilik inshootlari, arxeologik yodgorliklar, texnik inshootlar, ziyoratgohlar va muzeylar haqida birlamchi ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Zamonaviy o'qituvchi mavzuga oid qo'shimcha elektron ma'lumotlarning internet manzili (havolasi)ni o'quvchilarga foydalanish uchun taqdim etish orqali dars davomida ta'limiy saytlar, elektron xarita bilan ishlash, onlayn tarzda virtual muzeylarga tashrif buyurish, ta'lim oluvchilarning axborot texnologiyalari bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga erishadi. Virtual muzeylarning internet manzili (havola) orqali o'quvchilar respublikamiz va jahondagi mashhur muzeylarga virtual sayohat uyushtirishlari mumkin.


O'quvchilarning mavzuga oid egallagan bilimlari va kompetentligini tezkor baholash uchun ilm.uz [118] yoki takr.uz [121] sayti orqali internet tarmog'ida "Tarix" fanidan mavzuli test savollarini onlayn yechish hamda

o'quvchilarning test savoliga bergan javoblarining to'g'ri yoki xatoligini qisqa muddatda aniqlash imkoniyati mavjud. O'quvchining uy vazifasini bajarish uchun sarf etadigan vaqti, uning natijalari ham dars samaradorligini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etishga bevosita bog'liqdir [88; 60-b.].

Bugungi kunda internet tarmog'i xizmatlaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lmagan o'quvchilar bo'lmasa kerak. Bugungi kun yoshlari mobil telefonga tobeligi borgan sari ortib borayotganligi ijtimoiy muammolar sirasiga kiradi. Ko'ngilochar tarmoqlar va mobil ilovalarning yorqin rang ko'rinishga egaligi va zamon talablariga to'la javob berishi yoshlarni o'ziga jalb qilmasligining iloji yo'q, albatta. O'quvchilar bo'sh vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda ko'ngilochar saytlardan foydalanib, qimmatli vaqtlarini behuda o'tkazadilar. Bilim manbai bo'lmish kitoblarni o'qib, izlanish o'rniga, tez fursatda, internet tizimidan tayyor ta'limiy ma'lumotlarni ko'chirib olish orqali topshiriqlarni tezkor bajarishga o'rganmoqdalar. O'z navbatida, bu jarayonda ta'lim oluvchilarning kitobga bo'lgan mehrining so'nishi tabiiy hol, albatta. Mobil telefon orqali yoshlar turli qiziqarli o'yinlar va rang-barang ma'lumotlarga qiziqishlari kuchayib, bilim olishga bo'lgan munosabatlari salbiy tomonga o'zgarmoqda. Bugungi kun o'qituvchisi ta'lim jarayonida o'quvchiga bo'lgan yondashuvini tubdan o'zgartirib, fan o'qitish metodikasida bir qolipga tushib qolmasligi, yangicha individual samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishi va ta'limga yangi innovatsion g'oyalari bilan kirishi lozim. Mobil telefonlar yordamida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini muntazam ravishda masofadan turib boshqarish yoki ular bilan doimiy muloqotda bo'lishi mumkin. O'quvchilarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarida O'zbekiston tarixi fanidan mustaqil topshiriq vazifalarini bajarishlarini samarali tashkil etish maqsadida fan o'qituvchisi telegram ijtimoiy tarmog'ida maxsus guruh tashkil etishi, maxsus guruhga yuqori sinf o'quvchilari yoki bo'lmasa o'quvchilarning ota-onalarini a'zolikka qabul qilishi, muntazam ravishda fanga oid yangiliklar, mustaqil topshiriqlarning elektron varianti, telegram ijtimoiy tarmog'ining maxsus imkoniyatlaridan keng foydalanib, anonim so'rovnoma, test savollari yuborish tizimini yo'lga qo'yishi hamda onlayn tarzda bilimlar bellashuvini (telegram ijtimoiy tarmog'ida Quiz Bot yordamida) o'tkazib borishi lozim. Telegram guruhida o'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarning test savollarga bergan javoblariga qarab, ularning o'zlashtirish darajasini kuzatib borishi, shuningdek, tarixiy jarayon, tarixiy hodisalar haqida matn yuborish orqali, o'quvchilarning tarixiy jarayonga bo'lgan munosabatlari, sharhlarini yozib yuborishlari uchun shart-sharoit yaratishi mumkin. O'z o'rnida berilgan topshiriqlarning bajarilishini doimiy

nazorat qilish, o'quvchilarning bilimi monitoringini yuritish lozim. Berilgan topshiriqlar ma'lumotlarni yod olishga qaratilgan bo'lmazligi, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, ularda tanqidiy va ijodiy fikrlash, jamoa bo'lib ishlash kabi amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mobil telefon o'zida o'quv axborotidan tarkib topgan tovushli, matnli, video va grafikli fayllarni ijro qilish uchun vosita ham hisoblanadi [27; 33-b.]. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012-yil 25-maydagi "Ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 165-sonli buyrug'ida belgilab qo'yilgan tartib asosida mobil telefondan foydalanishga rioya qilinishi shart. Mobil telefonlar nafaqat qo'ng'iroq qilish yoki xabar almashish uchun, balki undan kengroq vazifalarni bajarishga mo'ljallangan. Mobil telefonlar axborot olish, bilimlarni shakllantirish, fikr almashish imkoniyatlarini beradi. Mobil telefonlar o'quvchilarning ta'limiy ma'lumotlar olishida asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. O'quvchilar smartfon yoki planshetlarda ta'lim resurslariga doimo ega bo'lishni xohlashadi [99; 67-b.]. Quyidagi 2.3-rasmida mobil ta'limning qulay imkoniyatlari va kamchiliklari aks ettirilgan.



2.3-rasm. Mobil ta'limning qulay imkoniyatlari va kamchiliklari

Mobil telefondan ta'limiy maqsadlarda foydalanishning o'ziga yarasha afzallik tomonlari bor, albatta. Mobil telefonning afzallik jihatlari:

-ta'limiy ma'lumot beruvchi mobil ilovalarning (nutq, lug'at, multimediali ta'limiy kontentlar) mavjudligi;

- ta'limiy kontentlar, darslik va o'quv qo'llanmalarining elektron formatini barcha o'quvchilarga onlayn yetkazish imkoniyatining borligi;

-ta'limiy kontentlardan foydalanish gigiyenik va estetik talablarga to'laqonli javob berishi;

- veb-brauzer yordamida ta'limiy axborotlar, eng so'ngi ilm sohasidagi kashfiyotlarni qidirib topish imkoniyatining borligi;

-ta'lim xizmatlaridan foydalanishda joy, makon va vaqt chegarasining belgilanmasligi;

-auditoriyadan tashqari ta'limiy muloqot tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;

-milliy qadriyatlarimizni o'zida aks etgan audio, video resurslar va fotomateriallardan dars jarayonida foydalanishning qulayligi;

-ma'lumotlarni qog'ozga pechat qilishga zarurat yo'qligi;

-axborot-resurs markazida mavjud bo'lmagan adabiyot, ilmiy maqolalarni onlayn o'qish imkoniyati mavjudligi;

-mobil qurilma butun bir sinf o'quvchilarining tarmoqda jamoaviy test yechish, o'zaro fikr almashish, topshiriqlarni hamkorlikda bajarish hamda sinfdoshlarining yutuq va kamchiliklarini kuzatib borish imkonini beradi;

-mustaqil bilim olish ko'nikma va malakalari shakllanadi;

-auditoriya va sinfdan tashqari mustaqil topshiriqlar bajarish imkoniyatining mavjudligi.

“Jahon tarixi” darsida mavzuga mos ravishda o'quvchining dunyoqarashi va fikrlashini “O'zbekiston tarixi” fani bilan bog'lab o'rganishga yo'naltirish, darsda o'rganilayotgan davr tarixini hozirgi kun tarixi bilan o'zaro o'xshashlik va bog'liqlik jihatlarini yoki o'rganilayotgan davlatning bugungi kundagi siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga tushuntirib o'tish muhimdir. O'tgan davr bilan hozirgi davr tarixiy jarayonlarining rivojlanishini qiyosiy o'rganish hamda o'rganilayotgan davlatning bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari to'g'risida tushuncha berib o'tish katta ahamiyatga egadir. Tarix darslarida mavzuni qadimgi va hozirgi davr bilan qiyoslash usulida olib borish, ya'ni o'rganilayotgan mamlakatning hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida ma'lumot berish o'rindir. I Go to World.com yoki TripAdvisor.ru sayti orqali mamlakatlar poytaxti, davlatlarning diqqatga sazovor joylarini bevosita videoprojektor yordamida ekranda namoyish etish, o'quvchilarning Jahon mamlakatlari haqidagi tasavvurlarini yorqin shakllanishiga va qiyosiy taqqoslashga yordam beradi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida joylashgan Ermitaj muzeyi, Muqaddas Sofiya sobori, Fransiyadagi Luvr muzeyi, Eyfel minorasi, Versal saroyining tashqi ko'rinishlariga oid suratlar va izohli ma'lumotlari bilan tanishtirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Auditoriyada WI-FI tarmog'i mavjud bo'lgan holda kompyuter, noutbuk, planshet yoki mobil telefon, smartfon yordamida “ZiyoNet” axborot ta'lim tarmog'i, “I Go to World.com”, TripAdvisor.ru, “e-tarix.uz”, tavorix.uz, uz.wikipedia.org, meros.uz, “ziyouz.uz”, “gazeta.uz”, “natlib.uz”, “uza.uz” saytlari va telegram ijtimoiy tarmog'idagi mavjud “arxeologiyauz”, “History”, “Istoriya” botlaridan oqilona foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarimizning tiklanishi borasida amalga oshirilgan islohotlar ko‘lami, olimlarimizning mazkur sohadagi ma’ruzalarini tinglash, moddiy va ma’naviy merosimizni internet tarmog‘idagi mavjud saytlarga joylangan videomateriallari va arxeologik obyektlar, tarixiy obidalarining 3D formatdagi tasvirlarini ko‘rish o‘quvchilarning ma’naviy bilimlarning yanada chuqurroq mustahkamlanishiga zamin yaratadi. O‘quvchilarning bilimlarni qabul qilish, o‘zlashtirish imkoniyatlariga qarab bilim berishning eng samarali pedagogik mexanizmlarini qo‘llaymiz. Zero bugungi kun talabi bo‘yicha zamonaviy o‘quvchi ma’lumotlarni o‘zlashtirishda tezkorlik va eng so‘nggi ilmiy yangiliklardan boxabar bo‘lishida, albatta, elektron formatdagi ta’limiy saytlarga suyanishi tabiiy holdir.

Tadqiqot davomida 7-sinf O‘zbekiston tarixi darsi me’morchilik, san’at va musiqa mavzusida namunali va ochiq dars tashkil etishda Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Gumbaz qishlog‘ida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi bilan hamkorlikda namunali dars tashkil etish mumkin. Aynan shu mavzuda suv saqlash inshootlari, sardobalar haqida so‘z ketadi. O‘quvchilarga qadimiy suv saqlash inshooti “Yog‘ochli Sardoba” suv inshooti haqida to‘liq ma’lumot berish maqsadida Sardoba tumani Gumbaz qishlog‘iga virtual sayohat tashkil etiladi. Sardoba tumanida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi “Yog‘ochli Sardoba” suv inshooti bo‘yicha hudud aholisidan intervyu oladi va bu jarayon onlayn tarzda Telegram tarmog‘ida translyatsiya qilinadi. O‘quvchilar darsning mustahkamlash qismida 5 daqiqa davomida Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi tarixiy suv saqlash inshootini vizual tarzda kuzatdilar. O‘qituvchi mavzuga mos ravishda hudud tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘lkashunoslik manbalari kasbdoshlari bilan hamkorlikda mashg‘ulot olib borishi o‘quvchilarning milliy qadriyatlarimizga qiziqishlarining ortishiga, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi.

Bu turdagi darslarni nafaqat viloyatlararo, balki qo‘shni Respublikalardagi ta’lim muassasalarining umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tarix fani o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tashkil etish ham mumkin. Bunda pedagogdan ozgina mehnat va izlanish talab etiladi. Aynan hudud o‘lkashunosligi mavzusida hududlararo ta’lim muassasalari o‘rtasida Google Meet platformasida telemost o‘rnatish mumkin. Tajriba tariqasida Guliston davlat universiteti akademik litseyi 2022-yil 15-aprel kuni “O‘lkashunoslik” mavzusida Rossiya Federatsiyasi Altayskiy kray Biyskiy litsey o‘quvchilari bilan onlayn davra suhbat (Yandex.Telemost

platformasi) o'tkazildi. (<http://www.biysk-liceum.ru/news/obshchie-novosti/sotrudnichestvo-s-gulistanom-prodolzhaetsya/>)

Fikrimizcha, bugungi kunda ma'ruza, suhbat, savol-javob metodlarini qo'llab, dars davomida tarqatma materiallardan foydalanish orqali tashkil etiladigan an'anaviy tarzda "Namunali darslar" o'rnini WI-fi tarmog'iga ulangan auditoriyada, pedagogik dasturiy vositalar bilan ta'minlangan, mavzu doirasidagi cheksiz bilimlarni egallash, kreativ fikrlash, axborotlarni sintez qilish, qiyoslash, tahlil qilish, taqqoslash imkoniyatini beruvchi raqamlashtirilgan "Kelajak namunali dars"lari egallash vaqti keldi. Yoshlarda badiiy ijod namunalari bilan uyg'unlashgan elektron resurslar vositasida milliy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otish, mardlik, oliyanoblik xislatini shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda zamon talablariga javob beruvchi milliy mentalitetimiz va o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy ruhdagi elektron ta'lim platformasi va elektron resurslarni yaratish, mavjudlarini mukammallashtirish kerak bo'ladi. Aks holda "ommaviy madaniyat" illatlari yoshlarimiz ongiga kirib kelishida to'sqinlik qilishga qodir bo'lmaymiz.

Xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda o'quvchilarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish orqali o'quvchilarning xalqimizning tarixan buyuk ishlarga qodir ekanligi haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari bilan bir qatorda, o'z zakovati bilan dunyoni lol qoldirgan ajdodlarimizga munosib voris bo'lish, ilm va ma'rifatga intilish hissi shakllanishiga zamin yaratiladi. Shuningdek, kelajak sari intilayotgan yoshlarni milliy qadriyatlarimiz bilan oziqlantirish orqali yuksak ma'naviyatli, bugungi kunda demokratik, fuqarolik jamiyati qurish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetadigan barkamol shaxsni tarbiyalashga erishamiz.

2.2-§. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda "O'zbekiston tarixi" fanining pedagogik imkoniyatlari

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish asosida barkamol, kreativ fikrlovchi, vatanparvar kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga bo'lgan qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim va tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishini talab etadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida [2] ta'lim va tarbiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga

qaratilgan tizimli jarayon; ta'lim - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan [2] tizimli jarayon.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs [3] fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z nutqlarida "Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz" [19;22-b.] deb ta'kidlaganlar. Jamiyatga "ommaviy madaniyat" niqobi ostida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik g'oyalarining kirib kelishi oqibatida asrlar davomida sayqallanib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz millat hayotidan o'chib ketishi xavfi yuzaga kelmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining fan, ta'lim va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi YUNESKO tashkiloti tomonidan "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi ostida har bir xalqni boshqa millatdan ajralib turuvchi, o'zligini namoyon etuvchi eng noyob qadriyatlarni asrash, targ'ib etish va avloddan avlodga yetkazish bo'yicha yangi jarayon boshlandi [38;5-b.]. YUNESKO bosh konferensiyasining 2003-yil 17-oktyabrdagi 32-sessiyasida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" Konvensiyasi qabul qilindi [105;59-b.]. Yurtimizda mazkur konvensiya 2007-yilda ratifikatsiya qilindi [38; 5-b.]. O'zbekiston nomoddiy madaniy meros obyektlari milliy ro'yxatidan o'rin olgan [103, 115] xalqimizning milliy qadriyatlarini tarix darslarida o'rganish orqali o'zbek xalqining og'zaki ijodi, musiqa san'ati, madaniyat, sport va etnografiya sohasida boy tarixga ega ekanligini hamda nomoddiy madaniy meros obyektlari YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga olinayotgani va tashkilot tomonidan muhofazaga olinishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tarix darslarida o'quvchilarga yetkazish maqsadga muvofiq deb topdik. O'zbekiston tarixi darslarida milliy qadriyatlardan tarixiy manba sifatida foydalanish yoshlarni vatanga muhabbat, o'z xalqiga sadoqatli bo'lish, vatan oldidagi burchini ado etishga tayyor bo'lishga yo'naltiradi. Zero milliy qadriyatlar insonni ulug'likka yetaklash bilan bir qatorda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Bu borada ikkinchi jahon urushi yillarida Amersfort shahridagi konslagerda yuksak jasorat ko'rsatib, mardlarcha halok bo'lgan 101 nafar o'zbek jangchilarining ko'rsatgan jasoratlarini eslashning o'zi kifoya. O'zbek o'g'lonlari o'zlarining milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatlarini va o'zbek millatining ulug'vorligini butun dunyo

xalqlari orasida namoyon etganlar [122]. O'zbek o'g'lonlarining kattaga hurmat, kichikka izzat va nonni e'zozlash kabi qadriyatlar bilan yo'g'rilgan xalq pedagogikasining namunalari ham milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilarni milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda muayyan ta'limiy qonuniyatlar, didaktik talablarga rioya qilinishi lozim. Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida ma'naviyat sohasida erishilgan bilimlar va tajribalar undan keyingi avlod uchun tarixiy tajriba, xotira bo'lib xizmat qiladi. Bir muayyan tarixiy davrda yaratilgan ma'naviyat boyliklari yig'indisi esa ana shu tarixiy vorisiylikning muayyan ko'rinishlari bo'lib, har bir xalq va millatning ma'naviy merosini tashkil etadi [90; 34-b.].

O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi o'zbek xalqi ruhining mohiyati bo'lib, asrlar davomida boyitilib avloddan avlodga o'tib kelmoqda. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi xalqning o'zligi va g'ururi hisoblanadi [106; 4-b.]. O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi xalqimiz uchun qadrlı bo'lib, milliy qadriyatlarimiz negizini tashkil etadi.

O'zbekiston nomoddiy madaniy meros obyektlari milliy ro'yxati quyidagilardan iborat:

O'zlikni namoyon etishning og'zaki shakl va an'analari- afsona va rivoyatlar, doston, ertaklar, tez aytish, maqol va matallar, topishmoq, Xo'ja Nasriddin hajviyalarini aytish an'analari, latifa, loflar, aytimlar.

Ijrochilik san'ati - maqom san'ati, shashmaqom, cholg'u ijrochiligi, rubob yasash va ijrochilik san'ati, mumtoz ashula yo'llari, katta ashula, qo'shiqchilik san'ati, alla, o'lan, lapar, xalfachilik, baxshi san'ati, raqs san'ati, Xorazm lazgi raqsi, dorbozlik va dor osti tomoshalari, askiya, xalq o'yinlari, o'zbek jang san'ati, kurash, ko'pkari, bolalar folklori, etnosport.

Jamiyatning urf-odat marosim va bayramlari - oilaviy va mavsumiy marosimlar, diniy marosimlar.

Tabiat va koinot bilan bog'liq urf-odatlar - yil fasllari bilan bog'liq ko'nikmalar, Boysun madaniy muhiti, chorvachilik, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, an'anaviy xalq taqvimi va vaqt hisob amallari, pazandachilik, shirinliklar tayyorlash, quruq mevalarni tayyorlash.

An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar - zardo'zlik, kandakorlik, gilamchilik, do'ppido'zlik, qo'g'irchoqbozlik, kulolchilik san'ati (Rishton kulolchilik maktabi), ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik san'ati, kashtachilik san'ati, miniatyura san'ati, marg'ilon

hunarmandchilik maktabi (atlas va adras to‘qish texnologiyasi), zargarlik, temirchilik, sangtaroshlik, naqqoshlik san’ati, xattotlik san’ati.

O‘zbekiston tarixi (7-sinf, 30-dars) “Me’morchilik, san’at va musiqa”, (39-dars) [61] “Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va bunyodkorlik”, (9-sinf, 3-dars) “XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti”, (9-sinf, 41-dars) "Me’morchilik va tasviriy san’at” mavzularini o‘rganishda xalqimizning nomoddiy meros xazinalari haqida qo‘shimcha manbalardan ko‘rgazmali tarzda ma’lumotlar berilishi o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotimizda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqish ko‘rsatkichlari aniqlashtirildi (2.4-rasmga qarang).

2.4-rasm

O‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqish ko‘rsatkichlari

№	Mezonlar	Mazmuni
1	Oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish hissi shakllanganligi	O‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, bunda xalqning azaliy milliy qadriyatlarini unitilishini oldini olish, milliy qadriyatlarning mazmun va mohiyatini tushunish, ularni asrab-avaylash, asrlar osha sayqallanib kelayotgan milliy qadriyatlarni hurmat qilishga va ularni e‘zozlashga, bunyodkor g‘oyalarga ergashishga o‘rgatish hamda o‘quvchilarni yod g‘oyalarga qarshi kurashishda o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish.
2	Axloqiy qadriyatlarning bilishi va unga amal qilishi	
3	Milliy va mahalliy o‘lka tarixini bilishi	
4	Muqaddas qadamjolar, mahalliy ziyoratgohlar haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi	
5	Ko‘hna va mahalliy tarixiy yodgorliklarni bilishi	
6	Ajdodlarimizning ilmiy va adabiy merosi haqida bilimlarga ega bo‘lishi	
7	Yurtning va mahalliy ma’naviy boyliklarini bilishi	
8	Milliy, mahalliy urf-odat va an’analarni bilishi	
9	Mafkuraviy xurujlarga qarshi immunitet hosil bo‘lganligi	
10	Axborotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati shakllanganligi	
11	Ommaviy madaniyat illatlari, sharq va g‘arb madaniyatini ajratish ko‘nikmasiga ega bo‘lganligi	

Shuningdek, O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish asosida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon modeli ishlab chiqildi (2.5-rasm).

O‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish jarayoni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dars mashg‘ulotlari, to‘garak mashg‘ulotlari, madaniy tadbirlarda amalga oshiriladi. Modelni yaratish jarayonida o‘quv hamda darsdan tashqari jarayonda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat hissinini shakllantirish bo‘yicha 2019-2020, 2020-2021, 2021-2022-o‘quv yillaridagi mavjud holat o‘rganildi, o‘quvchilarni milliy

qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish jarayoni tahlil qilindi. O'quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish darajalari va mezonlari takomillashtirildi. Mezonlar o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam berdi.


Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishni takomillashtirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaning yangi modelini ilmiy-pedagogik asoslari ilgari surildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning o'zlari yashagan hudud tarixi va tarixiy-madaniy yodgorliklarni bilishi hamda oilaviy qadriyatlarni e'zozlashi, milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish birinchi darajali ustuvor vazifa sifatida belgilanib, o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat olib borishning pedagogik imkoniyatlarini jarayon komponentlarining algoritmik bosqichlariga ko'ra izchillik va normativlik tamoyillariga muvofiq, muammoli evristik modellashtirish usullarini qo'llagan holda, quyidagi yo'nalishlarda evristik topshiriqlar berish orqali, o'quvchilar kreativ fikrlashga, ularni ijodkorlik bilan shug'ullanishga jalb etuvchi topshiriqlarni bajarishga yo'naltirildi:

birinchi yo'nalish – Xronologik tartib bilan oila shajarasini tuzish. oilasi qaysi urug'ga mansubligi, urug'ning kelib chiqish tarixi haqida grafikli taqdimot tayyorlash;

ikkinchi yo'nalish - yashab turgan hududi bo'yicha joy nomlari (ziyoratgoh va manzilgoh, qishloq, ovul, mahalla, ko'cha nomlarining kelib chiqish tarixi), toponimikasini o'rganish. Joy nomlarining o'tmish va hozirgi kunda nomlanishi, nomlanish tarixi haqida, bu joy nomlarining boshqa joy nomlari bilan o'xshashlik jihatlari, kreativlik imkoniyatlarni qo'llagan holda qiyosiy tahlil qilish, joy nomlari haqida nuroniy oqsoqol va momolardan intervyu olish, ularning so'zlarini daftarga qayd etish, qo'shimcha ravishda adabiyot, gazeta va jurnallar, ijtimoiy tarmoq va ommaviy axborot vositalaridagi mavjud manbalardan foydalanish, slayd ko'rinishida taqdimot tayyorlash;

uchinchi yo'nalish - o'zi yashab turgan hududdagi moddiy yodgorliklar, me'moriy inshootlar (tarixiy manzilgoh, tarixiy inshootlar, tarixiy obida, tarixiy obyekt, uy muzeylari, tarixiy qadamjolar, ziyoratgoh, masjid, haykal, byust,) tarixi bo'yicha kichik tadqiqot olib borish, moddiy yodgorliklar tarixini o'rganish, foto, video va matnli hisobot tayyorlash. O'quvchilar o'z qiziqishlari va ijodkorligi nuqtai nazaridan videorolik tayyorlash;



2.5-rasm. O'zbekiston tarixi fanini o'qitish asosida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon modeli

to'rtinchi yo'nalish - hududga xos urf-odatlar, diniy qadriyatlar, bayram va sayllar, marosimlar, rasm-rusumlar, milliy kiyimlar, hunarmandchilik sohalari, oshpazlik va pazandachilik, kattalarni hurmat qilish odoblari, dehqonchilik va chorvachilik an'analari, milliy sport o'yinlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar to'plash hamda rasmlari taqdimot tayyorlash;

beshtinchi yo'nalish – Muammoli tarixiy mavzu doirasida o'quvchilarni evristik faoliyatga yo'naltirishga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyotlar va ilmiy manbalar bilan ishlash malakasini shakllantirish. O'quvchining qiziqishi asosida tarixiy voqea, tarixiy jarayon, tarixiy shaxs, tarixiy shahar bo'yicha qo'shimcha adabiyot va manbalar bilan ishlab, mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish, tarixiy mavzu doirasida ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, ilmiy manbalar bilan ishlash va ularni tahlil qilish malakasini shakllantirishda o'qituvchi ko'makchi bo'lishi, u bilan birgalikda ilmiy izlanish olib borishi talab etiladi. O'quvchi mustaqil ravishda tayyorlagan referat, mustaqil ishini reja asosida dars jarayonida himoya qiladi;

oltinchi yo'nalish - yuqori sinf o'quvchilarini tarixiy ommabop ilmiy mavzuda respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarga tezis, maqola tayyorlashga yo'naltirish. O'qituvchining iqtidorli o'quvchi bilan hamkorlikda tezis, ilmiy maqola tayyorlash orqali o'quvchining ijodkorlik, tadqiqotchilik qobiliyatlari shakllantiriladi;

yettinchi yo'nalish - o'quvchi o'zi yashayotgan mahallasining vatanparvar insonlari hayoti va faoliyatini yoritish, ta'lim muassasasi pedagog jamoasi va o'quvchilarining qo'lga kiritgan yutuqlari bilan bog'liq ko'rgazmali burchak yoki hudud tarixi bilan bog'liq o'lkashunoslik muzeyini tashkil etishda maktab jamoasiga ko'maklashadi. Moddiy va ma'naviy qiymatga ega bo'lgan tarixiy buyumlarni ta'lim muassasasida tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeyiga taqdim etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etiladigan tarix fanidan namunali darslar ushbu o'lkashunoslik muzeyida o'tkazish orqali darslar samaradorligini oshirilishiga erishiladi.

Tadqiqotimiz davomida "Tarix" fanidan o'quvchilarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish hamda ularning fan bo'yicha bilimlarini mustahkamlashda o'quvchilarda mustaqil ish topshiriqlarini (krossvord, test tuzish, tarixiy ma'lumotlar asosida grafik, slayd va hokazo) bajarish, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish, ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish amaliyotini tadqiqot obyektlarida amalda qo'lladik. O'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat bilan O'zbekiston tarixi

fanining pedagogik imkoniyatlari vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashga qaratib, o'quvchilarning o'z hayotiy tajribalaridan samarali foydalanishni nazarda tutgan holda, ta'lim muassasalarining 10,11-sinf o'quvchilarini mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga yo'naltirdik. Tadqiqot yakuni bo'yicha o'quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning o'z o'lkasi tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortganligi, umuman olganda milliy qadriyat tushunchasining asl mohiyatini tushunganliklarining guvohi bo'ldik. O'quvchilarni mustaqil ravishda ilmiy tadqiqot olib borishga yo'naltirish amaliyoti bilan bir o'rinda ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib etishni bugungi kunning dolzarb vazifasi sifatida qaradik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surilganligini asosiy kun tartibiga qo'yishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi 3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori [4] hamda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining "Xalq ta'limi tizimida o'quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot-texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishni oshirish, o'quvchi-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 28-martdagi 107-sonli buyrug'i qabul qilindi [102]. Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlashda to'rtinchi tashabbus doirasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish muhim omillar sirasiga kiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-10-sinflarida tajriba sifatida milliy qadriyatlarimiz aks etgan tarixiy mazmundagi adabiyotlar ro'yxati mavzular doirasi shakllantirilib, adabiyotning ijtimoiy mohiyatini to'laqonli tushunish, mutolaa qilish uchun muddat belgilanib, taqdimot reja jadvali ishlab chiqildi. Tadqiqotimiz davomida o'quvchilar asosan umumiy o'rta ta'lim maktabining kutubxonasi, markaziy kutubxona yoki o'qituvchi tomonidan elektron shaklda ta'lim muassasasi kitobxonasi (axborot kutubxona markazi) fondiga joylashtirilgan adabiyotlarni mutolaa qildilar. Aniqroq aytadigan bo'lsak, O'zbekiston tarixi [61] fanidan (7-sinf 5-bob, 31-39 paragraf), Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan bo'limni o'rganishda, bo'limga tegishli bo'lgan mavzularni batafsil va kengroq yoritish maqsadida

o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida mustaqil ravishda o'qishlari uchun qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati (bibliografiya) va taqdimot reja jadvali ishlab chiqildi. Fan o'qituvchisi tomonidan o'quvchilarga Amir Temurning "Temur tuzuklari" [50], Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur darslari" [52] va "Amir Temur haqida hikoyalar" [53], Nuriddin Ismoilovning "Sohibqiron" [75], Shavkat Bobomurodning "Sohibqiron Temurbek" [95], Yunus O'g'uzning "Amir Temur: Yuksalish sari, Dunyoning hokimi" 1-2 kitoblarini [100] va boshqa adabiyotlarni o'qishlari tavsiya etildi. Adabiyotlarning mazmuni va hajmiga ko'ra ikki va uch nafar o'quvchilarga ham bitta adabiyotni o'qishlari va taqdimot materialini tayyorlash tavsiya etilishi mumkin. O'tiladigan mavzu doirasida adabiyotning mazmuniga xos tarzda taqdimot kuni belgilandi. Taqdimot jarayoni 5-8 daqiqa davom etib, o'quvchilarning o'zlari o'qigan adabiyotning asosiy mazmunini, asar haqida o'z fikrini o'zining tengdoshlariga "O'quvchi-o'quvchi" metodini qo'llagan holda bayon etdilar (slyd, taqdimot shaklida). Ta'lim muassasasi va o'quvchilar ichki imkoniyatlaridan kelib qo'shimcha adabiyotlarni Kitobxon.com saytidan (<https://kitobxon.com/uz>) o'qishlari mumkinligi tushuntirildi[123].

2.6-rasmda Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan bo'limni o'rganishda o'quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ravishda o'qishlari uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va taqdimot jadvali keltirilgan.

O'quvchilar qalbida vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik, halollik, kamtarlik, oliyjanoblik kabi buyuk xislatlarini shakllantirish hamda o'quvchilarning nutqini o'stirish va so'z boyligini oshirishda kitobxonlik ijobiy samara berdi. Tarixiy ma'lumotlarga boy bo'lgan badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish, o'quvchilarda o'tmish haqida jonli tasavvur hosil qiladi. O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan ma'lumotlar, o'rganilayotgan tarixiy voqea va hodisalarga nisbatan o'quvchilarda daxldorlik, insonparvarlik, vatanparvarlik hissini shakllantirib, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy mazmundagi asarni o'qish orqali o'quvchining ongida hosil bo'lgan obrazlar va tarixiy voqealar xotirada uzoq vaqt davomida saqlanishiga zamin yaratadi.

Tarix fani o'qituvchisi yangi mavzu bayonidan so'ng mavzuga oid qo'shimcha adabiyot va tarixiy asarlardan qiziqarli parchalarni o'quvchilarga o'qib berishi, asar muallifi haqida ma'lumot berib, asarni o'qib chiqishni tavsiya etishi ham muhim ahamiyatga ega. Maktab darsliklariga mavzuga oid tarixiy asarlardan parcha keltirish, ushbu asarni

to'liq o'qib chiqishni tavsiya etish to'g'risida ma'lumotlar kiritilishi o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ichki motivatsiya uyg'otadi. O'quvchilarning mustaqil ravishda uyda o'qishlari uchun chet el yozuvchilarining O'zbekiston tarixiga oid kitoblarini o'qishni topshiriq sifatida berish orqali ularda ma'lum bir tarixiy voqealarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish bilan birga tanqidiy fikrlashga yo'naltiradi.

Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi "Temur tuzuklari" kitobi [50] hamda Amir Temurning hayoti va faoliyatiga oid bo'lgan Lyusyen Kerenning "Amir Temur saltanati" [67] asarini o'qish orqali o'quvchi boshqa asarlarda uchramaydigan fikrlar, tarixiy dalillar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sohibqiron Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o'rni haqida Fransiyada o'nlab tarixiy-badiiy va ilmiy asarlar yaratilgan bo'lib, ulardan eng mukammali Lyusyen Kerenning "Amir Temur saltanati" asari bo'lib, kitob ilk bora 1978-yilda Shveysariyaning Nyushatel shahridagi "La Bakonyer" nashriyotida chop etilgan. [67;2-b.]. Buyuk davlat arbobi Amir Temur haqida ingliz dramaturgi Kristofer Marlou 1588-yili tarixiy pyesa, mashhur nemis kompozitori Georg Gendel 1724-yili opera, amerikalik adib Edgar Po esa 1827-yili she'riy poema yaratganligi [48;6-b.], shubhasiz, ajdodlarimizning jahon tarixida o'chmas iz qoldirganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2020-yil 15-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to'g'risida" gi yo'riqnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida 7 mh/21-2020q/q-son qarorida kundalik dars ishlanmalari (konspekt) daftari yuritish belgilanmagan [14]. Normativlik tamoyiliga asoslanadigan bo'lsak, qarorda fan o'qituvchilaridan ortiqcha keraksiz hujjatlar talab qilmaslik, o'qituvchilarning o'zlarining mutaxassisliklari bo'yicha muntazam shug'ullanishlariga imkoniyat berish, tashqi o'rganishlarda o'qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda, uning yuritgan me'yoriy hujjatlariga qarab emas, balki o'qituvchi darsining tahlili, o'quvchilarining fan sohasida erishgan yutuqlari bilan baho berilishi nazarda tutilgan. Fikrimizcha, o'qituvchining har bir darsda qo'llagan uslubi o'ziga xos, bir-birini takrormasligi lozim. Tadqiqot olib borilgan ta'lim muassasalarida pedagoglar elektron o'quv kontentlar bankini yaratib, pedagogik samaradorlik hamda vaqt unumdorligini oshirishga erishganliklarining guvohi bo'ldik.

Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan bo'limni o'zlashtirishda o'quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ravishda o'qishlari uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar (bibliografiya) ro'yxati va taqdimot reja jadvali

№	O'quvchilarning F.I.Sh	Adabiyot nomi	Adabiyot hajmi	O'qish muddati	Taqdimot kuni
1.	Xamdamov Shoxrux Baxtiyor o'g'li	Amir Temur Ko'ragon. Temur tuzuklari. T.: "Fan va texnologiya", 2014 yil	196 bet	20 kun	1.02.2021 yil
2.	-//-	Ahmedov Bo'riboy. Amir Temur darslari: umumiy ta'lim va maxsus tarix maktablari o'qituvchilari va o'quvchilari uchun qo'lanma.-T.: "Sharq", 2001 yil	144 bet	20 kun	08.02.2021 yil
3.	Otabekov Jasur Ixtiyor o'g'li	Ahmedov Bo'riboy. Amir Temur haqida hikoyalar.-T.: "Yozuvchi", 1998 yil	48 bet	10 kun	15.02.2021 yil
4.	-//-	Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. -T.: "Ma'naviyat", 1999 yil	224 bet	30 kun	22.02.2021 yil
5.	-//-	Nuriddin Ismoilov. Sohibqiron 1-kitob.-T.: "Tamaddun" 2016 yil	272 bet	30 kun	1.03.2021 yil
6.	-//-	Shavkat Bobomurod. Sohibqiron Temurbek.-Samarqand: "Zarafshon", 2019 yil	248 bet	30 kun	15.03.2021 yil
7.	Nizomiddinova Rayxon Temur qizi, Boburov Alisher Xamza o'g'li	Yunus O'g'uz. Amir Temur: Yuksalish sari 1-kitob. Dunyoning hokimi 2-kitob.-T.: "Yangi asr avlodi", 2013 yil	588 bet	50 kun	22.03.2021 yil

Izoh: Adabiyotlarning mazmuni, hajmiga qarab ikki va uch nafar o'quvchilarga ham bitta adabiyotni o'qishga tavsiya etish mumkin. Qo'shimcha adabiyotlarni Ziyouz.com kutubxonasi sayti (<https://n.ziyouz.com/kutubxona>) orqali topish imkoniyati mavjud.

2.6-rasm. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan bo'limni o'rganishda o'quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ravishda o'qishlari uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va taqdimot jadvali.

Bu borada pedagogik natijaga erishishga yordam beruvchi pedagogik ergonomikadan foydalangan holda ishlab chiqilgan 1 soatlik O'zbekiston tarixi (7-sinf) **Turon xalqlari madaniy hayoti** mavzusida 1 soatlik dars texnologik xaritasini metodik jihatdan tahlil qilamiz (2.7-rasm). Har bir bo'lim so'ngida o'quvchilarning fan bo'yicha egallagan bilimlarini nazorat qilish, monitoring o'tkazish hamda ta'limiy bo'shliqlarni aniqlash maqsadida bilimlarni tekshirish, nazorat va hisobga olish hamda qayta

takrorlash kabi komponentlarni o‘zida jamlovchi umumlashtiruvchi dars turidan foydalaniladi. Odatda, yangi bo‘lim boshlanishida yangi bilimlarni, ma’lumotlarni o‘zlashtirish darsi qo‘llaniladi.

7-sinf O‘zbekiston tarixi, VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti mavzusidagi dars ishlanma



Umumiy ma'lumot			
Fan:	O'zbekiston tarixi		
Sinf:	7-sinf		
Mavzu:	VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti		
Mashg'ulot soati:	45 daqiqa		
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	-og'zaki bayon qilish; -suhbat; -kichik guruhlarda ishlash; -Iqtidorli o'quvchi minbari.		
Darsning maqsad va vazifalari:			
Maqsad:	O'quvchilarda tayanch va tarix faniga oid umumiy va kuchaytirilgan kompetensiyalarni shakllantirish hamda O'zbekistonning me'morchilik, san'at va musiqa sohasidagi moddiy va nomoddiy meroslari bilan o'quvchilarni tanishtirish orqali ularda milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish.		
Vazifalar:	O'zbek xalqining madaniyati, ma'naviyati, milliy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon sivilizatsiyasiga ta'siri haqidagi bilimlarini rivojlantirish; Davr tarixi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy-me'moriy obidalar haqida ma'lumot berish.		
Dars mashg'uloti uchun materiallar:			
1.O'zbekiston tarixi (7-sinf) darsligi. 2.VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti 3. https://meros.uz/internet/manzili 4. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi. http://ich.uz/uz/internet/manzili			
Dars jarayoni va bosqichlari:			
Dars bosqichlari	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash, kichik guruhlarga bo'lish va baholash mezonini e'lon qilish. Mavzuga mos tarixiy asardan ma'lumot o'qib berish	Suhbat, munozara	5 daqiqa
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	Iqtidorli o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tayyorlab kelingan	Iqtidorli o'quvchi minbari	25 daqiqa

	ko'rgazmali qurollar hamda qo'shimcha ma'lumot va manbalar yordamida yangi mavzuni tushuntirish		
3-bosqich: O'tilgan mavzuni mustahkamlash, xulosa	Kichik guruhlarda mavzuga oid topshiriqar bajarish va yurtimiz milliy qadriyatlarining xorijda qadrlanishi to'g'risida ma'lumot berish. Adabiyotlar mutolaasi va taqdimot	Kichik guruhda ishlash	10 daqiqa
4-bosqich: O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa	O'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash. Uyga vazifa: Mavzuga oid qo'shimcha manba, adabiyotlar va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan ma'lumotlarni tahlil qilish	Iqtidorli o'quvchi minbari	5 daqiqa

2.7-rasm. O'zbekiston tarixi fanidan "VI-VII-asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti" mavzusi bo'yicha 1 soatlik darsning texnologik xaritasi (O'zbekiston tarixi 7-sinf)

Tarix fanini o'qitishda ta'lim jarayonini tavsifiga ko'ra dars turlari quyidagilarga bo'linadi:

- aralash, birlashtirilgan yoki murakkab dars;
- yangi bilimlar, ma'lumotlarni o'zlashtirish darsi;
- qayta takrorlash, umumlashtiruvchi dars;
- bilimlarni tekshirish, nazorat va hisobga olish darsi [74; 71-b].

O'qituvchi darsga tayyorgarlik bosqichida mavzuga oid dars ishlanmasi va darsning texnologik xaritasini ishlab chiqadi.

birinchi bosqich, darsning tashkiliy qismida darsning maqsadi va vazifalarini hamda baholash mezonlarini e'lon qiladi. Baholash mezonlari o'quvchilarning dars davomida faolligini oshiradi, egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning me'yorlarini belgilab beradi. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Mavzuga mos bo'lgan tarixiy asardan parcha o'qib beriladi;

ikkinchi bosqich, yangi mavzuni bayon qilishda yangi ma'lumotlarni reja bo'yicha, kichik bo'laklarga bo'lib, ketma-ket ma'lum uzviylikda va mantiqiy bog'liqlikda, ko'rgazmali tarzda "Iqtidorli o'quvchi minbari" metodiga amal qilgan holda iqtidorli o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tayyorlab kelingan ko'rgazmali qurollar hamda qo'shimcha ma'lumot va manbalar yordamida yangi mavzu tushuntiriladi. Bunda

iqtidorli o'quvchilar mavzu bayonini tushuntirishda o'qituvchiga ko'maklashadilar. O'quvchilarning mavzu doirasida bergan savollariga iqtidorli o'quvchilar javob beradilar. Reja asosida iqtidorli o'quvchilarga yangi mavzularni o'zlashtirish, ko'rgazmali qurollar hamda qo'shimcha ma'lumot va manbalardan ma'lumot to'plash uchun kamida bir hafta muhlat beriladi. Iqtidorli o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalaridan dars davomida foydalanish, ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllanishiga yordam berish bilan bir qatorda, o'quvchilarning dars davomida doimiy band bo'lishlari, vaqtdan unumli foydalanish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi. Bir soat dars davomida har bir o'quvchini baholash bilan qamrab olishning eng samarali yo'li bu test savolari bilan ishlash va blits savol-javob o'tkazishdir. Iqtidorli o'quvchilar dars davomida o'qituvchining unga ko'proq e'tibor qaratishini va salohiyatini namoyon etishi uchun rag'bat talab qiladilar. O'qituvchi dars davomida faqat iqtidorli o'quvchilar bilan ishlaydigan bo'lsa, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar chetda qolib ketishlari mumkin;

uchinchi bosqich, nazariy bilimlar kichik guruhlarda mavzuga oid turli xil topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilarda yangi mavzuga oid amaliy ko'nikmalar hosil bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlashda o'quvchilarning muloqotga kirish ko'nikmalari shakllanadi, ularning bilimlari takomillashadi, eng asosiysi vaqt tejaladi hamda sog'lom ta'limiy raqobat muhiti yaratiladi. Darsning ta'limiy maqsadidan kelib chiqqan savol va topshiriqlar beriladi. Yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilar mavzu doirasida o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishlari va mustaqil ishlashlari uchun sharoit yaratiladi. O'quvchilar mustaqil o'qigan tarixiy asarning mazmun-mohiyati aks etgan taqdimot o'tkazadilar;

to'rtinchi bosqich, o'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa qismida o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirish darajasi, darsning tashkiliy qismida e'lon qilingan baholash mezonlari asosida adolat tamoyillarga asoslangan holda, nisbiylikka amal qilmagan holda o'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentlik darajasi baholanadi. Uyga vazifa sifatida o'quvchilarning ichki imkoniyatlariga qarab o'tilgan mavzuni yanada mustahkamlash, kelgusi darsga birlamchi tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan, mustaqil bajarishga mo'ljallangan test savollari, amaliy topshiriqlar, o'tilgan va kelgusi dars mavzusiga oid qo'shimcha manba, adabiyotlar va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan ma'lumotlarni to'plash, qiyoslash, tahlil qilish va foto lavhalar yordamida taqdimot tayyorlash topshiriqlari beriladi.

O'quvchilarning dars davomida va darsdan tashqari vaqtda mustaqil topshiriq bajarishlari amaliy bilimlar, malaka va ko'nikmalarining takomillashishiga asos bo'ladi. Ushbu jarayonda shaxsni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish ustunligi ta'minlanadi. Mustaqil topshiriq bajarishda quyidagilar asosiy mezon hisoblanadi:

- o'quvchi-shaxsi jadal intellektual rivojlanadi;
- o'quvchining kasbga yo'naltirish va kasb tanlashdagi qiziqishlari, qobiliyati va layoqatiga mos chuqurlashtirilgan va tabaqalashtirilgan mustaqil topshiriq bajarish ko'nikmasi shakllanadi;
- ijtimoiy yetuk, mustaqil fikrlash, ijodiy faol, yetarlicha intellektual imkoniyatga ega, ma'naviy barkamol, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan o'quvchi shaxsi shakllanadi.

O'quvchilarning dars davomida va darsdan tashqari mustaqil topshiriqlar bajarishlari va mustaqil bilim olishga yo'naltirish muammosi dolzarb masala sifatida ijtimoiy xususiyatga ega, bu muammoni ilmiy-pedagogik jihatidan hal etish lozim. Tarix fani o'qituvchilari o'quvchilarning bilim saviyasi, qobiliyatlariga mos ravishda mustaqil ishlash va mustaqil bilim olish uchun tizimlashtirilgan topshiriqlar to'plamini yaratishlari lozim. O'quvchilar topshiriqlarni bajarishlarida ularda ichki motivatsiya va yuksaklikka intiluvchi maqsadning yuzaga kelishi hamda o'z ishidan quvonch va qoniqish hosil qilishlari kerak. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish va ularning faolligini oshirish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy shakli dars bo'lib, o'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlarning asosiy qismini dars davomida o'zlashtiradilar. Bugungi kunda ilmiy va siyosiy yangiliklar hajmi kengayib, muttasil oshib borayotgan davrda o'quvchilar o'z bilimlarini uzluksiz ravishda oshirib borishlari uchun ta'limga sinfdan tashqari mustaqil topshiriq bajarish amaliyotini joriy etishni davr taqozo etmoqda. Ta'limning mustaqil bilim olish shaklida mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar, shu jumladan, O'zbekiston tarixida munosib o'rin tutgan ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosi, xalqimizning milliy qadriyatlarini batafsil o'rganish uchun qulay pedagogik muhit yaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tarix fani o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'quvchilarda tarix faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda, tarixiy merosni chuqur o'rganish va o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarni rivojlantirish, ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularning o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan jihatlarini amaliyotga joriy etish

muhimdir. Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalari asosida tarix darslarini loyihalash va rejalashtirish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmuni takomillashadi.

2.3-§. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili (metodik aspekt)

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga bo'lgan qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim va tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Bu vazifani amalga oshirish mas'uliyati o'qituvchilar zimmasiga yuklatiladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali usullarini mukammal bilishi, kasbiy va metodik mahoratini muntazam ravishda oshirib borishi talab etiladi.

Mustaqillik yillarida moddiy va ma'naviy meros, ma'naviy qadriyatlarni tadqiq etishga keng imkoniyatlar yaratildi. Bu imkoniyat, ayniqsa, ta'lim mazmunining milliy asoslarini mustahkamlash, darslarni mazmun jihatidan boyitishga qulay metodologik zamin yaratdi. Shu bois respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda moddiy va ma'naviy meros, xususan, milliy qadriyatlardan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka egallashlarida o'ziga xos pedagogik qulaylik yaratadi. Lekin bu ta'limiy jarayon muayyan ilmiy xulosalar asosida amalga oshirilishi lozim. Bu, o'z navbatida, maxsus pedagogik tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoshlar tarbiyasi haqidagi fikr bildirar ekan, Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq"[19; 23-b.]. Darhaqiqat, yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishlari, salohiyatlarining ro'yobga chiqishi ularning oilada olgan tarbiyasiga, ta'lim muassasalarida olgan ta'limiga bevosita bog'liq. Bu borada tarix fani, uning yordamida milliy qadriyatlarni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir" [65;

22-b.] nomli asarida yoshlarga quyidagicha nasihat qilganlar: “O‘qing, tarixni o‘rganing, tarixni, o‘tmishini bilgan odam kelajakda adashmaydi.

So‘nggi paytlarda “O‘zbekiston tarixi” fanining o‘qitilishida ko‘proq nazariyaga e‘tibor qaratilib, amaliy darslarning o‘tkazilishiga hamda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash masalasiga kam e‘tibor berilmoqda. Zero, nazariy dars amaliyot bilan uyg‘unlashganda tarixiy ma‘lumotlar o‘quvchining xotirasiga abadiy muhrlanadi.

Tarix darslarida amaliy mashg‘ulotlar kam olib boriladi, asosan, fizika, kimyo, musiqa, texnologiya va jismoniy tarbiya darslarida amaliy mashg‘ulotlardan keng foydalaniladi. Fizika, matematika va kimyo fani o‘qituvchilari o‘rganilayotgan mavzuni o‘quvchilarga misol va masala yechish hamda formula va shakllar yordamida tushuntiradilar. Tarix fani o‘qituvchisi tarixiy davrlarga oid insonlar hayoti va faoliyatini aynan o‘zini ko‘rsatib berolmaydi, faqat og‘zaki nutqda tushuntirish imkoniyatiga ega, ko‘rsatsa ham faqat tarixiy davrlarga oid mehnat qurollarini, o‘rta asrlardagi hukmdorlarning o‘zaro urushlarda ishlatgan harbiy qurollarining rasmlarini ko‘rsatishi mumkin. Bu ko‘rgazmali qurollar o‘tmish haqida real tasavvur qilishga yordam beradi. Dars uchun tanlangan ko‘rgazmali qurollar ilmiyligi jihatdan o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati va yoshiga mos bo‘lishi kerak. Tarix darslarida o‘qituvchining og‘zaki nutqi asosiy rol o‘ynaydi, lekin o‘qituvchi mavzu doirasida mukammal tarixiy faktlar haqida ma‘lumot bersa-da, bu ko‘rgazmali qurollardan foydalanishning o‘rnini bosa olmaydi. O‘qituvchining dars davomida mavzuga oid xarita, sxematik reja, sxematik diagramma, grafiklardan foydalanilib dars o‘tishi vaqt unumdorligini va ta‘lim samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi ko‘rgazmali qurollardan foydalanmay mavzuni tushuntirishda ko‘p vaqt yo‘qotadi va darsning ta‘limiy maqsadiga to‘liq erisha olmaydi. Tarixiy mavzudagi hujjatli filmlarni ko‘rgan o‘quvchi filmdagi tarixiy shaxslar va davr tarixini o‘rganishga intiladi. O‘z o‘rnida tarixiy filmlarning o‘quvchilarga namoyish etilishida o‘zbek xalqining mentalitetiga zid bo‘lmagan, normativlik tamoyiliga asoslansak, 2017-yil 8-sentyabrdagi “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi (O‘z.R.Q.-444-son) Qonuni [101] talablariga qat’iy amal qilish talab etiladi, ya’ni shafqatsizlik, jismoniy va (yoki) ruhiy zo‘ravonlik, jinoyat yoki jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar tasviri aks etgan tarixiy filmlarni o‘quvchilarga tomosha qilishga tavsiya etish maqsadga muvofiq emas.

Tarix darslarida ko‘rgazmalilik, nazariya va amaliyotning birligi prinsipidan foydalanish dars samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda

bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga yordam beradi. Ko'rgazmalilik prinsipi, ya'ni darsda tabiiy, tasviriy, didaktik, audio-video materiallar, multimedia, mavzuli slaydlardan foydalanish dars jozibadorligini oshiradi. Darsning ta'limiy maqsadini belgilash va uni amalga oshirishda maqbul didaktik vositalar va texnik jihozlanish darsning eng asosiy shartlaridan biridir. O'qituvchining asosiy darslikdan tashqari tarixiy manbalar, ko'rgazmali qurollar va axborot kommunikatsion texnologiyalarga oid ishlanmalar bilan qurollangan holda darsga kirishi dars samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotimiz davomida tarix darslarining didaktik ko'rgazmali vositalari, ko'rgazmali qurollari va ekskursiya obyektlarini aniqlashtirdik. Ular quyidagilar:

- tarixiy hujjatli filmlar, tarixiy voqealarni aks ettiruvchi teleko'rsatuv va epizodlar, videodarslar, audiokitoblar, kino hujjatlar, diafilmlar, kinofilmlar, o'quv diapozitivlar, video hujjatlar;

- tarixiy obraz aks ettirilgan suratlar, adabiyotlardagi illyustratsiyalar, tarixiy asarlar, tarixiy portretlar, tarixiy voqea aks etgan karikaturalar, tarixiy roman va qissalar;

- tarixiy xaritalar, tarixiy atlaslar, grafik organayzerlar, sxemalar, texnik sxema, sxematik reja, lokal sxema, tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish hamda umumlashtirishga yordam beruvchi sxemalar, grafiklar, diagramma, infografikalar, grafik diagramma, tarixiy davrga xos iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari;

- tarixiy voqealar kalendari, tarixiy voqealarning xronologik jadvali, tayanch so'zlar, izohli lug'at, umumlashtiruvchi va qiyoslovchi yozma tablitsalar;

- tarixiy shaharlarning rasmi, ramziy belgilar, ramziy ahamiyatga ega tasvirlar, tarixiy obidalarining ilk va bugungi kundagi ko'rinishiga oid foto rasmlar, arxeologik ashyolarning maketi yoki fotorasmi (sopol buyumlar, bronza va temirdan ishlangan predmetlar) saroy maketlari (3D printeri yordamida ishlangan maketlar) yoki fotosuratlari, suv inshootlari maketi;

- tarixiy-madaniy obidalar, me'moriy yodgorliklar, me'moriy ansambl, uy-muzeylari, muzey eksponatlari, virtual muzey (3D-format), tarixiy yodgorliklar (Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Gumbaz qishlog'ida joylashgan "Yog'ochli Sardoba", Xovos tumanida joylashgan "Eski Xovos" tepaligi [56;31-b.], Xovos shaharchasida joylashgan Sobiq Chernyayev temir yo'l stansiyasi binosi), tarixiy jarayon sodir bo'lgan joylar ("Loy jangi" bo'lib o'tgan Toshkent bilan Chinoz oralig'idagi hudud), madaniy yodgorlik qoldiqlari, tarixiy qadamjolar, arxeologik qazilma obyektlari,

o'lkashunoslik muzeylari (Guliston davlat universitetining "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi, Sirdaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Sirdaryo viloyati Guliston tumani O'lkashunoslik muzeyi, Xovos tumani O'lkashunoslik muzeyi).

Quyidagi 2.8-rasmda tarix darslarida foydalaniladigan didaktik ko'rgazmali vosita, ko'rgazmali qurollar va ekskursiya obyektlari haqida ma'lumot keltirilgan.

Tarix darslarida foydalaniladigan didaktik ko'rgazmali vosita va ko'rgazmali qurollar



2.8-rasm. Dars jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali vosita va qurollar.

Dars davomida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar didaktik, metodik, estetik, gigiyenik va texnik talablarga to'liq javob berishi hamda normativlik tamoyiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasida maktablar uchun 2016-yil 22-dekabrda qabul qilingan SanPin 0341-16 talablar va amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solingan bo'lishi kerak [101]. Ko'rgazmali qurollar yorqin va chiroyli, matnlari imloviy xatolarsiz

yozilgan bo'lishi hamda harflarning kattaligi va ko'rinarli bo'lishi me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos kelishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-martdagi "Xalq ta'limi tizimida o'quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot-texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishni oshirish, o'quvchi-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 107-sonli [102] buyrug'ining 8-bandida 2019-yil apreldan boshlab tarix fani darslarini tegishli mavzulari bo'yicha muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjolar va teatrlarda o'tkazilishini yo'lga qo'yish belgilangan. 18-aprel - Yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash xalqaro kuni munosabati bilan aprel oyi mobaynida [10] O'zbekiston tarixini o'zida mujassam etgan muzeylarga ekskursiyaga olib borishdan boshlash, o'quvchining ongida keng qamrovli taassurot uyg'otish bilan birga ularning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarning tarixiy bilimlarning to'laqonli shakllanishi, fikrlash qobiliyatini o'stirish va davr haqidagi farazlarni hosil qilishda ta'limiy ekskursiyalardan foydalaniladi. Tarixiy-me'moriy yodgorliklarning joylashuv o'rnini va masofaviy jihatdan uzoqligi sababli aksariyat hollarda o'quvchilarni ekskursiyaga olib borish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida [19;2-b.] oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan bo'lgan uchrashuvda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda arxeologiya fani imkoniyatlaridan foydalanish zarurligiga e'tibor qaratildi. Zotan, arxeologik yodgorliklar va topilmalar moddiy merosimizning bir bo'lagidir.

O'zbekistonning arxeologiya merosi va undan foydalanish keyingi yillarda mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonning arxeologiya yodgorliklari xalqimizning bebaho milliy boyligi hisoblanadi. O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda arxeologiya yodgorliklari bosh omil bo'lib xizmat qilganligi barchaga ma'lum. Keyingi yillarda mamlakatimizning Termiz, Buxoro, Xiva shaharlarining 2500-yilligi, Qarshi va Kitob shaharlarining 2700, Marg'ilon shahrining 2000, Samarqand shahrining 2750 va Toshkent shahrining 2200-yilligi sanalari bu qadimiy shaharlar xarobalari bo'lgan arxeologiya yodgorliklarida olib borilgan uzoq yillik murakkab arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan[84;5-b.].

O'zbekiston tarixi va arxeologiyasida ulkan iz qoldirgan, birinchi o'zbek arxeologi Yahyo G'ulomovich G'ulomovning "Agar biz tarixni saqlamasak, kelajak avlod bizni kechirmaydi", degan purma'no so'zlari barchamizga ibrat bo'lishi kerak. Yahyo G'ulomovning shogirdi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi [110; 98], tarix fanlari doktori O'.Islomov o'zining xotiralariga tayanib, shunday deydi: Yahyo G'ulomov bizni muzeyga olib borib, qunt bilan u yerda saqlanayotgan eksponatlarni o'rganishga jalb etar, so'ngra arxeologik qazilmalarga olib borar edi. U har doim tarixni o'rganishda muzeyning ahamiyati to'g'risida takror va takror aytar edi [96; 14-b.].

Fan o'qituvchisi tarix sahifalarini o'qib bergan onda, o'quvchining ongida tarixiy jarayonlar gavdalanadi. Muzeylarga va me'moriy obidalarga tashrif buyurib, tarixiy eksponatlarni qunt bilan o'rganish yoki borish imkoniyati bo'lmagan taqdirda virtual muzey [120] hamda muzey eksponatlari aks ettirilgan videomateriallar, diafilmlar, o'quv diapozitivlardan foydalanish ham ta'lim mazmuni ortishiga yordam beradi. Texnika va axborot almashinuvi jarayoni mukammal rivojlangan XXI asrda tarixdan dalolat beruvchi arxeologik topilmalar va moddiy madaniyat ashyolari haqidagi foto hamda video materiallarni topish imkoniyatining mavjudligi har doim o'qituvchilarga qo'l keladi.

O'quv jarayoni sifat ko'rsatkichlarini ko'tarish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish metodikasini yaratish bugungi kunning dolzarb uslubiy masalalaridan biridir. Tadqiqot o'tkazilgan ta'lim muassasalarida "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda ko'rgazmali materiallarni virtual ko'rinishda namoyish qilish va 3D texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rgazmali qurollar tayyorlash texnologiyasi, (tarixiy yodgorliklarning kichraytirilgan modellarini yaratish) virtual muzeylarga sayohat qilish amaliyoti amalda qo'llanilmayapti. Yurtimizda ta'lim tizimi taraqqiy etayotgan pallada zamonaviy ta'lim vositalariga ham ehtiyoj ortib bormoqda. Jahon ta'lim tizimidagi yangiliklarni doimiy kuzatib borish hamda eng samarali metodlarning mos jihatlaridan andoza olib ta'lim tizimiga yo'naltirish pedagogning birlamchi vazifasi bo'lishi kerak.


"O'zbekiston tarixi" fanidan mavzu doirasida ko'rgazmali qurollar tarixiy shaharlar va me'moriy obidalarining maketini, modelini yaratish jarayonida o'quvchi mavzuga oid tarixiy adabiyotlarni o'qiydi, chizmalar chizadi, eng asosiysi tarixiy davrga xos belgilarni tasniflash ko'nikmasi shakllanadi.

Tarixiy voqea va tarixiy faktlar sodir bo'lgan sanalarning esda qolishi qiyin va tez yoddan chiqadi. Mustaqil topshiriq sifatida grafiklar, diagrammalar bilan o'quvchilarning ishlashi, ta'lim oluvchining bilimlarining takrorlanishiga va mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Bu borada quyida 2.8-rasmda keltirilgan nazariya va amaliyot birligi prinsipi o'zaro uyg'unligi, o'quvchilarning o'z fikr va mulohazalarini mustaqil hamda tahliliy fikr bildirish qobiliyatlarini shakllantirishning quyidagi pedagogik sxemasini keltiramiz (2.9-rasm).

Ushbu sxemaga ko'ra 1-ustunda o'qituvchi dars davomida faqat o'zi mavzuni tushuntiradi va darsning mustahkamlash qismida o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazish orqali ularning bilimlarini mustahkamlaydi. Darsning dastlabki 20 daqiqasi samarali bo'ladi, keyingi daqiqalarda darsni ma'ruza shaklida davom ettirilishida o'quvchilar zerikadi, ma'ruzaga oid bilimlarning 75% ni unutadi. Darsning mustahkamlash qismida o'quvchi o'zini sergak tutadi, tarixiy ma'lumotlarni yodida saqlab qolishga harakat qiladi. Bu sxemada o'quvchilarning harakati mavzuni tinglash va o'qituvchi bergan savollarga javob qaytarishdan iborat bo'ladi.

2-ustunda o'qituvchi mavzuni og'zaki nutqda, o'zining fundamental bilimlari yordamida tushuntiradi, dars davomida darslikdagi yozma matnlardan foydalanadi. O'quvchilarning harakati o'qituvchini tinglash, darslikdagi yozma matn va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, darsning mustahkamlash qismida savol-javobda faol ishtirok etishdan iborat.

3-ustunda o'qituvchi mavzuga oid ko'rgazmali qurollar yordamida mavzuni tushuntiradi, darslikdagi yozma matn va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlaydi. O'quvchining harakati tinglash va darslikdagi yozma matn bilan ishlash orqali o'qituvchining savollariga javob qaytarishdan iborat. Ko'rgazmali qurollar dars davomida tarixiy jarayon, tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni yengil o'zlashtirish imkonini beradi.



2.9-rasm. O'quvchilarning o'z fikr va mulohazalarini mustaqil bayon etish hamda tahliliy fikr bildirish qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik sxemasi

4-ustun o'qituvchi mavzuga oid ko'rgazmali qurollar yordamida mavzuni tushuntiradi, darslikdagi yozma matn va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash bilan birga mavzuga oid mustaqil ishlash uchun o'quvchilarga topshiriq beradi. Mustaqil topshiriqlarni dars davomida bajarilmagan qismi uy vazifasi sifatida qoldiriladi. O'quvchilarning harakati tinglash va darslikdagi yozma matn bilan ishlash orqali o'qituvchining savollariga javob qaytarish hamda mustaqil topshiriq bajarishdan iborat.

5-ustunda o'qituvchi iqtidorli o'quvchilar ko'magida mavzuga oid ko'rgazmali qurollar yordamida mavzuni tushuntiradi, darslikdagi yozma matn va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash bilan birga mavzuga oid mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi. O'quvchilarning harakati tinglash, kichik guruhda darslikdagi yozma matn bilan ishlash orqali o'qituvchining savollariga javob qaytarish va mustaqil topshiriqlarni bajarishdan iborat. O'qituvchi va o'quvchi dars davomida faol bo'ladi,

vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchi bilan individual ishlash, o'quvchilarning bilimiga tabaqalashgan holda yondashish imkoniyati mavjud.

Sxemadagi birinchi va ikkinchi ustunlardagi ta'limiy jarayonda dars samaradorligi past. Uchinchi va to'rtinchi ustunlarda o'qituvchi dars davomida o'quvchilarda bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoniyatiga ega, lekin har bir o'quvchini darsga jalb eta olmaydi, o'quvchilar bilimiga tabaqalashgan holda yondashmaydi, vaqt unumdorligiga e'tibor qaratilmaydi va darsning ta'limiy maqsadiga to'liq erisha olmaydi. Beshinchi ustunda keltirilgan pedagogik texnologiyaning samarasi yuqoridir.

Darsning mustahkamlash qismida aqliy hujum metodidan foydalangan holda munozaraga boy, mantiqiy fikrlash talab etiladigan savollarni kichik guruhlariga berish tavsiya etiladi. Kichik guruhlariga berilgan savolning qiyinlik darajasiga ko'ra vaqt ajratilishi lozim. Belgilangan vaqtdan ilgari o'quvchilardan biri javob berishga tayyor bo'lsa-da, unga darhol so'z bermasdan, belgilangan vaqt tugashini kutish talab etiladi. Aks holda sinfdagi boshqa o'quvchilarning o'z ustlarida ishlashlariga va mantiqiy fikrlashlariga to'sqinlik qiluvchi psixologik muhit yaratiladi. Agar eng bilimli o'quvchilardan birinchilardan bo'lib ularning javobi tinglansa, qolgan o'quvchilarning javob berish imkoniyatlari qolmaydi. O'qituvchi dars davomida eng iqtidorli o'quvchilarni o'ziga yordamchi sifatida jalb etishi ham mumkin. O'quvchilar bilimni nazorat qilishda tabaqalashgan yondashuv talab etiladi. O'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchi savolga javob bersa, qolgan o'quvchilar uning javobiga qo'shimcha qilishlari, javobni to'ldirishlari yoki xatolarini to'g'rilashlari va berilgan javobga e'tiroz bilan javob qaytarishlari mumkin. Eng faol o'quvchilar esa sinfdoshlari tomonidan berilgan javoblarni tanqidiy baholashlari va xulosa berishlari mumkin. Dars davomida kichik guruhdagi o'quvchilarning fikrini o'qituvchi sabr bilan oxirigacha tinglashi lozim, agarda uning fikrini bo'lib, xatosini to'g'rilab, o'z fikrini davom ettirsa, o'quvchilarning mavzuga doir yangiliklarni izlashga, o'z ustlarida ishlashlariga qiziqish qolmaydi. O'qituvchi tarix fanini o'qitish metodikasini bilishi unga ta'limiy xato qilmaslikka, o'zining faoliyatidagi yutuq va kamchiliklariga tanqidiy baho berishga chorlaydi hamda dars jarayonida turli xil usullardan foydalanishga undaydi. O'qituvchining dars davomidagi asosiy vazifasi tarix fanini o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlashga jalb etish, interfaol metodlar, ko'rgazmali va texnika qurollaridan foydalanish hamda ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirishdan iboratdir.

O'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini oshirish uchun tinimsiz izlanishlar olib borishi, og'zaki nutqini rivojlantirishi va so'z boyligini oshirishi kerak. O'qituvchining mavzuga doir badiiy adabiyotlar va xalq og'zaki ijodidan foydalanishi tarixiy ma'lumotlarni konkretlashtirish imkonini beradi. O'qituvchining bilimi mukammal bo'lsa, dars jarayonida tarix sahifalarini yorqin rangda ifoda etish qobiliyati namoyon bo'ladi. Tarixdan guvohlik beruvchi tarixiy romanlar va moddiy yodgorliklar haqidagi o'qituvchining bilimi, uning so'z boyligi va dunyoqarashining yuqori ekanligidan dalolat beradi. Tarix fanini o'qitishda o'qituvchining og'zaki nutqi dars davomida yetakchi o'rin egallaydi. O'qituvchining nutqi ravon, so'zlari aniq va bexato bo'lishi, ilmiy tilda so'zlashi, notiqlik san'ati rivojlangan bo'lishi kerak. Dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanganda o'qituvchining og'zaki nutqi ravon bo'lishi, o'quvchilar ongida davr tarixi haqida aniq tushunchalar to'liq shakllanishiga yordam beradi. O'qituvchi dars davomida darslikdagi mavzuni kitobdan to'liq o'qib bersa, o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatini salbiy tomonga o'zgartiradi. O'qituvchi bergan ma'lumotlar darslikda borligini o'quvchi anglagan holda o'qituvchini tinglamaydi, balki boshqa fan haqida o'ylay boshlaydi. O'qituvchi o'tilgan mavzu haqida o'quvchilardan birin-ketin so'rashi, boshqa o'quvchilarning dars davomida bo'sh qolishlariga sababchi bo'ladi. O'qituvchi ma'ruza davomida "Diqqat bilan eshiting", "Eslab qoling", "Eshitinglar va tushuntirib berasizlar", "Taqqoslang", "Tasavvur qiling" kabi tavsiyalardan foydalanishi o'quvchilarning diqqatini jamlashlari va darsni o'zlashtirish majburiyati haqida eslatib turadi.

Dars davomida o'quvchilarni faollashtirish, darsga qiziqtirishda mazmunli va o'rinli berilgan savollar uchun ularni rag'batlantirish talab etiladi. O'quvchilar diqqatini jamlash, e'tiborini jalb etishda mantiqiy, evristik va kreativ fikrlashga undovchi savollardan foydalanish samara beradi. Mantiqiy va qiziqarli savollar o'quvchilarning darsni diqqat bilan tinglashga yo'naltiradi. Ma'ruza davomida o'quvchilarning charchashlari natijasida aksariyat hollarda ularning diqqat e'tibori va faolligi pasayadi, o'quv materialini bayon etishda buni hisobga olish zarur. Uzoq vaqt e'tiborni jalb etish o'quvchilarni charchatadi, o'qituvchining so'zlarini diqqat bilan eshita olmaydi, chalg'iy boshlaydi. Bu pedagogik qonuniyatni bilmaydigan o'qituvchilar o'quvchi e'tiborni jalb etishda behuda urinadilar. Darsni o'quvchilar butun dars davomida faol harakatlanishga yo'naltiruvchi metodlar yordamida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, dars mashg'ulotini oldindan loyihalash, qo'llash uchun qulay bo'lgan yangi ta'lim texnologiyalarini kashf etish muhimdir!

Tarixni o'rganayotgan o'quvchi chin ko'nglidan shunday deyishi kerak: "Men fikrlayapman, men sezyapman va men o'z harakatlarimda irodamni jilovlay olaman, men endi boshqachaman, siyosiy bilimlarim yaxshiroq, ko'proq o'zimga ishonaman, jamiyatga va insonlarga foyda keltirishga tayyorman, men baxtliman!" [98;3-b.]. O'qituvchining bosh maqsadi o'quvchilarning tarix fanidan Davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan bir qatorda jamiyat va jahonda yuz berayotgan yangiliklar haqidagi qarashlarni rivojlantirish orqali ularning tarix faniga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, eng asosiysi tarixiy xotirani shakllantirish va xalqimizning milliy qadriyatlariga qiziqishlarini rivojlantirish hamda tarix fanini eng yaxshi ko'rgan fanlari darajasiga chiqarishdir.

Tarixdan guvohlik beruvchi arxeologik yodgorliklar, tarixiy topilmalar, tarixiy suratlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jaloliddin Manguberdining jasorati, Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar katta qiziqish bilan tinglaydilar. Davlat arboblari, mutafakkir va olimlar, xalq qahramonlarining erishgan yutuqlari, ularning nutqlari va shiorlaridan namunalar keltirish o'quvchilarda vatanparvarlik ruhining shakllanishiga va milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga omil bo'ladi. Fikrimizcha, dars davomida kayfiyatni ko'tarish va ishchanlikni oshirish maqsadida vatanparvarlik g'oyalarida yo'g'rilgan tarixiy mazmun-mohiyatga ega she'r, qo'shiqlar va shiorlardan foydalanish o'rinlidir. Misol tariqasida Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ri, Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ri, Ozodbek Nazarbekovning "Mendirman" qo'shig'i, Sohibqiron Amir Temurning "Kuch-adolatda" (forsiyda "Rostiy-rustiy"), O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Kuch-bilim va tafakkurda" shiorlarining mazmun va mohiyatini tushuntirib berishning o'zi yetarlidir. "Nima uchun o'qitamiz?", "Nimani o'qitamiz?", "Qanday o'qitamiz?" degan savollarga o'qituvchi javob izlashi, tarix o'qitish metodikasini yaxshi o'zlashtirgan, ijodkor va tashabbuskor bo'lishi kerak. Tarix darslari samaradorligini oshirishda kreativ yondashuvlar asosida o'qitishni tashkil etish innovatsion jamiyatda o'quvchilarning faol hayotga qiziqishi, xohishini uyg'otadi, fikrlarini tahlil qilishga undaydi, his-tuyg'ulari va bilimlarini mustahkamlaydi. Dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar axborotlar oqimining ko'pligi va tezligi har qanday vaziyatda tez va to'g'ri qaror qabul qila oladigan, kreativ fikrlay oladigan qobiliyatli kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor berish davr talabidir. Milliy qadriyatlarimiz esa ma'naviy-axloqiy tarbiyaning bitmas-tuganmas manbai

hisoblanib, an'analar yordamida asrlar davomida millatimiz yoshlarida ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllantiriladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida pedagogik ta'limda kreativ yondashuvlar to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlardan keng qamrovli foydalanish imkoniyatini beradi. Boshlangan har bir ishimizdagi sifat va samara aynan shu masala bilan chambarchas bog'liqligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va qolaversa hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan jamiyatda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda an'anaviy metodlardan foydalangan holda o'quvchilarni fanga va milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Globalshuv sharoitida milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash milliy o'zlikni saqlash bilan bog'liq juda muhim ijtimoiy-siyosiy masaladir.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda milliy qadriyatlardan tarixiy manba sifatida foydalanish imkoniyatlari juda keng bo'lib, bunda yurtimizning boy moddiy va ma'naviy tarixiy boyliklarini zamonaviy metodlardan foydalangan holda o'rgatish o'quvchilarda o'zligini anglash, o'ziga ishonch va ajdodlarga munosib voris bo'lish, milliy g'urur, ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda samarali ta'sir kuchiga ega.

O'quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishni diagnostika qilish tamoyillarini metodologik asoslashning ikki yo'nalishi, ya'ni o'quvchilarni oila va mahallada ota-ona, nuroniy oqsoqol va onaxonlar yordamida "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naql asosida hamda umumta'lim maktabida pedagog va tarbiyachilar ko'magida takomillashtirilgan metodlar yordamida ularning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish mumkinligi nazariy va amaliy jihatdan asoslandi.

Ta'lim muassasasi, o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini dars davomida ko'rgazmali qurollardan foydalanish, kitobxonlikni targ'ib qilish, darsdan tashqari vaqtlarda me'moriy yodgorliklar, ziyoratgohlar, tarixiy shaharlarga sayohatlar uyushtirish, turli madaniy tadbirlar, maqom kechalarini tashkil etish, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi va targ'ib qiluvchi tanlovlar o'tkazish orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish talab etiladi.

Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda o'quvchilar uyga berilgan vazifalarni kitobdan o'qib, izlanish o'rniga internetdagi mavjud

manbalardan foydalangan holda bajarishga ko‘nikib qolishdi. Bu jarayonda zamonaviy pedagog zamon bilan hamnafas yurishi, o‘quvchilarning dunyoqarashi, qaysi usulda ularga bilim berish shaklini to‘g‘ri tanlashi lozim. Bilim manbai bo‘lgan “kitobni o‘qimaslik” sindromi avj olmoqda. Bu esa yorqin rangdagi ta’limiy saytlar, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, tarixiy shaxslar, olimlar va shoirlarning ilmiy va hayotiy faoliyatiga doir internet saytlarini yaratish hamda dars jarayonini to‘liq raqamlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Tarix fani o‘qituvchisi maktab sayti, guruh uchun telegram kanalida (M-Learning) mobil o‘qitish tizimlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. O‘quvchida o‘zi yashab turgan hudud tarixini o‘rganishga qiziqish, moddiy meros obyektlarini muhofaza qilish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishi hamda o‘z xalqining milliy qadriyatlari bilan g‘ururlanish hissining shakllanishida O‘zbekiston tarixi darslarida hamda tarbiyaviy soatlarda, dasturda belgilangan mavzuga mos ravishda xalqimizning milliy qadriyatlaridan tarixiy manba sifatida foydalanish mumkin. Zero, o‘z tarixini mukammal bilgan, milliy qadriyatlarini e‘zozlagan inson kelajakka ishonch bilan qaraydi.

III BOB. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH SAMARADORLIGINING PEDAGOGIK EKSPERIMENTAL TADQIQI

3.1-§. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasiga doir tajriba- sinov ishlari mazmuni

Tadqiqot ishining eng muhim bosqichi uning natijalarini amaliyotda sinab ko‘rish hisoblanadi. Har qanday nazariya, albatta, amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmog‘i lozim. Har bir tadqiqot ishining ilmiy va nazariy farazi ham amaliyotda sinaladi va natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot ishidagi nazariy faraz bilan tajriba asosida kelib chiqqan amaliy natijaning qanchalik yaqinligi tadqiqot ishining to‘g‘riligi, maqsadning aniqligi va metodologiyaning to‘g‘ri tanlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ularni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, vatanimiz tarixi, madaniyatini teran [44;27-b.] anglash ham yoshlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Tadqiqotda o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslariga tayanib, tajriba-sinov ishlari olib borildi.

O‘quvchilarning milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish, ya’ni ajdodlarimizning ilmiy-adabiy merosi haqidagi bilimlarning o‘zlashtirishi, ularda tarixiy xotiraning shakllanishi, dunyoqarashi va tafakkurining kengayishi, ajdodlarimizning o‘gitlari va yutuqlaridan amaliyotda foydalanish tajribasini shakllantirish, ularda milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat hissi va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga oid metodika ishlab chiqildi. Tajriba-sinov ishi mazmuniga ko‘ra, respublikamiz miqyosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “O‘zbekiston tarixi” o‘quv fanini o‘qitish asosida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha olib borilgan pedagogik tadqiqot natijalarida kuzatilgan quyidagi pedagogik muammolarni bartaraf etish asosida yaratilgan tavsiyalarni qo‘llashdan iborat:

1) bugungi kun o‘quvchisi raqamlashtirilgan ta’limga qiziqayotganligini inobatga olsak, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarix dars mashg‘ulotlari axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashmaganligi;

2) darsning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishilgan darajasi tahlil etilib, samaradorlik muhokama etilishi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

3) davlat ta'lim standartlari bo'yicha "O'zbekiston tarixi" fanidan egallanishi zarur bo'lgan bilimlar doirasida samaradorlikni aniqlash bo'yicha tuzilgan nazorat savollari va olingan nazorat ishlarining natijasi chuqur analiz qilinishi va tanqidiy tahlil etilishi yo'lga qo'yilmaganligi;

4) o'quvchilarning bilimini baholash bo'yicha dars turiga mos baholash mezonlari ishlab chiqilmagan va o'quvchilar bilimini nisbiy baholash amaliyotiga barham berilmaganligi;

5) darsdan tashqari o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmuni tashkil etishda o'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan mustaqil tadqiqot olib borish va mustaqil ishlashga mo'ljallangan topshiriqlar banki shakllanmaganligi;

6) "O'zbekiston tarixi" fani bo'yicha olib borilayotgan to'garak mashg'ulotlari ish rejasida ko'rsatilgan mavzular, o'quvchilarning qiziqishlari va ularning jamiyatda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'naltiruvchi dolzarb mavzulardan iborat emasligi;

7) to'garak mashg'ulotlarini olib borishga mo'ljallangan mavzular, darslik doirasida mukammallik talab etiladigan, ilmiy-tadqiqot olib borishga mo'ljallangan mavzular sirasiga kirmasligi.

8) tarix darslarida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda mavzuga mos ravishda hudud o'lkashunosligi va hudud tarixi bilan bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy meros, milliy qadriyatlarga bog'liq bo'lgan tarixiy materiallardan foydalanilmaslik hamda o'quvchilar o'zlari yashab turgan hudud tarixini yaxshi bilmasliklari, viloyat miqyosidagi tarixiy meros obyektlariga o'quvchilarning aksariyat qismi ekskursiya olib borilmaganligi;

9) xalqimizning asrlar osha sayqallanib kelgan yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalashda muhim omil bo'lib sanaluvchi milliy qadriyatlari darsning tarbiyaviy maqsadlarida o'z aksini topmayotganligi, aksariyat mavzularda tarbiyaviy maqsadlarning bir birini takrorlashi;

10) tarix darslarida amaliy mashg'ulotlar, to'garak mashg'ulotlarida laboratoriya mashg'ulotlari deyarli olib borilmayotganligi;

11) "O'zbekiston tarixi" darslarida mavzuga mos ravishda o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda alohida yondashuv asosida o'qitish metodlaridan foydalanilmasligi;

12) o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish bilan bog'liq mavzularni amaliyot bilan bog'lanmagani, dars mashg'ulotlarida mavzuga mos bo'lgan qo'shimcha manbalardan foydalanilmasligi.

Tajriba-sinov ishlarining vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1. 7-11 sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanishga e’tibor qaratilish jihatlari, o‘qituvchilarning salohiyatini aniqlash.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini oshirishga oid o‘quv mashg‘ulotlarini o‘qitishning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish.

3. “O‘zbekiston tarixi” fani bo‘yicha o‘qitishni tashkil etishda ta’lim texnologiyasi innovatsion modelining o‘rnini belgilash.

5. Tajriba-sinov maydonlarini aniqlash.

6. “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish va tajriba-sinovdan o‘tkazish.

7. “O‘zbekiston tarixi” fani bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari metodikasini ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o‘tkazish.

8. 7-11 sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanishga qaratilgan o‘quv qo‘llanma va tavsiyanomalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish.

9. O‘quv mashg‘ulotlari pedagogik texnologiyasini ta’lim amaliyotiga keng joriy etish va natijasini tahlil etish.

10. “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari samaradorlik natijasini matematik-statistik metodlar yordamida aniqlash.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini oshirish bo‘yicha tadqiqotimizda quyidagi pedagogik mezonlar asosida yaratilgan ishlar tajribadan o‘tkazildi:

“O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda ko‘rgazmalilik metodidan samarali foydalanish usullari;

- mavzularga mos bo‘lgan hududiy (geografik) ekskursiya (onlayn, virtual) materiallari asosida yaratilgan didaktik materiallar;

- mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar;

- “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish jarayoni;

- dars davomida baholash mezonlariga to‘liq amal qilish, baholashda o‘quvchilar bilimini nisbiylikda baholash amaliyotidan voz kechish bo‘yicha tavsiyalar;

- mavzu doirasida laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;

- o'quvchilarning axborot-kommunikatsion sohadagi bilimlarini hamda ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan onlayn to'garak mashg'ulotlari;

- kreativ yondashuv talab etuvchi testlar va mustaqil ishlash uchun mo'ljallangan topshiriqlar banki.

Ilmiy metodologik yondashuv usuldan foydalanib o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish kabi ilmiy-uslubiy ishlar savol-javob varaqlarini to'ldirish, yozma ish, test sinovlarini o'tkazish asosida pedagogik-tajriba ishlari olib borildi hamda olingan natijalarni matematik-statistika metodlari yordamida tahlil qilindi.

Tajriba sinov ishlari quyidagi **4 ta asosiy bosqichda** amalga oshirildi:

1-bosqich pedagogik tajriba-sinov dasturini ishlab chiqish. Bunda pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil qilish maydonlari (reprezentativ), mezonlari va asosiy mazmuni ishlab chiqildi.

2-bosqich pedagogik tajriba-sinov o'tkaziladigan ta'lim muassasalarining tarix fani bo'yicha amaldagi DTS, o'quv adabiyotlar va moddiy texnik bazaning holati o'rganildi va tahlil qilindi.

3-bosqich tajriba-sinov tadbirlari amalga oshirildi.

4-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazilgan ilmiy-uslubiy ishlar savol-javob anketa varaqlarini to'ldirish, yozma ish, test sinovlari ilmiy tahlil qilindi va olingan natijalar matematik-statistika metodlari yordamida tahlil qilindi hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari, asosan, 2019–2022 yillarda olib borildi. 1-bosqichda pedagogik tajriba-sinov o'tkazishga Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 2-sonli va 16-sonli, Mirzaobod tumanidagi 1-sonli, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 51-sonli, Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi 40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlab olindi.

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchilari Dildora Sharipova, Surayyo O'rozboqova; Guliston shahar 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchilari Shavkat Suyundikov, Umid Mirzaliyev; Mirzaobod tumani 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchilari Gulnoza Xasanova va Moxira Xolbekova; Chinoz tumani 40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali tarix fani o'qituvchisi Dilshod Sag'dullayev, Jizzax viloyati 51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchilari O'rol Fayzullayev, Sarvar Ergashevlarning pedagogik ish uslubi, me'yoriy-huquqiy hujjatlari va dars o'tish metodlari bilan tanishildi. O'quvchilarning

tarix fanidan egallagan bilimlari va mavzular kesimida yuzaga kelgan ta'limiy bo'shliqlar aniqlanib, ushbu bo'shliqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi holatlar tahlil qilindi.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish metodikasida materiallar yangi o'quv dasturi bo'yicha tanlandi. Pedagogik tajriba-sinov uchun tanlangan materiallarda quyidagi omillarni sinab ko'rish asosiy maqsad qilib qo'yildi:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasining ilmiy-metodik jihatdan to'g'riligini asoslash, uning o'quvchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini yoritish;

o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasining o'quvchilarda tarix fanini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining ortganligini aniqlash, matematik statistika metodidan foydalanib asoslash;

darsda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga o'zbek xalqining nomoddiy merosi, milliy qadriyatlarining jahonda ulug'lanishini fakt ma'lumotlar asosida o'rgatish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini, mustaqil fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini yoritish.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni amalda sinab ko'rish uchun oldimizga quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'ydik:

o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'quv materiallarning o'quvchilar uchun sodda va tushunarli bo'lishini ta'minlash;

o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali o'quvchilarning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida ularning ijodiy ishlarini tahlil qilish;

tajriba sinflarida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash.

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda tajriba-sinov obyektlari tanlandi, ishchi faraz, asosiy maqsad va vazifalar aniqlandi. So'ngra tajriba-sinov rejasi tuzilib, uni o'tkazish uchun o'quvchilar uchun dastlab yozma va og'zaki so'rovnoma, dars ishlanmalari, mavzular matnlari, tarqatma didaktik materiallar, test savollari tayyorlandi. Ushbu mavzularni o'qitishda o'qituvchilarga mo'ljallangan hamda dars samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar ishlab chiqildi.

Tarix fanini o'rganish davomida avvalo, o'quvchi o'zi yashab turgan hudud tarixi bilan yaqindan tanishish hamda milliy qadriyatlarning asl mohiyatini to'g'ri talqin qilish lozim degan xulosaga kelindi. Tajriba-

sinovning birinchi bosqichida tegishli sinflar bo'yicha o'quvchilardan intervyu olish, savol-javoblar o'tkazish jarayonida, milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalar so'ralganda, o'quvchilarning aksariyati o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini tasniflash ko'nikmalariga ega emasliklari ma'lum bo'ldi.

Tarix fani o'qituvchilari o'quvchilarning bilimni baholashda baholash mezonlariga amal qilmaydilar, bo'sh o'zlashtirilgan mavzularni to'ldirish, mavzular doirasida milliy qadriyatlarga urg'u berib, qo'shimcha ma'lumot va qiziqarli manbalardan foydalanishmaydi. Bu hol keyingi o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida ham yuz berdi.

O'quvchilarning javoblari quyidagi mezonlar bilan baholandi: "A'lo", "Yaxshi", "Qoniqarli", "Qoniqarsiz". Milliy qadriyatlar haqidagi o'quvchilarning bilim darajasi savollarga, topshiriqlarga yozma ravishda bergan javoblarini tahlil qilish asosida tekshirildi.

Milliy qadriyatlar haqida o'quvchilarning bilimi muammoli savol va nazorat savollariga yozma ravishda berilgan javoblarni tahlil qilish yo'li bilan tekshirildi:

"A'lo" baho – o'quvchining yangi mavzuga oid nazariy va amaliy bilimga egaligi, berilgan savollarga to'liq, to'g'ri va misollar keltirish orqali javob berishi, mavzu doirasida mustaqil ravishda dalil keltirish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmasiga egaligi, o'tilgan va yangi mavzu doirasida fanlararo bog'liqlik tomonlarini yoritib berish malakasiga egaligi, tarixiy ketma-ketlikda, xronologik jihatdan, tarixiy terminlarni qo'llab, aniq, lo'nda mantiqiy javob berish kompetensiyalari shakllanganligi, darslik, birlamchi manbalar, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasiga hamda ko'rgazmali materiallar tayyorlash malakasiga egaligi hamda pedagogik jarayonda o'qituvchiga to'laqonli ko'maklashishga e'tibor qaratildi.

"Yaxshi" baho – o'quvchining yangi mavzuga oid nazariy va amaliy bilimga egaligi, berilgan savollarga to'g'ri javob berishi, ayrim noaniq ma'lumotlar keltirishi, Mavzu doirasida mustaqil ravishda dalil keltirish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmasiga, tarixiy ketma-ketlikda, xronologik jihatdan, tarixiy terminlarni qo'llab javob berishda juz'iy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishi nazarda tutildi

"Qoniqarli" baho – o'quvchining mavzuga oid topshiriqlarni bajarishga va savollarga javob berishga harakat qilishi va mavzuning mohiyatini to'laqonli tushunmasligi nazarda tutildi.

"Qoniqarsiz" baho – o'quvchining mavzuga oid topshiriqlarni xato bajarishi, mavzuning mohiyatini tushunmasligi nazarda tutildi.

Yuqoridagi “A’lo”, “Yaxshi”, “Qoniqarli”, “Qoniqarsiz” javoblar o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishlari rivojlantirishga doir materiallarni o‘qitish jarayonida bilim sifatida aniqlashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qildi.

3.2-§. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini baholash parametrlari va ko‘rsatkichlarining tahlili

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning didaktik va metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Shuning uchun ta’lim jarayonida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning o‘quvchilar bilim sifatiga ta’sirini amaliy jihatdan asoslash maqsadida Sirdaryo viloyati Guliston shahri 2-sonli va 16-sonli, Mirzaobod tumani 1-sonli, Toshkent viloyati Chinoz tumani 40-sonli, Jizzax viloyati Zomin tumani 51-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktablari tanlab olinib, ularning har birida nazorat va tajriba sinflari tuzildi.

3.1-jadval

Tadqiqot davomida saylanma tarzda tanlab olingan tajriba va nazorat sinflari to‘g‘risida ma’lumot

№	Viloyat nomi	Shahar, tuman	Maktab raqami	Tajriba sinfi	O‘quvchi soni	Nazorat sinfi	O‘quvchi soni
1	Sirdaryo viloyati	Guiston shahar	16	7 B	34	7 A	39
2	Sirdaryo viloyati	Guiston shahar	2	10 B	30	10 A	30
3	Sirdaryo viloyati	Mirzaobod tumani	1	7 B	31	7 A	34
4	Toshkent viloyati	Chinoz tumani	40	11 B	28	11 A	26
5	Toshkent viloyati	Chinoz tumani	40	7 B	28	7 A	32
6	Jizzax viloyati	Zomin tumani	51	8 B	21	8 A	22
7	Jizzax viloyati	Zomin tumani	51	11 B	19	11 A	17
Jami:			5	7	191	7	200

Jami maktablar soni	5 ta
Sinflar soni	14 ta
Tajriba sinfida o‘quvchilar soni	191 nafar
Nazorat sinfida o‘quvchilar soni	200 nafar
Jami tadqiqot ishtirok etgan o‘quvchilar soni	391 nafar

Tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishning shakl va metodlari, ta’lim texnologiyasini samaradorligi tajriba-sinovdan o‘tkazilib, o‘quv yilining boshida, o‘rtasida va yakunida anketa-so‘rovnoma o‘tkazildi.

Sirdaryo viloyatida joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazilgan anketa-so'rovnomalarda ishtirok etgan o'quvchilarning aksariyat qismi o'zlari yashab turgan hudud o'lkashunosligi, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan me'moriy yodgorliklar to'g'risida, aniqrog'i, Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Gumbaz qishlog'ida joylashgan "Yog'ochli Sardoba" [12], Xovos tumanida joylashgan "Eski Xovos" tepaligi, Xovos shaharchasida joylashgan Sobiq Chernyayevo temir yo'l stansiyasi binosi, "Loy jangi" bo'lib o'tgan Toshkent bilan Chinoz oralig'idagi hudud haqida to'liq ma'lumotga ega emasliklari hamda Sirdaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyi, Guliston davlat universitetining "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi, Sirdaryo viloyati Guliston tumani hamda Xovos tumani O'lkashunoslik muzeylariga o'quvchilar deyarli ekskursiyaga bormaganliklari aniqlandi. Jizzax viloyati Zomin tumani 51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari asosan Zomin tumani o'lkashunoslik muzeyi, taniqli davlat arbobi Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi, Xo'jamushkent ota ziyoratgohi borganliklari, lekin Jizzax viloyatida joylashgan "Sa'd Ibn Abu Vaqqos" ziyoratgohi, "Xo'ja Nuriddin Hoji" madrasasi, Ko'kto'nli ota ziyoratgohi, Xonbandi to'g'oni, "Qizlartepa" va "Qo'rg'ontepa" (O'rdatepa) [12] arxeologik yodgorliklari haqida ma'lumotga ega emasliklari aniqlandi. Toshkent viloyati Chinoz tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7,8,11-sinflarida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra Toshkent viloyati Chinoz tumanida joylashgan arxeologik yodgorliklari Qorovultepa, Mingtepa, Nomsiztepa 1, Chinoz shahriston [12] haqida batafsil ma'lumotga ega emasliklari aniqlandi.


Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazilgan so'rovnoma va suhbatlar natijalariga ko'ra Vatanimiz tarixiga oid tarixiy shaxslar suratlari va haykallari hamda me'moriy yodgorliklar suratlari haqida o'quvchilar umumiy tasavvurga ega bo'lsalar-da, lekin tarixiy ma'lumotlarni umumiy aytib berish, mohiyatini tushunish, olgan bilimlarni amalda qo'llay bilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalari hamda hudud o'lkashunosligiga qiziqishlari shakllanmagan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy qadriyatlarni o'rganish mavzusida o'tkazilgan so'rovnoma natijasida quyidagilar aniqlandi:

Ajdodlarimizdan qolgan "Ulkan ilmiy va adabiy meros haqida eshitganingizda va o'qiganingizda nimani his qilasiz?" degan savolga:

- 1) 45% o'quvchilar faxr va g'urur hissi uyg'onishi,
- 2) 22 % o'quvchilar ilmiy va adabiy merosni yanada boyitish, jahon bilan hamnafas yashash fikri uyg'onishi,

- 3) 18% o'quvchilar eshitganlarim va o'qiganlarimni do'stlarimga va yaqinlarimga g'urur bilan so'zlab beraman,
- 4) 15% o'quvchilar esa ko'proq ma'lumot olishga intilaman deb fikr bildirdilar.



3.1-rasm. Ajdodlarimizning ilmiy va adabiy merosi haqida o'quvchilarning fikrlari tahlili

Tarix fanini o'rganish davomida avvalo, o'quvchi o'zi yashab turgan hudud tarixi yaxshi bilishi hamda milliy qadriyatlarning asl mohiyatini to'g'ri talqin qilish lozim degan xulosaga kelindi. Tajriba-sinovning birinchi bosqichida tegishli sinflar bo'yicha o'quvchilardan intervyu olinib, ular bilan savol-javoblar o'tkazish jarayonida, milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalar so'ralganda, o'quvchilarning aksariyati o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini tasniflash ko'nikmalariga ega emasliklari ma'lum bo'ldi.

Tajriba sinflarida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida o'quv materialini bayon etish jarayonida tarixiylik tamoyiliga amal qilgan holda darslikda berilgan tegishli mavzular doirasida milliy qadriyatlarimizning o'rnini o'quvchilarga yetkazish maqsadida ulardan o'rinli foydalanildi, ya'ni mavzuga tegishli bo'lgan, lekin O'zbekiston tarixi fanining namunaviy o'quv dasturi va maktab darsligida ifodalanmagan tarixiy materiallardan foydalanish masalasi ham diqqat markazida bo'ldi. O'qituvchilar tegishli mavzular bo'yicha tarixiy mavzudagi milliy qadriyatlarimizga oid materiallarni o'rganish tavsiya etildi. Mavzular bo'yicha o'quv materiallarini o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash uchun bir necha bor nazorat ishlari, test sinovlari va savol-javoblar o'tkazildi.

Olingan natijalarni tahlil qilishda baho tizimidan foydalanildi va tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Sirdaryo viloyati Guliston shahar 16 umumiy oʻrta taʼlim maktabining 7 «b» sinfida tarix fanidan VI-VII-asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti mavzusidagi darsida biz tomondan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va baholash mezoniga amal qilingan holda namunali dars tashkil etildi Oʻz oʻrnida mahalliy oʻlkashunoslik materiallari va xalqimizning milliy qadriyatlaridan ham tarixiy manba sifatida oʻrinli foydalanildi. Shu maktabning 7 «a» sinfida esa aynan shu mavzu anʼanaviy tarzda darslik materiallari bilan cheklangan holda oʻtildi. Mashgʻulotlar oʻtib boʻlingach, har ikkala guruhda oʻquvchilarning mavzu boʻyicha materiallarni oʻzlashtirganlik darajalarini bilish maqsadida nazorat ishlari oʻtkazildi. Oʻtkazilgan nazorat ishlari natijalaridan shu narsa koʻrindiki, nazorat sinfida 5 baho olgan oʻquvchilar soni 4 ta (36,3%), tajriba sinfida esa 10 ta (29,4%) oʻquvchini tashkil etdi (2-jadval). Demak, tajriba sinfida 5 baho olganlar soni nazorat sinfiga qaraganda 2,5 barobar koʻp. 4 baho olgan oʻquvchilar soni tajriba sinfida 18 nafar (52,9%), nazorat sinfida 16 nafar (41%). 3 baho olgan oʻquvchilar tajriba sinfida 6 nafar yoki 17,6%, nazorat sinfida 16 nafar 41% ni tashkil etdi. 2 baho olgan oʻquvchilar nazorat sinfida 3 nafar yoki 7,6%, tajriba sinfida yoʻq. Demak oʻzlashtirish tajriba sinfida 100%, nazorat sinfida 92,4%. Bilim sifat koʻrsatkichi nazorat sinfida 77,3%, tajriba sinfida 82,3% ni tashkil etdi (3.2- jadval).

3.2-jadval

**Sirdaryo viloyati Guliston shahar 16-umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻquvchilari koʻrsatkichlari**

Maktab	Tadqiqot sinflari	Oʻquvchilar soni	5	%	4	%	3	%	2	%	Oʻzlashtirish	Sifat oʻzlashtirish	Oʻzlashtirmaganlar
№16	7-A nazorat sinfi	39	4	36,3	16	41	16	41	3	7,6	92,4	77,3	7,6
№16	7-B tajriba sinfi	34	10	29,4	18	52,9	6	17,6	-	0	100	82,3	0

2. Toshkent viloyati Chinoz tumani № 40-umumiy oʻrta taʼlim maktabning 7 «b» sinfida tarix fani oʻqituvchisi Dilshod Sagʻdullayev tomonidan VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti mavzusi biz tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va baholash mezoniga amal qilgan holda tashkil etildi. Oʻz oʻrnida mahalliy oʻlkashunoslik materiallari

va xalqimizning milliy qadriyatlaridan tarixiy manba sifatida o‘rinli foydalanildi. 7 «a» sinfida aynan shu mavzu bo‘yicha hech qanday qo‘shimcha tarixiy ma’lumotlardan foydalanilmadi. Dars o‘tib bo‘lgandan keyin har ikkala guruhda o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha o‘quv materialini o‘zlashtirganlik darajalarini bilish maqsadida nazorat ishlari o‘tkazildi. O‘tkazilgan nazorat ishlari natijalari tahlilidan ko‘rinadiki, nazorat sinfida a’lo baho olgan o‘quvchilar soni 7 nafar (21,8%), tajriba sinfida 11 nafar (39,2%). Demak, tajriba sinfida a’lo baho olganlar soni nazorat sinfiga qaraganda 4 nafarga ko‘p. 4 baho olgan o‘quvchilar soni tajriba sinfida 10 nafar (35,7%), nazorat sinfida 9 nafar (28,1%). 3 baho olgan o‘quvchilar soni tajriba sinfida 7 nafar (25%), nazorat sinfida 14 nafar (43,7%) ni tashkil etdi. 2 baho olgan o‘quvchilar nazorat sinfida 2 nafar (6,2%) tajriba sinfida yo‘q. Demak, № 40-maktabning 7-sinfida o‘tkazilgan nazorat ishlarning natijalari tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, o‘zlashtirish tajriba sinfida 100%, nazorat sinfida 93,7%, bilim sifati nazorat sinfida 50% tajriba sinfida 75% ni tashkil etdi (3.3-jadval).

3.3-jadval

**Toshkent viloyati Chinoz tumani 40-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘quvchilari ko‘rsatkichlari**

Maktab	Tadqiqot sinflari	O‘quvchilar soni	5	%	4	%	3	%	2	%	1	%	O‘zlashtirish	Sifat o‘zlashtirish	O‘zlashtirmaganlar
№ 40	7-A nazorat sinfi	32	7	21,8	9	28,1	14	43,7	2	56,2	-	0	93,7	50,0	6,3
№ 40	7-B tajriba sinfi	28	11	39,2	10	35,7	7	25	-	0	-	0	100	75	-

Ushbu umumiy o‘rta ta’lim maktabining 11 «b» sinfida «O‘zbekistonda ma’naviy va tarixiy merosining tiklanishi» mavzusini darsning asosiy qismida ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan, lekin darslikda o‘z ifodasini topmagan qo‘shimcha tarixiy ma’lumotlar – o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan milliy qadriyatlarimizdan foydalanildi. 11 «a» sinfida ushbu mavzu o‘tilganda qo‘shimcha tarixiy materiallardan foydalanilmadi.

O‘tkazilgan nazorat ishlari natijalari tahlilidan ko‘rinadiki, nazorat sinfida a’lo baho olgan o‘quvchilar soni 3 nafar (11,5%), tajriba sinfida 10 nafar (35,7%); 4 baho olgan o‘quvchilar soni tajriba sinfida 13 nafar

(46,4%); nazorat sinfida 8 nafar 30,7%; 3 baho olgan o'quvchilar soni tajriba sinfida 5 nafar (17,8%), nazorat sinfida 13 nafar (50%). 2 baho olgan o'quvchilar nazorat sinfida 2 nafar (7,6%), tajriba sinfida esa yo'q (3.4-jadval). Xullas, o'zlashtirish tajriba sinfida 100%, nazorat sinfida 99,2% ni bilim sifati nazorat sinfida 33%, tajriba sinfida 82,1% ni tashkil etdi(3.4-jadval).

3.4-jadval

**Toshkent viloyati Chinoz tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'quvchilari ko'rsatkichlari (11-sinflar)**

Maktab	Tadqiqot sinflari	O'quvchilar soni	5	%	4	%	3	%	2	%	1	%	O'zlashtirish	Sifat o'zlashtirish	O'zlashtirmaganlar
№40	11 A nazorat	26	3	11,5	8	30,7	13	50	2	7,6	-	0	99,2	33	7,6
№40	11 B tajriba	28	10	35,7	13	46,4	5	17,8	-	0	-	0	100	82,1	-

3. Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 51-umumiy o'rta ta'lim maktabida O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi O'rol Fayzullayev 11-B sinfda «O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosining tiklanishi» mavzusini o'tganda darsning asosiy qismida ushbu mavzuga tegishli bo'lgan, lekin darslikda o'z ifodasini topmagan qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar – o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarimizdan foydalanildi. 11 «a» sinfda ushbu mavzu o'tilganda tarixiy materiallardan foydalanilmadi.

O'tkazilgan nazorat ishlari natijalari tahlilidan ko'rinadiki, nazorat sinfida a'lo baho olgan o'quvchilar soni 2 nafar (11,7%), tajriba sinfida 8 nafar (42,1%); 4 baho olgan o'quvchilar soni tajriba sinfida 6 nafar (31,5%); nazorat sinfida 8 nafar 47%; 3 baho olgan o'quvchilar soni tajriba sinfida 5 nafar (26,3%), nazorat sinfida 6 nafar (35,2%). 2 baho olgan o'quvchilar nazorat sinfida 1 nafar (5,8%), tajriba sinfida esa yo'q (3.5-jadval). Xullas, o'zlashtirish tajriba sinfida 100%, nazorat sinfida 93,9%, bilim sifati nazorat sinfida 58,7%, tajriba sinfida 73,6% tashkil etdi (3.5-jadval),.

3.5-jadval

Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari ko'rsatkichlari (11-sinflar)

Maktab	Tadqiqot sinflari	O'quvchilar soni	5	%	4	%	3	%	2	%	1	%	O'zlashtirish	Sifat o'zlashtirish	O'zlashtirmaganlar
№51	11- A nazorat sinfi	17	2	11,7	8	47	6	35,2	1	5,8	-	0	93,9	58,7	5,8
№51	11-B tajriba sinfi	19	8	42,1	6	31,5	5	26,3	-	0	-	0	100	73,6	0

Ushbu umumiy o'rta ta'lim maktabining 8 "b"-sinfida o'tkazilgan «Buxoro amirligida madaniy hayot» mavzusidagi darsning asosiy qismida ushbu mavzuga tegishli bo'lgan, lekin darslikda o'z ifodasini topmagan qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar – o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarimizdan foydalanildi. Aynan shu mavzu bo'yicha 8 «a» sinfida o'tkazilgan mashg'ulotda qo'shimcha tarixiy ma'lumotlardan foydalanilmadi. O'tkazilgan nazorat ishlari natijalaridan ko'rinadiki (4-jadval), nazorat sinfida a'lo baho olgan o'quvchilar soni 5 nafar (22,7%), tajriba sinfida 8 nafarni tashkil etdi (38%). Demak, tajriba sinfida a'lo baho olganlar soni 15,3% ko'p. 4 baho olgan o'quvchilar soni tajriba sinfida 10 nafar (48%), nazorat sinfida 7 nafar (31,8%). 3 baho olgan o'quvchilar soni tajriba sinfida 3 nafar (14,3%), nazorat sinfida 8 nafar (36,3%). 2 baho olgan o'quvchilar nazorat sinfida 2 nafar (9%), tajriba sinfida yo'q. Demak, o'zlashtirish tajriba sinfida 100%, nazorat sinfida 90,8% bo'ldi. Bilim sifati nazorat sinfida 54,5% tajriba sinfida 86% tashkil etdi (3.6-jadval).

3.6-jadval

**Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 51-umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻquvchilari koʻrsatkichlari (8-sinflar)**

Maktab	Tadqiqot sinflari	Oʻquvchilar soni	5	%	4	%	3	%	2	%	Oʻzlashtirish	Oʻzlashtirmaganlar	Sifat oʻzlashtirish
№51	8-A nazorat sinfi	22	5	22,7	7	31,8	8	36,3	2	9	90,8	9	54,5
№51	8-B tajriba sinfi	21	8	38	10	48	3	14,3	-		100	-	86

Mirzaobod tumanidagi № 1-umumiy oʻrta taʼlim maktabining 7 «b» sinfida tarix fani oʻqituvchisi Gulnoza Xusanovaning “Aql zakovat bilan bunyod etilgan boy maʼnaviyat” mavzusida oʻtgan darsning asosiy qismida ushbu mavzuga tegishli boʻlgan, lekin darslikda oʻz ifodasini topmagan qoʻshimcha tarixiy maʼlumotlar – oʻzbek mentalitetiga xos boʻlgan milliy qadriyatlarimizdan foydalanildi. (I –boʻlim, 4-5-§.). Aynan shu mavzu boʻyicha 7 «a» sinfida oʻtkazilgan mashgʻulotda qoʻshimcha maʼlumotlardan foydalanilmadi. Oʻtkazilgan nazorat ishlari natijalaridan koʻrinadiki (5-jadval), nazorat sinfida aʼlo ball olgan oʻquvchilar soni 5 nafar (14,7%), tajriba sinfida 11 nafar (35,4%). Demak, tajriba sinfida aʼlo baho olgan oʻquvchilar soni 20,7% koʻp. 4 baho olgan oʻquvchilar soni tajriba sinfida 14 nafar (45,1%), nazorat sinfida 11 nafar (32,3%). 3 baho olgan oʻquvchilar soni tajriba sinfida 16 nafar (51,1%), nazorat sinfida 16 nafar (47%). 2 baho olgan oʻquvchilar tajriba sinfida yoʻq, nazorat sinfida 2 nafar (5,8%). Demak, oʻzlashtirish tajriba sinfida 100%, nazorat sinfida 94,2%, bilim sifati nazorat sinfida 53,2% tajriba sinfida 80,6% tashkil etdi (3.7-jadval).

3.7-jadval

**Mirzaobod tumanidagi 1-umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilari
koʻrsatkichlari (7-sinflar)**

Maktab	Tadqiqot sinflari	Oʻquvchilar soni	5	%	4	%	3	%	2	%	1	%	Oʻzlash tirish	Sifat oʻzlash tirish	Oʻzlashtirmaganlar
№1	7-A nazorat sinfi	34	5	4,7	11	32,3	16	7	2	5,8	-	0	94,2	53,2	5,8
№1	7-B tajriba sinfi	31	11	5,4	4	5,1	16	51,1	-		-	0	100	80,6	-

Guliston shahar № 2-maktabning 10 «b» sinfida tarix fani oʻqituvchisi Shavkat Suyundikov «Oʻzbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat» mavzusini oʻtganda darsning asosiy qismida ushbu mavzuga tegishli boʻlgan, lekin darslikda oʻz ifodasini topmagan qoʻshimcha tarixiy maʼlumotlar – oʻzbek mentalitetiga xos boʻlgan milliy qadriyatlarimizdan foydalanildi. Aynan shu mavzu boʻyicha 10 «a» sinfida oʻtkazilgan mashgʻulotda anʼanaviy tarzda qoʻshimcha tarixiy maʼlumotlardan foydalanilmadi.

Oʻtkazilgan nazorat ishlari natijalaridan koʻrinadiki, nazorat sinfida aʼlo baho olgan oʻquvchilar soni 7 nafar (23%), tajriba sinfida 11 nafar (36,6%). Demak, tajriba sinfida aʼlo baho olganlar soni 4 nafarga koʻp. 4 baho olgan oʻquvchilar soni tajriba sinfida 15 nafar (50%), nazorat sinfida 13 nafar (43%). 3 baho olgan oʻquvchilar soni tajriba sinfida 4 nafar (13,3%). Nazorat sinfida 8 nafar (26,6%). 2 baho olgan oʻquvchilar nazorat sinfida 2 nafar (0,66%), tajriba sinfida yoʻq. Demak, oʻzlashtirish tajriba sinfida 100%, nazorat sinfida ham 86,6%, bilim sifati nazorat sinfida 66%, tajriba sinfida 86,6% tashkil etdi (3.8-jadval).

3.8-jadval

**Guliston shahridagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari
ko'rsatkichlari (10-sinflar)**

Maktab	Tadqiqot sinflari	O'quvchilar soni	5	%	4	%	3	%	2	%	O'zlashtirish	Sifat o'zlashtirish	O'zlashtirmaganlar
№2	10-A nazorat sinfi	30	7	23	13	43	8	26,6	2	0,66	93,5	66	6,5
№2	10-B tajriba sinfi	30	11	36,6	15	50	4	13,3	-	0	100	86,6	-

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda o'qituvchilarning tarix darslarida mavzuga mos ravishda xalqimizning milliy qadriyatlaridan foydalanish yuzasidan o'quvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda matematik-statistika metodi qo'llanildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, o'rtachasi quyidagi jadvalda aks ettirildi (3.9-jadval).


3.9-jadval

Nazorat va tajriba guruhlari ko'rsatkichlari

	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari				
		Sifat o'zlashtirish	«5»	«4»	«3»	«2»
Nazorat sinfida	200	52,5%	33 (16,5%)	72 (36%)	81 (40,5%)	14 (7%)
Tajriba-sinov sinfida	191	76%	77 (40%)	68 (36%)	46 (24%)	-

3.9-jadvalga asosan nazorat guruhlarida “Qoniqarsiz” o'zlashtirish ko'rsatkichi 7 % (14 nafar)ni, tajriba sinfida esa “Qoniqarsiz” o'zlashtirgan o'quvchilar aniqlanmagan. Jadval xulosalariga ko'ra tajriba sinfida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat sinfidagi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan yuqori ekanligi qayd etildi.

3.9-jadvalga asosan, tajriba sinflarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari va nazorat sinflaridagi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan yuqori ekanligini diagrammalarda ko'rsatamiz:



3.2-rasm. Tajriba va nazorat sinflarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarining diagrammalari

3.1-jadvaldagi ko'rsatkichlar asosida tajriba va nazorat sinflarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'rta arifmetik usulidan foydalanib, nisbiy va o'rtacha ayirma koeffitsiyentlarini taqqoslaymiz.

$$\bar{X}_{t.s} = \frac{1}{n_{t.s}} \sum_{i=1}^4 n_i \cdot x_i = \frac{1}{191} (5 \cdot 77 + 4 \cdot 68 + 3 \cdot 46 + 2 \cdot 0) \approx 4,16$$

$$\bar{Y}_{n.g} = \frac{1}{n_{n.g}} \sum_{j=1}^4 n_j \cdot y_j = \frac{1}{200} (5 \cdot 33 + 4 \cdot 72 + 3 \cdot 81 + 2 \cdot 14) \approx 3,62$$

tajriba-sinov va nazorat guruhlarining o'rtacha ayirma koeffitsiyenti quyidagicha bo'ladi:

$$L = \bar{X}_{t.s} - \bar{Y}_{n.g} = 4,16 - 3,62 = 0,54$$

tajriba-sinov va nazorat guruhlarining nisbiy o'zlashtirish koeffitsiyenti quyidagicha bo'ladi:

$$K = \frac{\bar{X}_{t.s}}{\bar{Y}_{n.g}} = \frac{4,16}{3,62} \approx 1,15$$

Yuqoridagi matematik hisoblashlarga asosan, tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagi o'zlashtirishdan yuqoriligi ko'rinib turibdi.

Tajriba sinfi va nazorat sinfidagi guruhlarining tanlanma o'zgaruvchan variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblaymiz. Buning uchun, tajriba-sinov va nazorat guruhlar uchun tanlanma dispersiyalar $D_{t.s}$, $D_{n.g}$ hisoblash talab etiladi.

$$D_{t.s} = \frac{1}{n_{t.s} - 1} \sum_{i=1}^n (\bar{X}_i - \bar{X}_{t.s})^2 \cdot n_i = \frac{1}{191} (0.7 \cdot 77 + 0.025 \cdot 68 + 1.35 \cdot 46) \approx 0,62$$

$$D_{n.g} = \frac{1}{n_{n.g} - 1} \sum_{j=1}^n (\bar{Y}_j - \bar{Y}_{n.g})^2 \cdot n_j = \frac{1}{200} (1.9 \cdot 33 + 0.144 \cdot 72 + 0.38 \cdot 81 + 2.62 \cdot 14) \approx 0,7$$

$$\sigma_{t.s} = \sqrt{D_{t.s}} = \sqrt{0,62} \approx 0,79, \sigma_{n.g} = \sqrt{D_{n.g}} = \sqrt{0,7} \approx 0,84$$

Ushbu hisoblashlardan kelib chiqib, variatsiya ko'rsatkichlarini topamiz.

$$V_{t.s} = \frac{\sigma_{t.s}}{\bar{X}_{t.s}} \cdot 100\% = \frac{0,79}{4,16} \cdot 100\% \approx 18\%$$


$$V_{n.g} = \frac{\sigma_{n.g}}{\bar{Y}_{n.g}} \cdot 100\% = \frac{0,84}{3,62} \cdot 100\% \approx 23\%$$

Hisoblash natijasiga ko'ra, $V_{t.s} < V_{n.g}$ bo'lganligidan, tajriba sinfidagi o'rtacha o'zlashtirish darajasi nazorat sinfiga nisbatan yuqori ekanligi $V_{t.s} = 18\% < 20,5\%$ va $V_{n.g} = 23\% > 20,5\%$ esa, tajriba sinfiga nisbatan hisoblangan o'rtacha arifmetik qiymat ko'rsatkichi shu guruhlariga mos keladigan bosh to'plamdagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichini to'g'ri ekanligi kelib chiqadi. Endi tajriba sinfi uchun ishonchli oraliqni topamiz:

$$\Delta_{t.s} = 0,5 \cdot \frac{0,79}{\sqrt{191}} \approx 0,03, \quad \Delta_{n.g} = 0,5 \cdot \frac{0,84}{\sqrt{200}} \approx 0,025.$$

Demak tajriba sinfi uchun ishonchlilik oraliq:

$$[\bar{X}_{t.s} - \Delta_{t.s}; \bar{X}_{t.s} + \Delta_{t.s}] = [4,13; 4,19]$$



3.3-rasm. Tajriba sinfi uchun ishonchlilik oralig'i.

$$M = \frac{\bar{X}_{t.s} - \Delta_{t.s}}{\bar{Y}_{n.g} + \Delta_{n.g}} = \frac{4,16 - 0,03}{3,62 + 0,025} = \frac{4,13}{3,645} = 1,13 > 1$$

M - ta'lim samaradorligini aniqlash ko'rsatkichi.

Ko'rinib turibdiki, tajriba hamda nazorat sinfidagi tajribadan keyingi ko'rsatkichlarining matematik-statistik hisoblash natijalari tajriba sinfining o'zlashtirish samaradorlik ko'rsatkichlari nazorat sinfidagi ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Tajriba sinfi o'zlashtirish natijalari bo'yicha qo'yilgan gipotezani tekshiramiz. Bunda H_0 gipoteza sifatida tajriba va nazorat sinfidagi tajriba natijalarining o'zlashtirish baholari bo'yicha kutilayotgan ehtimolliklarini bir xil deb, muqobil H_1 , gipotezada bir xil emas deb olindi. Ya'ni, H_0 – tajriba-sinov o'tkazilgandan so'ng o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarida o'zgarish bo'lmaydi.

H_1 – tajriba sinfida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Agar aniqlangan $\chi_{t.s}^2$ empirik qiymat χ^2 statistika jadvalidan $\chi_{1-\alpha}^2((k-1);(l-1))$ ga mos bo'lgan kritik qiymatdan kichik bo'lsa, ya'ni $\chi_{t.s}^2 > \chi_{kp}^2$ bo'lsa, u holda H_1 gipoteza qabul qilinadi, bu yerda α - qiymatdorlik darajasi. Shunga asosan, N_1 ni N_0 ga nisbatan tekshirish uchun matematik-statistik metodlarining “Xi kvadrat” usulidan foydalanamiz.

3.10-jadval

x_i	2	3	4	5
n_i	0	46	68	77
$x_i - \bar{X}_{t.s}$	-2,16	-1,16	-0,16	0,84
$u_i = \frac{x_i - \bar{X}_{t.s}}{\sigma_{t.s}}$	-2,73418	-1,46835	-0,20253	1,063291
$\varphi(u_i)$	0,0096	0,1374	0,391	0,2275
$n'_i = \frac{h \cdot n}{\sigma_{t.s}} \cdot \varphi(u_i)$	0	6,087342	36,62532	13,82278
$\frac{(n_i - n'_i)^2}{n'_i}$	0	137,3246	38,13938	84,5041
$\chi_{t.s}^2 = \sum_{i=1}^4 \frac{(n_i - n'_i)^2}{n'_i}$	259,9681			

$\chi_{kp}(0,05) = 3,8$ va $\chi_{t.s}^2 = 259.9681$ ekanligidan, “Pirson” kriteriyasiga ko'ra, $\chi_{t.s}^2 > \chi_{kp}^2$ tengsizlik bajariladi. O'tkazilgan matematik-statistik tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, tadqiqotning amaliy natijalari asosida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasiga ko'ra 95 % li ko'rsatkich bilan tajriba sinflarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilganligi (N_1 -gipoteza) o'z tasdig'ini topdi. Bundan ko'rinadiki, tajriba sinfidagi o'zlashtirish darajasi, nazorat sinfidagi o'zlashtirish darajasidan yuqori ekan. Demak, tajriba-sinov ishlari natijasida o'quvchilarning O'zbekiston tarixi darslarida mavzuga mos ravishda milliy qadriyatlarimizdan manba sifatida

foydalanish hamda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqimizning milliy qadriyatlaridan o'rinli foydalanish yuzasidan o'quvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari samaradorli ekanligi tasdiqlandi.

Yuqoridagi tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Bugungi kunga qadar «O'zbekiston tarixi» darslarida mavzuga mos ravishda milliy qadriyatlardan o'rinli foydalanish muammosi haqida alohida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan va maxsus fikr yuritilmagan va bu muammoning yechimi ilmiy jihatdan ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqotda ushbu kemtik holatni bartaraf etishga harakat qilindi.

2. O'zbekiston tarixi fanida mavzuga mos ravishda milliy qadriyatlardan foydalanilgan holda o'qitish jarayonida foydalanishning sinov dasturlari mazmuniga singdirilishi natijasida ilk bor tarix o'qitishda ma'lum sifat va samaradorlikka erishildi. Respublika miqyosida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari sinov dasturini o'zlashtirishdagi sifat ko'rsatkichlari o'rtachadan yuqori, ya'ni tajriba sinflaridan olingan natijalar nazorat sinflaridan olingan natijalar nazorat sinflari natijalariga nisbatan 11% ga o'sganligi, tadqiqotga kiritilgan ilmiy farazlarimiz to'g'riligini ko'rsatadi.

3. Pedagogikaning umumiy qonun va qonuniyatlari hamda tamoyillaridan foydalanib, tarix ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy qadriyatlardan foydalanish vositasida ta'lim samaradorligiga erishishning eng muhim ilmiy va pedagogik tamoyillari aniqlandi va ular tavsiflandi.

4. Tarix darslarida milliy qadriyatlarimiz, mahalliy o'lkashunoslik materiallari, xalqimizning moddiy va ma'naviy merosidan foydalanishda tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish dars sifatini oshirish omili bo'lib, tarix fanining ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi vazifalarini to'laqonli amalga oshirishga xizmat qilishi va unga samarali metodik shakl, usul, vositalar orqali erishish mumkinligi ilmiy asoslandi. Chunonchi, tajriba-sinov olib borilgan maktablardagi tajriba va nazorat sinflarining o'quv yili boshidagi natijalari bilan yakunidagi natijalar qiyoslab o'rganilganda, tajriba sinflarining sifat ko'rsatkichi yuqori bo'ldi, ya'ni o'quv yili boshidagi o'zlashtirish darajasi 89% ga nisbatan uning yakunida 100% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat sinflarida bu ko'rsatkich esa 88% ga nisbatan 93% ga yetdi.

Tadqiqot jarayonida tarix darslarida biz tomondan ishlab chiqilgan baholash mezonlari, dars ishlanmalari, pedagogik jarayon modeli, mustaqil ishlashga mo'ljallangan topshiriqlar va mavzuga mos ravishda milliy qadriyatlarimizdan foydalanish orqali dars samaradorligiga erishish

muammosiga ilmiy jihatdan tizimli yondashuvning amalga oshirilishi natijasida uning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun maqsadga muvofiq metodik tizim ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov jarayonida 7-11-sinflar uchun mo'ljallangan «O'zbekiston tarixi fanini o'qitish asosida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish» nomli metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari, didaktik materiallar, zamonaviy pedagogik texnologiyaga doir darslar tizimi sinovdan o'tkazildi va ularning samaradorlik darajasi nazorat materiallarini jalb etish orqali aniqlandi. Chunonchi, ilmiy muammo bo'yicha o'quvchilar bilimni aniqlash yuzasidan, o'quvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltiruvchi test sinovi natijalari nazorat sinflaridagi bu ko'rsatkich nazorat sinflaridagi sifat o'zlashtirish jami 52,5% ni ko'rsatgan bo'lsa, tajriba sinflarida bu ko'rsatkich 76% ni tashkil etdi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida maqsadli o'quvlar tashkil etilib, to'garak mashg'ulotlari olib borildi. O'quvchilarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari, o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot o'tkazishga yo'naltiruvchi topshiriqlar berilib, shu orqali ularning hudud o'lkashunosligiga qiziqtirish, mahalliy urf-odatlarini o'rganishga jalb etildi. O'quvchilarda tarixiy bilimlar rivoji, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantiruvchi samarali vositalar shakllandi.

Tarix o'qitishga integratsion yondashish, tarix ta'limining uzluksizligi, izchilligi va uzviyligini ta'minlash bilan tarixiylik tamoyilini amalga oshirish hamda DTS talablari doirasida bunday bog'lanishlarning o'rni va ahamiyati ilmiy tadqiqot natijasida o'z amaliy isbotini topdi.

Umuman, ushbu ilmiy muammo mamlakatimiz uzluksiz ta'limi, fani va ishlab chiqarishning jahon ilm-fani va ta'limi bilan integratsiyasi ro'y berayotgan hozirgi vaqtda muhim dolzarblik kasb etmoqda. Masalan, zamonaviy axborot texnologiyalarining globallashuv sharoitida fan va texnika axborotlarini tizimlashtirish ustida izlanishlar olib borilayotgan bo'lsa, pedagogikada bu tajriba o'quv predmetlar materialini mazmunini mujassamlashtirishning turli shakl va usullari asosida o'rganish orqali hal etishga harakat qilinmoqda.

Hozirgi bosqichda o'quv materialini bunday o'rganish zarurati shu bilan izohlanadiki, bu holat o'quvchilarning insoniyat to'plagan barcha ulkan bilimlar ummonida omilkorona yo'l tutishga tayyorlash bilan, ularni ortiqcha o'quv yukidan xalos qilish vositasi sifatida qaralmoqda. Zero, kelgusida darsliklarning yangi avlodini yaratishda, xususan, o'quv-metodik

adabiyotlarni integrativ usulda tayyorlashda ushbu ilmiy tadqiqot natijalaridan nafaqat foydalanish, amaliyotga tatbiq etish mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari, uning ilmiy muammolariga asoslangan holda tarix faniga yaqin bo'lgan, ijtimoiy fanlar "Davlat va huquq asoslari", "Tarbiya" fanlari hamda "Geografiya va iqtisodiyot" fanlarida ham milliy qadriyatlardan o'rinli foydalanishni yo'lga qo'yish mumkin. O'z o'rnida barcha fanlarda darsning tarbiyaviy maqsadini belgilashda milliy qadriyatlarimizga o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish va hurmat hissini shakllantirish vazifasini asosiy omil sifatida belgilash mumkin.

Biz yuqoridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari orasida o'tkazilgan tadqiqotimiz natijasida tarix fani o'qituvchilariga quyidagi tavsiyalarni amaliyotda qo'llashni lozim deb topdik:

-O'zbekiston tarixi fanini o'qitish asosida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat va ehtirom hissini uyg'otish hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning rolini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish;

-o'zbek xalqining azaldan sayqallanib kelgan milliy qadriyatlarini jahon va O'zbekiston tarixida tutgan o'rnini haqida tahliliy ma'lumotlar, istiqbolini ta'minlashdagi muhim vazifalardan biri ekanligidan kelib chiqib, jamiyatdagi tarixiy bilimlar, tarixiy ong va tafakkurni rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

"O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish asosida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasidan darslarda, sinfdan tashqari ishlarda, mustaqil topshiriqlar bajarishda foydalanish;

- "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasida tarixiy materiallarni dars jarayonida qo'llashning mantiqiy to'g'riligini tekshirish;

"O'zbekiston tarixi" darslarida o'quvchilarni o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda mavjud manba va materiallardan foydalanish imkoniyatlari ko'lamini haqida o'qituvchilarga tushunchalar berish qo'llaniladigan metod va usullarning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O‘zbekiston tarixi darslarida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish metodikasi doirasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan test savollari va mustaqil ishlash uchun mo‘ljallangan topshiriqlar o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga nisbatan motivatsiyasini uyg‘otishga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishda o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun ular bilan doimiy suhbat, nazorat ishlari olib borilishi “O‘zbekiston tarixi” darslarida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasining axborot texnologiyalari va globallashuv jarayonlari bilan aloqadorligini ko‘rsatdi.

Tarix darslarida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat hissini oshirish hamda tarixiy davrlar osha sayqallanib va saralanib kelgan o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini mavzuga mos ravishda tanlash va ularning mazmun-mohiyati haqida o‘quvchilarga tushuncha berish bilan to‘liq maqsadga erishib bo‘lmaydi. O‘zbekiston tarixi fani o‘qitish asosida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirishning metodik xususiyatlarini hisobga olsak, unda quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

birinchidan, milliy qadriyatlar mavzuga mos ravishda uning mazmun- mohiyatini to‘ldiradi. To‘g‘ri xulosa chiqarishga va mustaqil fikrlashga undaydi, milliy qadriyatlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya paydo bo‘ladi;

ikkinchidan, milliy qadriyatlarimizni mavzu bilan mantiqan bog‘lab o‘rgatish o‘quvchilarda tarixiy davrga xos bo‘lgan ijtimoiy holat to‘g‘risidagi tasavvurlarni hosil qilishda ko‘makchi vazifasini bajaradi;

uchinchidan, milliy qadriyatlarimizdan tarixiy manba sifatida foydalanish orqali o‘qitishni tashkil etishda o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat hissini uyg‘otish bilan bir qatorda ularda tarixiy xotirani shakllantiradi.

UMUMIY XULOSALAR

“O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish asosida o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasi” mavzusida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Globallashuv jarayoni rivojlanuvchi ijtimoiy hodisa bo‘lib, milliy qadriyatlarni anglashga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Davlatlar va xalqlar o‘rtasida integratsiyaning kuchayishi natijasida turli madaniyatlar, qadriyatlar, an‘analarning yaqinlashishi ularning mazmunan boyishiga xizmat qilsa-da, ba‘zan milliylikka salbiy ta‘sir etuvchi vayronkor va buzg‘unchi g‘oyalarning ham sizib kirishiga sabab bo‘ladi.

2. Jamiyat hayotida xavfsizlik va barqarorlikka tahdid soluvchi yot zararli g‘oyalarning “maftunkor” targ‘ibot va tashviqotlari orqasida barqaror mamlakatlar tinchligini buzish va insonlarni qo‘rquv hamda sarosimaga solish orqali o‘zining g‘arazli maqsadlariga erishish maqsadi turadi. Bu jarayonda yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqaligina globallashuvning salbiy oqibatlariga qarshi turish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin.

3. O‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda “O‘zbekiston tarixi” fanining pedagogik shart-sharoitlarini o‘quv materiallarini tanlab olishning pedagogik talablariga ilmiy manbalar va metodik adabiyotlar tahlillarini hamda madaniy meros obyektlarining ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatini metodik jihatdan integratsiyalash orqali takomillashtirish mumkin.

4. “O‘zbekiston tarixi” fani mashg‘ulotlarida sinflar va mavzular kesimida milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari hamda milliy qadriyatlardan mavzuning xususiyatiga ko‘ra foydalanish metodikasini takomillashtirish o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini oshiradi.

5. Yoshlarning milliy qadriyatlar mazmunini anglashida milliy g‘oya asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, yoshlarning milliy g‘oyadan begonalashuvi, oxir oqibatda, ularning ma‘nan manqurtlashuviga olib keladi hamda ma‘naviy yuksalishiga salbiy ta‘sir etadi. Ushbu ijtimoiy-siyosiy muammoni to‘g‘ri yo‘lga solish tarix fani o‘qituvchilarining zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Tarix fani o‘qituvchisi o‘quvchi shaxsining shakllanishi va ma‘naviy yuksalishi milliy g‘oya negizlariga tayanishi hamda unga bo‘lgan ishonch va e‘tiqodiga bog‘liqligini anglashi lozim.

6. “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish asosida mahalliy o‘lkashunoslik materiallarini o‘rganish va keng targ‘ib qilish borasida o‘quvchilarni mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borishga yo‘naltirishning pedagogik imkoniyatlari izchillik va normativlik tamoyillariga tayanadi. Bunda mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik jarayon modeli qo‘l keladi.

7. Milliy qadriyatlar o‘zida millatga hurmat, o‘zlikni anglash, milliy g‘oyaga xayrixoh munosabat, xalqidan faxrlanish, ajdodlarning olamshumul buyuk ishlaridan g‘ururlanish kabi tuyg‘ularni jamlaydi. “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalar va fanning eng oxirgi yutuqlaridan foydalanishning ta’limiy imkoniyatlaridan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar, sayohat darslarida foydalanish mashg‘ulotning ko‘rgazmalilik metodlari asosida samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

8. O‘tmishimiz va kelajagimiz uchun qudrat bag‘ishlaydigan milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi shakllangan yangi avlodlarni tarbiyalashimiz o‘z milliy davlatchiligimizni mustahkamlashning asosidir. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish, milliy qadriyatlarni anglashning infrastrukturasi va texnologiyasini takomillashtirish masalasi zararli va yot g‘oyalarni, mafkuraviy tahdidlarini bartaraf qilishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi

- tarix fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish metodikasini takomillashtirish (o‘quvchilarning tarixiy obidalarining maketini yasashlari, tarixiy shaxslar portretini chizish va xakozo);

- amaliy mashg‘ulotlar, tarixiy bilimlarni mustahkamlovchi kreativ yondashuv talab etiladigan topshiriqlardan iborat ishchi daftarlarni ishlab chiqish (MDH davlatlari tajribasi Rossiya Federatsiyasi Biyskiy litsey internati bilan olib borilgan metodik almashinuv natijasi);

- o‘quvchilar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish maqsadida mavzular kesimida darslikdan tashqari qo‘shimcha adabiyotlar bibliografiyasini yaratish;

- o‘qituvchi va iqtidorli o‘quvchi (dual) tomonidan dars jarayonini boshqarilishining modelini ishlab chiqish hamda o‘quvchilarning darsning didaktik ta’minoti boyitishlarini ta’minlovchi tavsiyalar ishlab chiqish;

- dars jarayonida iqtidorli o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida “Iqtidorli o‘quvchi minbari” tamoyilini qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- vizual ekskursiya darslari (onlayn)ni qo‘shni tuman yoki viloyat ta’lim muassasalari o‘qituvchilari hamkorligida olib borish;

- onlayn o‘lkashunoslik to‘garaklari (Telegram, GOOGLE) faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- o‘quvchilarni mustaqil ilmiy tadqiqot o‘tkazishga jalb etish (etnografik, toponimik, foto jamlanma, videorolik va xakozo).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: «O'zbekiston», 2023.- 80 b.
- 2 O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son).
- 3 Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son.
- 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to’g’risida”gi qarori
O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 38-son, 1029-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son, 13.12.2019 y., 06/19/5893/4150-son).
- 5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli qarori bilan “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori.
(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2018 y., 07/18/4038/2243-son, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son).
- 6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-sonli Qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi internet sayti <https://nrm.uz/>.
- 7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi PF-5712-sonli

- Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
https://static.norma.uz/official_texts/PF-5712,%2029.04.2019%20
y.
- 8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-600-sonli farmoni.// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.05.2020 y., 06/20/6000/0673-son.
 - 9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y.
 - 10 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 119-sonli Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.03.2021 y., 09/21/119/0190-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son; 08.04.2022 y., 09/22/166/0284-son; 23.04.2022 y., 09/22/209/0341-son; 10.08.2022 y., 09/22/438/0726-son).
 - 11 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli qarori.// O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi internet sayti <https://nrm.uz/>.
 - 12 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-846-sonli qarori. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019 y., 09/19/846/3881-son.
 - 13 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori.//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2021 y., 09/21/23/0056-son.

- 14 O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo‘yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risida” gi yo‘riqnomaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida 7 mh, 21-2020q/q-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.08.2018-y., 10/18/3058/1784-son; 29.06.2020-y., 10/20/3058-1/1011-son.
- 15 Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.- Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU,2017 .- 592 b.
- 16 Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- T.: “O‘zbekiston”NMIU, 2017.-48 b.
- 17 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.- T.: “O‘zbekiston”, 2017.-104 bet.
- 18 Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: “O‘zbekiston”, 2017.-488 bet.
- 19 Mirziyoyev Sh.M. Innovatsion g‘oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq etish-islohotlar samaradorligining bosh mezon. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 may kuni O‘zbekiston Milliy universitetida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan bo‘lgan uchrashuv. // Xalq so‘zi gazetasi. 2019-yil 25-may. №107(7337). 2 bet.
- 20 Мирзиёев Ш.М. Развитие школьного образования должно стать всенародным движением. // “Народное слово” газетаси. 2019 йил 24 август, №174 (7373).- С.4
- 21 Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. 2020-yil 25-yanvar. №19 (7490).
- 22 Mirziyoyev Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. //Xalq so‘zi gazetasi. 2021-yil 20-yanvar. №13 (7793).-4-bet.

II. Monografiya, dissertatsiya, avtoreferat, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

- 23 Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N, “Didaktika boshlanishi”:Qo‘llanma.-Fan va texnologiya”.-T.:2014 yil.-132 bet.

- 24 Alliyarov A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish. Ped. Fan. Falsafa doktori.dis. .Avtoref. – T.: 2020. –52 bet.
- 25 Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish-zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida. //Zamonaviy ta'lim.-T.: 2016.-№10.-3-8 bet.
- 26 Jalilov Z. IX-XII asrlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish. Ped. Fan. Falsafa doktori.dis. Avtoref. – Buxoro: 2018. –45 bet.
- 27 Jo'rayev V.T. Masofaviy ta'limda mobil ilovalardan foydalanishning ba'zi masalalari.//Fizika, matematika va informatika.-T.:2019.-№3.-30-38 b.
- 28 Дымова И.П. Формирование российских национальных ценностей студентов педагогического колледжа:автореферат дис. ...кандидата педагогических наук. Горно-Алтайск.: 2004. – 30 стр.
- 29 Ismoilov A. S. Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish. Ped. Fan. Falsafa doktori.dis. .Avtoref. – T.: 2018. –50 bet.
- 30 Игорова Э.Н. Педагогические условия формирования системы Российских национальных ценностей у учащихся подросткового возраста:автореферат дис. ...кандидата педагогических наук. Ульяновск.: 2012. –30 стр.
- 31 Caren S.Neile. The stories of Amerika. In search of national values in family memorate. Degree of Doctor of Philosophy.dis- Florida 2003 y.
- 32 Kosimova D. O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish texnologiyasi. Ped. Fan. Falsafa doktori.dis. – Namangan: 2019. –156 bet.
- 33 Мадатова М.Т. Педагогические условия формировния ценностных ориентаций старших подростков во внеклассной деятельности общеобразовательной школы:автореферат дис.кандидата педагогических наук. Душанбе, 2012.-22 с.
- 34 Mamaradjabov B.B. Milliy qadriyatlarimiz tarbiya jarayonida samaradorlik omili sifatida.//Zamonaviy ta'lim.-T.: 2014.-№12.-3-10 bet.

- 35 Mirkomilov B. Talabalarda badiiy qadriyatlarga qiziqishni rivojlantirish (Jahon tarixi misolida) . Ped. Fan. doktori.dis. Avtoref. – T.: 2019. –59 bet.
 - 36 Taylanova Sh. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Ped. Fan. doktori.dis.Avtoref. – S.: 2019. –66 bet.
 - 37 Temirova N.E. Talaba yoshlarning ma’naviy shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi. Falsafa fan. nom. diss. – T.: 2007. – 148 bet.
 - 38 Toshmatova K. Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish (Umumiy o’rta ta’lim misolida). O’qituvchilar uchun uslubiy qo’llanma.-T.:2015.-88 bet.
 - 39 Xaydarov. S. Tasviriy san’at asarlari vositasida “O‘zbekiston tarixi” darslari samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. Ped. Fan. Falsafa doktori.dis.Avtoref. – N.: 2019. –46 bet.
 - 40 Hakimjonov B.X. O‘zbekiston tarixi darslarida axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashgan holda qo‘llashning didaktik va metodik talablari. Science and Education. Ilmiy elektron jurnal. Volume 1, Issue 8 , 2020 yil noyabr. 659-663 betlar.
 - 41 Hakimjonov B.X. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish asosida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.//Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2020 yil avgust. 377-382 betlar.
 - 42 Po‘latova D.T. Ta’lim jarayoniga elektron axborot ta’lim resurslarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari.// Zamonaviy ta’lim.-T.: 2015.-№7.-11-16 bet.
 - 43 Hasanboyev J., Sariboyev H., va boshqalar. Pedagogika:O‘quv qo‘llanma.T.: “Fan”, 2006 yil.-282 bet.
 - 44 Yuldasheva I. Vatan ravnaqi g‘oyasini shakllantirish orqali kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish.//Zamonaviy ta’lim.-T.: 2014.-№7.-25-30 bet.
 - 45 Юрченко.Е.Ю. Критерии оценивания различных видов работ учащихся по истории и обществознанию. Методическое объединение учителей истории и обществознание Гимназия №8 города Евпатории Республики Крым. 2017 г.
- Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**
- 46 Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T.:2008,-85 bet.

- 47 Abdullayev M., Abdullayeva M., Abdurazzoqova G., va boshq.; Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at.-T.: “Sharq”, 1998.-320 bet.
- 48 Abduxalimov B. va boshq., Temur tuzuklari. Tahrir hay‘ati: Forschamatndan A. Sog‘uniy va H. Karomatov tarj. —Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012. — 184 bet.
- 49 Azizxo‘jayev A.A., Abdumajidov F., Ahmadshayeva M.A. va boshq., O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga sharh.-T.: “O‘zbekiston”, 2008-496 bet.
- 50 Amir Temur Ko‘ragon. Temur tuzuklari. T.: “Fan va texnologiya”, 2014 yil.-196 bet.
- 51 Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. 5-sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1994.- 222 bet.
- 52 Ahmedov B. Amir Temur darslari: umumiy ta’lim va maxsus tarix maktablari o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun qo‘llanma.-T.: “Sharq”, 2001 yil.-144 bet.
- 53 Ahmedov B. Amir Temur haqida hikoyalar.-T.: “Yozuvchi”, 1998 yil.-48 bet.
- 54 Ayupov O. Dunyo, Siyosat, Jamiyat.- T.:Ziyo, 2012.-174 bet.
- 55 Bobobekov H., va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. 8-sinf uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1994. -254 bet.
- 56 Gritsina A.A., Mamadjanova S.D, Mukumov R.S., Archeology, history and architecture of medieval Ustrushana. S.:“IICAS”, 2014-228 p.
- 57 Djurayev R.X., Tolipov.O‘.Q. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug‘ati. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti.-T.:2008.-136 bet.
- 58 Jo‘rayev N., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik.-T.:G‘.G‘ulom, 2018.-144 bet.
- 59 Jo‘rayev U. va boshqalar, Tarixdan hikoyalar: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.-T.:Cho‘lpon, 2015.-184 bet.
- 60 Jo‘rayev U. va boshqalar, O‘zbekiston tarixi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.-T.:O‘qituvchi, 2019.-160 bet.
- 61 Zamonov A.T, Ismatova N,K va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: 7-sinf o‘quvchilari.-T: Respublika ta’lim markazi, 2022.-192 bet.
- 62 Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: “Sharq”, 1998.-31 bet.
- 63 Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat”, 2008.-123 bet.

- 64 Karimov I.A. O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. Xalqaro konferensiya materiallari. 2014-yil 15-16 may, Samarqand. T.:2014. 87 bet.
- 65 Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir.T.: "O'zbekiston" NMIU, 2015.-302 bet.
- 66 Кобзева О.П. Методика преподавания истории в школе (учебно-методическое пособие) Т.: НУУЗ.2003.-149 с.
- 67 Lyusyen Keren. Amir Temur saltanati. –T.: "Ma'naviyat",1999.-224 bet.
- 68 Munavvarov A.Q. Pedagogika.-T.: "O'qituvchi", 1996.-200 bet.
- 69 Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. 7-sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma. – T.: Sharq, 2009.- 290 bet.
- 70 Muxammadjonov A. O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.-T.:Sharq,2017.-160 bet.
- 71 Muqminova R. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 7-sinf uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1994. - 251 bet.
- 72 Nabiyeu A. Tarixiy o'lkashunoslik. (O'lkani o'rganishning asosiy manbalari).T.:O'qituvchi,1996.-336 bet.
- 73 Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya).-T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004.-85 b. 4.1 Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya).-T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2011.-202 bet.
- 74 Никулина Н.Ю. Методика преподавания истории в средней школе: Учебное пособие/ Калининградский государственный университет. -Калининград: 2000.-95 с.
- 75 Nuriddin Ismoilov. Sohibqiron 1-kitob.-T.: "Tamaddun" 2016 yil.-272 bet.
- 76 Rajabov Q., Zamonov A. O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik.-T.:G'.G'ulom, 2017.-144 bet.
- 77 Raximov J. O'quvchilarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda tarixiy o'lkashunoslik manbalardan foydalanishning pedagogik asoslari. – T.: 1996. – 151 bet.
- 78 Remeyev N.M. Yoshlarni hayot haqiqatlari asosida tarbiyalash. – T.: O'qituvchi, 1981.- 160 bet.
- 79 Remeyev N.M. O'zbekiston umumiy ta'lim maktablarida tarix o'qitish muammolari. – T.: 1991. – 162 bet.

- 80 Sagdullayev A.S, Kostetskiy V.A. Tarix (Qadimgi dunyo). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinflari uchun darslik.-T.: Yangi yo'l poligraf servis, 2017.-192 bet.
- 81 Sagdullayev A.S, Kostetskiy V.A. Tarix (Qadimgi dunyo tarixi). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinflari uchun darslik.-T.: Yangi yo'l poligraf servis, 2022.-192 bet.
- 82 Sa'diyev A.S. Maktabda tarix o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1978. – 180 bet.
- 83 Saifnazarov I., Saifnazarova F. Ma'naviyatimizning umrboqiy sarchashmalari.-T.:Mehnat, 1997.
- 84 Suyunov S.S, Saidov M.M. O'zbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi. 5-tom, 3-qism. "O'zR FA arxeologiya instituti", Samarqand, 2016.-282 bet.
- 85 Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.-T.:Sharq, 2019.-160 bet.
- 86 Tillaboyev S., Kenjayev D. O'zbekiston tarixi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik.-T.:, 2022.-192 bet.
- 87 Toshpo'latov T, G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi.-T.: "Universitet", 2002.-190 bet.
- 88 Toshpo'latov T, G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi.-T.: "Turon-iqbol" 2010.-326 bet.
- 89 Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot.-T.: "O'zbekiston", 1999.- 22 bet.
- 90 Umarov E., Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari.-T.:2005.-128 bet.
- 91 Farmonova M.Qadriyatlar-ma'naviy kamolot asosi. (Ilmiy-uslubiy qo'llanma). T.: "Tasviriy nashriyot uyi", 2019.-36 bet.
- 92 Xodjiyev M.T, Raximov B.X, F.G.Sharipov. Umumiy pedagogika: Darslik. -G.:2020 yil.-418 bet
- 93 Чернова.М.Н. Рабочая тетрадь по истории Нового времени. 8-класс.-Москва.: Экзамен, 2018-81 с.
- 94 Чернова.М.Н. Рабочая тетрадь по истории Средних веков. 6-класс.-Москва.: Экзамен, 2019-119 с.
- 95 Shavkat Bobomurod. Sohibqiron Temurbek.-Samarqand: "Zarafshon", 2019 yil.-248-bet.
- 96 Шамукарамова Ф.Ш. Академик Яхя Гулямов и его вклад в развитие исторической и археологической науки в Узбекистане. // Ўзбекистон археологияси.-T.: 2019.№1 (18),- 111 бет.

- 97 Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti/K.Matyoqubov tarjimasi/-T.: “O‘zbekiston”, 2006.-384 bet.
- 98 Шоган В.В. Методика преподавания истории в школе: Новая технология личностно-ориентированного исторического образования-Ростов-на Дону.:Феникс, 2007-471 с.
- 99 Yuldoshev I.A. O‘quvchilar mustaqil ta’limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish.// Zamonaviy ta’lim.-T.: 2017.-№12.-65-70 bet.
- 100 Yunus O‘g‘uz. Amir Temur: Yuksalish sari 1-kitob. Dunyoning hokimi, 2-kitob.-T.: “Yangi asr avlodi”, 2013 yil.-588 bet.
- 101 O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-sayti.
<https://www.minzdrav.uz/documentation/detail.php?ID=52998>
- 102 O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining rasmiy veb-sayti.<https://www.uzedu.uz/uz/category/xalq-talimi-vazirligi-meyoriy-hujjatlari>
- 103 O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi, Xalq ijodiyoti veb sayti. (<http://folklore.uz/nmm-millij-rujhati/?lang=lat>)
- 104 Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].
- 105 Акты Генеральной конференции. 32-сессия.-Париж.:2004.- 214 стр, 59-69 с.
- 106 YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va ICHKAP tashkilotining “O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro‘yxati” nomli risola. 72 bet.
- 107 “Lazgi” YUNESKOning nomoddiy merosi ro‘yxatiga kiritiladi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2019 yil 14 dekabr, 259 (7489)-son.-4 b.
- 108 Turkiy dunyo me’morlari va muhandislari ittifoqi tomonidan 2021-2022 yillar “Mirzo Ulug‘bek yili” deb e’lon qilindi. //«Xalq so‘zi» gazetasi. 2021 yil 2 iyul, 139 (7919)-son.
- 109 “Buxoroning 2020 yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e’lon qilingani barchamiz uchun muhim voqeadir”. //Xalq so‘zi gazetasi. 2020 yil 22 fevral. 9 (7541)-son.-2 bet.
- 110 O‘zbekiston tarixchilari. I-jild. (Bibliografik ma’lumotnoma).-T.:2012. 249 bet.

- 111 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 4-qism.-T.:Nashriyot nomi 2002.-703 bet.
- 112 Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: “Sharq” ,2004.-497 b.
- 113 Pedagogika: Ensiklopediya. 1-jild. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2015.-318 bet.
- 114 Xalqaro baxshichilik san’ati festivali oldidan matbuot anjumani o‘tkazildi. <https://xs.uz/uzkr/post/khalqaro-bakhshichilik-sanati-festivali-oldidan-matbuot-anzhumani-otkazildi>.
- 115 O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. <http://ich.uz/uz/> internet manzili.
- 116 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi:O‘-harfi. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/
- 117 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi:Q-harfi. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/
- 118 Ilm.uz sayti. <https://www.ilm.uz/>
- 119 Madaniy meros sayti. <https://meros.uz/>
- 120 O‘zbekiston Respublikasida joylashgan muzeylarning internetda joylashgan virtual 3D formatli (<http://vmuseum.uz> va <https://roundme.com/tour/563030/view/1849573>) platformasi
- 121 TAKR>UZ sayti. <http://takr.uz/test>
- 122 O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy veb sayti. Unutilmas tarix:101 o‘zbek jangchisi. (<http://uza.uz/oz/society/unutilmas-tarikh-101-nafar-zbek-zhangchisi-04-08-2018>)
- 123 Kitobxon.com sayti. <https://kitobxon.com/uz>
- 124 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>

**O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISH ASOSIDA
O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT
RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI
ILOVALAR**

1-ilova

1-dars ishlanma

MAVZU: 7-Sinf. IX-XI asrlarda ilm, fan va madaniyatning yuksalishi.

Reja:

1. Turon hududi jahon madaniyatining ko‘hna o‘choqlaridan biri.
2. IX-XI asrlarda me‘morchilikning ajoyib yutuqlari.
3. Fan va madaniyat taraqqiyoti.

Darsning maqsadi:

- a) **ta’limiy maqsad** - IX-XI asrlarda ilm fan va madaniyatning yuksalishi haqida batafsil ma’lumot berish;
- b) **tarbiyaviy maqsad**-o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- d) **rivojlantiruvchi maqsad**- o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish.

№	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘quvchilarning bilimlarini takrorlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Mustahkamlash	20 daqiqa
5	Dars yakuni va o‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
6	Uyga topshiriq berish	2 daqiqa

Darsning jihozi: mavzuga oid adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari, me‘moriy inshootlar rasmi, buyuk allomalar portreti, arxitekturaviy inshootlarning kichraytirilgan 3D modeli.

Elektron ta’lim resurslari:

<https://ziyonet.uz/uzc>

<https://www.youtube.com/watch?v=nMivRv785tQ>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://meros.uz/>

<https://e-tarix.uz/>

Dars turi: Nazariy, amaliy, laboratoriya.

Interfaol metodlar: Aqliy hujum, Erkin yozish.

Darsning borishi

Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lib, guruhlar nomlanadi.

O'quvchilarning bilimlarini takrorlash: o'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini takrorlab olish maqsadida quyidagi tarqatma savollar bilan murojaat qilinadi.

1. Turon, Turkiston, Movarounnahr deganda nimani tushunasiz.
2. Islom madaniyati deganda nimani tushunasiz.
3. XI-XII asrlarda yashagan tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar bering.

Yangi mavzu bayoni

Turon hududi jahon madaniyatining ko'hna o'choqlaridan biri bo'lgan. Islom dini kirib kelishidan avval ham bu yerda me'morchilik va hunarmandchilik an'analariga ega edilar. Mintaqada islom dini kirib kelgach, mahalliy an'analar islom madaniyati bilan uyg'unlashib, yanada yuksalish pallasiga kirdi. Ilm fan, savdo-sotiq, qurilish va qishloq xo'jaligi misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi.

IX-X asrlarda me'morchilikning ajoyib yutuqlari masjid va madrasalar qurilishida ko'proq namoyon bo'ldi. O'sha davrlarda diyorimizga kelib-ketgan sayyoh va olimlar shaharlarga ta'rif bera turib, asosiy binolar sifatida masjid va madrasalarni tilga olganliklari shundan dalolatdir. Masjid binolari yonida hashamatli va ulug'vor minora, xonaqoh, ulamo-yu avliyolarning mozorlari ustiga maqbaralar qurildi. Bunday joylarni ziyorat etuvchilarning soni ko'p bo'lganligidan maxsus hujralar ham bino etila boshladi. Iqtisodiy ahvolning yahshilanishi, shaharlar ahamiyatining ortib borishi natijasida IX asrga qadar asosan loy va xom g'ishtdan qurib kelingan binolar o'rniga pishiq g'ishtlar ham ishlatila boshladi.

XI-XII asrlarda pishiq g'ishtdan binolar qurish mahorati yuksak darajaga yetgan. Imoratlarni sakkiz burchakli peshtoqlari baland ko'tarilgan va hashamatli gumbazlar bilan yopilgan holda qurish odat tusiga kirgan, naqshinkor g'isht terish san'ati rivojlangan, g'ishtlarga o'yma naqshlar berilgan.

Aholi orasida "musulmon g'isht" deb yuritiladigan qurilish ashyosi, sariq loydan tayyorlanib, maxsus xumdonlarda pishirilgan. Har bir shahar

va viloyatlarda o'ziga xos me'moriy uslublar rivojlangan. Bular algebra va geometriya fanlarining rivojlanganligidan ham dalolat beradi.

Saljuqiylar davrida fan va madaniyat taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoit yaratib berilgan. Ushbu xonadonga mansub oliy hukmdormi, shahzodami yoki malikami, hammalari biror-bir shaharda bir yoki bir nechta madrasa qurishini o'z vazifalari deb bilganlar. Ulardan vazirlar, amirlar, mahalliy hokimlar ham o'rnak olib ish tutganlar. Mashhur vazir Nizomulmulk o'z davrida ko'plab madrasalar qurdirgan. Ilm toliblari ham diniy, ham dunyoviy sohalarda bilim olganlar. O'quvchilarga oylik nafaqa berilgan, joy bilan ta'minlangan. Ularni o'z davrining yetuk olimlari o'qitgan. Ilm tolibining ixtiyorida ko'p ming sonli kitoblarni o'zida jamlagan kutubxonalar ham bo'lgan.

Nizomulmulk tomonidan asos solingan Bag'doddagi "Nizomiya" madrasalaridan birida olti ming talaba yashab, ta'lim olgani ma'lum. Har bir madrasa qoshida kutubxona, ayrimlarida shifoxona ham mavjud bo'lgan.

Madrasalarda astronomlar, matematiklar, falakiyotshunoslar, riyoziyotchilar, tabiblar, kimyogarlar, yirik shoirlar faoliyat ko'rsatganlar. Ular zamonlarining barcha ilmlaridan xabardor bo'lganlar.

Xorazmshohlardan **Abul Xasan Ali ibn Ma'mun** ilmga katta e'tibor ko'rsatib o'z saroyiga olimlarni taklif qiladi. Gurganchda 1004-yilda akademiya asos soladi. Bu tarixda Ma'mun akademiyasi nomi bilan qoladi. Mazkur akademiya Abu Rayhon Beruniy ilm ahliga boshchilik qiladi.

Unda Abu Ali ibn Sino ham faoliyat yuritgan. Akademiya diniy bilimlar bilan bir qatorda olimlar dunyoviy va tabiiy fanlar bilan, xususan, astronomiya, matematika, fizika, kimyo, mineralogiya, kartografiya, geografiya, geometriya, tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islom huquqshunosligi va boshqa ilmlar sohasida chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Ular arab, fors, hind, lotin, yunon va turkiy tillarni mukammal bilganlar. Yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Ptolemey, Pifagor va Galen asarlarini chuqur tahlil qilib, ularga tahlil qilib, ularga bag'ishlab sharhlar bitganlar.


Mustahkamlash:

Shundan so'ng guruhlariga yuqorida berilgan ma'lumotlar asosida savollar beriladi.


1. Mamlakatimizda Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yillik yubileyi nishonlanishi haqida gapirib bering?
2. Bugungi kunda Muhammad Muso Xorazmiyning vorislari sifatida kimlarni ayta olasiz?

3. 1-rasm bo'yicha mahalliy urf-odatlar, kiyinish madaniyati haqida o'z fikrlaringizni ayting.
4. 2-rasmda qanday lavha aks etgan?
5. 3-rasm haqida o'z fikrlaringizni bildiring?.

Aqliy hujum metodi:



Erkin yozish metodi:



Uyga vazifa: (variativ topshiriqlar)

1. Buxorodagi Mag'oki Attoriy masjidining rasmini chizing (amaliy).
2. Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tashkil etilishi haqida taqdimot tayyorlang (amaliy).
3. 4-rasmda berilgan inshootda nechta burchak bor, sanab ko'ring, ularning o'lchamini toping (amaliy)?
4. 4-rasmda berilgan inshootda foydalanilgan g'ishtni uy (hom g'isht) sharoitida tayyorlang (laboratoriya).

1-rasm



2-rasm



3-rasm



2-dars ishlanma

MAVZU: 8-Sinf. Xiva xonligida madaniy hayot.

Reja:

1. Madaniy hayot manzarasi.
2. Adabiyot, tarix.
3. Qo'lyozma kitob san'ati.
4. Xonlikda ta'lim tizimi

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy maqsad** - Xiva xonligida madaniy hayot manzarasi haqida to'liq ma'lumot berish;
- b) **tarbiyaviy maqsad**-Moddiy va ma'naviy manbalar negizida o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- d) **rivojlantiruvchi maqsad**- Moddiy va ma'naviy manbalar negizida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish.

Darsning tarkibiy qismi:

Tashkiliy qism;

- 1.O'quvchilarning bilimlarini takrorlash;
- 2.Yangi mavzu bayoni;
- 3.Yangi mavzuni mustahkamlash;
- 4.O'quvchilarni baholash;
- 5.Uyga vazifa berish.

№	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'quvchilarning bilimlarini takrorlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Mustahkamlash	20 daqiqa
5	Dars yakuni va o'quvchilarni baholash	5 daqiqa
6	Uyga topshiriq berish	2 daqiqa

Darsning jihozi: mavzuga oid adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari.

Elektron ta'lim resurslari:

<https://www.youtube.com/watch?v=tGhkDvuonMI>

<https://tarix-kitob.uz/o%ca%bbzbekiston-tarixi-8/xiva-xonligining-iqtisodiy-va-madaniy-hayoti/>

<http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/141>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://meros.uz/>

<https://e-tarix.uz/>

Dars turi: Nazariy, amaliy.

Interfaol metodlar: Yozma bahslar, videotopishmoq, aqliy hujum, erkin yozish.

Darsning borishi

Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lib, guruhlar nomlanadi.

O'quvchilarning bilimlarini takrorlash: o'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini takrorlab olish maqsadida quyidagi tarqatma savollar bilan murojaat qilinadi.

1. Xorazm viloyati haqida ma'lumot bering.
2. lazgi-nomoddiy madaniy merosimizning durdonasi (bahs-munozara).
3. Xorazm xalqiga xos urf-odatlar haqida so'zlab bering.

Yangi mavzu bayoni

Xiva xonligida nozik did bilan ishlangan, o'ziga xos naqshlari, yorqin bo'yoqlari bilan ajralib turuvchi kulolchilik san'ati ham yaxshi rivojlangan edi. Xivalik mis kandakorlari, zargarlar, ipak va jundan mato to'quvchi ustalar ham yuksak qadrlanar edi. Xiva xonligida san'atning eng ommabop turi qo'shiq, musiqa va raqs bo'lgan. Og'ir turmush sharoiti ham, xon amaldorlarining zulmi ham Xorazm xalqining qo'shiq va musiqaga bo'lgan mehri va qiziqishini so'ndira olmadi. Birorta tadbir, xoh u davlat miqyosida, yoki mahalliy miqyosda bo'lsin, ommaviy qo'shiqlar va raqslarsiz o'tmas edi. Qo'shiqlar mualliflari, ijrochilari mashhur kishilar bo'lib, ularni xalq hurmat qilar edi. Ularning qo'shiqlarida muhabbat, vatanparvarlik, demokratiya, erksevarlik va inson qadr-qimmatini ulug'lash g'oyalari badiiy tarzda tarannum etilardi.

Bu davr adabiyotning yana bir mashhur namoyandasi Ogahiy 1809-yilda Qiyot qishlog'i mirob oilasida tug'ildi. Xiva madrasalarida ilm oldi. Arab va fors tillarini puxta egalladi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini qunt bilan o'rgandi. Uning shoir sifatida yaratgan asarlar to'plami "Oshiqlar tumori" deb ataladi va u 19 ming misradan iborat. Uning g'azallari "Shahmaqomning" hamma kuylariga tushadi. Ogahiy o'z davrining mohir tarjimoni ham edi. U Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Abdurahmon

Jomiyning “Yusuf va Zulayho” hamda Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining ba’zi dostonlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Xorazm tarixnavislik maktabiga asos solgan shaxs tarixchi olim sifatida tarixda nom qozondi. O‘zining “Shajarai turk va mo‘go‘l” asari bilan tarixda nom qoldirildi. Asarning “Taqi Shaybonxon avlodidin Xorazm mamlakatida podsholik qilg‘onlarning zikri” deb nomlangan I-bobi Xorazmning 1512-1663-yillardagi tarixiga bag‘ishlangan. Abulg‘ozi Bahodirxon yozgan bu asarning qimmati yana shundaki, u o‘zbek tilida yozilgan.

XVI asrda Xiva xonlari kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi. Mashhur xattot Hamadoniy 1556-yilda Eshmuhammadxonga “Shashmaqom”ni miniatyuralari uchun ochiq joy qoldrib ko‘chirib berdi. XVII-XVIII asrlarda Xivada Muhammad Yusuf Roziy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi ustalar ijod qildilar. Ular she’riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni katta mahorat bilan ko‘chirdilar. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bitta kitobni husnixat bilan yozish bir kishining mehnati emas edi. Shuning uchun har bir kitobni bezashda bir nechta soha ustalari, xususan, qog‘oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib (oltin suvi yurituvchi), lavvoh (sarlavha bituvchi), miniatyurachi rassom va sahhof (muqovalovchi)lar ishtirok etishgan.

Xiva xonligida ham ta’lim ikki bosqichli edi. Quyi bosqich-boshlang‘ich maktab bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘qish-yozishni o‘rganganlar. XIX asrda xonlikda 1,5 mingga yaqin boshlang‘ich maktab faoliyat ko‘rsatgan. Madrasalar soni 103 tani tashkil etgan. Shundan 22 tasi Xiva shahrida joylashgan. Madrasa ta’limning oliy bosqichi bo‘lib, unda diniy ilm bilan birgalikda arab tili grammatikasi, mantiq, nutq madaniyati, matematika, geografiya, tarix fanlari o‘qitilgan. Madrasani bitirganlar qozi, uning yordamchisi, masjid imomi lavozimlarida ishlaganlar. Ayrımlari mudarrislik ham qilishgan. Ta’limning barcha xarajatlari, mudarris va talabalarning ta’minoti vaqf mulki daromadlari hisobidan amalga oshirilgan.

Yozma bahslar metodi:

Asoslab yozish varag‘i namunasi:

Bahs avzusi: _____	<u>Ha</u>	<u>Yo‘q</u>
Bu javobni asoslang		
Dalil keltiring		

Videotopishmoq metodi:

O'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriyl yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz (ovojsiz rejimda) video lavha namoyish etiladi.

Mustahkamlash:

O'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

Video lavhada qanday jarayon aks etganligini izohlaydilar, jarayonlarning mohiyatini daftarga qayd etadilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligiga qaraganda madaniy sohada bunyodkorlik ishlari keng ko'lamda olib borilganligining sababi nimada?
- 2.Xiva xonligida ijod qilgan adabiyot namoyondalari va ular yaratgan asarlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
- 3.Tarix fani sohasida yaratilgan asarlar ro'yxatini tuzing.
- 4.“Firdavs ul-iqbol” va “Riyozi ud-davla” asarlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
- 5.Xiva qo'lyozma kitob san'ati haqida so'zlab bering.

Uyga vazifa: (variantiv topshiriqlar)

O'z xattotlik mahoratingiz sinab ko'ring. Bir betlik qo'lyozma tayyorlang.

- 1.Internetdagi mavjud ta'lim resurslaridan foydalangan holda Xorazm va Buxoro aholisining turmush tarzi, an'ana va urf odatlari haqida taqdimot tayyorlang (amaliy).
- 2.Xorazmdagi cho'girmado'zlik kasbi haqida ma'lumot tayyorlab keling va sinf o'quvchilariga og'zaki va ko'rgazmali usulda bayon qiling (amaliy).
- 3.Xorazm milliy kiyimlari haqida taqdimot tayyorlang.

3-dars ishlanma

MAVZU: 9-Sinf. Teatr va musiqa san'ati.

Reja:

1. Turkistonda xalq teatri.
2. Turkistonga Yevropa va rus teatrlarining kirib kelishi.
3. Jadid teatrining vujudga kelishi.
4. Musiqa san'ati

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy maqsad** - Teatr va musiqa san'ati haqida batafsil ma'lumot berish;
- b) **tarbiyaviy maqsad**-o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- d) **rivojlantiruvchi maqsad**- o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish.

№	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'quvchilarning bilimlarini takrorlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Mustahkamlash	20 daqiqa
5	Dars yakuni va o'quvchilarni baholash	5 daqiqa
6	Uyga topshiriq berish	2 daqiqa

Darsning jihozi: mavzuga oid adabiyotlar, musiqa asboblari, jadid allomalarining portreti.

Elektron ta'lim resurslari:

<https://ziyonet.uz/uzc>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://meros.uz/>

<https://e-tarix.uz/>

<https://youtu.be/K7JOGyxKii4>

Dars turi: Nazariy, seminar.

Interfaol metodlar: Aqliy hujum, *debat, mavzu bo'yicha tushunchalarni saralash.*

Darsning borishi

Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lib, guruhlar nomlanadi.

O'quvchilarning bilimlarini takrorlash: o'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini takrorlab olish maqsadida quyidagi tarqatma savollar bilan murojaat qilinadi.

1. Oxirgi marta qachon teatrga bordingiz, qaysi sahna asarini tomosha qildingiz.

2. Siz bilgan musiqa asboblari sanab bering.

3. Jadid so'zining ma'nosini ayting.

4. Turkiston so'zini izohlang.

Yangi mavzu bayoni

Qadimiy san'at turlaridan eng sevimlisi hisoblangan xalq teatrining Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida o'ziga xos ko'rinishlari mavjud edi. Jumladan, Buxoro amirligida masxaraboz, qo'g'irchoqboz, raqqos kabi san'at yo'nalishlarining uyushmalari vujudga kelgan edi. Xorazm an'anaviy teatrida esa ikki turkum tomoshalar–kulgili va xatarli o'yin turlari yaxshi shakllandi. Xalq teatri shakl jihatidan rang-barang va boy bo'lib, ular xalq orasidan chiqqan komik aktyorlar–qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, masxarabozlar va boshqalar o'z mahoratlarini namoyish qilishgan. Ana shu teatrlar va masxarabozlarning tomoshalarida, asosan, xasis va ochko'z boylar, chalasavod mullalar, amalparast beklarning kirdikorlari fosh etilgan. Ko'proq bu tomoshalar dolzarb voqealar tasvirlangan satirik ko'rinishlardan iborat bo'lgan. Garchi ularda yozma pyesalar bo'lmasada, xalq og'zaki ijodi mahsuli sifatida yod olingan mavzular sahnalashtirilgan. Sahna asarlarini, odatda, san'atkorlarning o'zlari ijod qilishgan. XIX asrning ikkinchi yarmida bir nechta shaharlarda an'anaviy teatr uyushmalari vujudga keldi. Eng mashhurlari Qo'qonda Zokir eshon, Buxoroda To'la masxara uyushmalari edi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrlari ommabop bo'lib, ular mavzusi markazida Kachal Polvon obrazi turgan.

O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, mustamlakachi hukumat siyosiy maqsadlarni nazarda tutib, o'lkaga rus madaniyatini jadal yoyishga kirisha boshladi. Bunda nafaqat ta'lim tizimi, balki teatr sohasi muhim o'rin tutgan. 1870-yil Turkiston general-gubernatori tomonidan taklif etilgan Samara teatri o'lkada bir necha kunlik dasturlarni namoyish etgan edi. 1910-yilda Samarqand va Toshkentga rus aktrisasi V.F.Komiisarjevskaya truppasining gastrollari uyushtirildi.

Turkistonda namoyish etilgan bunday tomoshalar o'lkam mahalliy san'atkorlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ilg'or ma'rifatparvar va jadidlar yangicha g'oyalarni targ'ib etish uchun dramatik teatrning ulkan imkoniyatlarini tushunib yetdilar. Tatar va ozarbayjon truppalarining 1910-1912-yillarda Turkistonda bo'lib o'tgan gastrollari ham katta madaniy voqeaga aylandi. U.Gajibekovning "Go'ro'g'li", "Layli va Majnun" va "Arshin mol olon" musiqali pyesalari o'zbek jamoatchiligi orasida iliq kutib olindi. Bu o'z navbatida mahalliy teatr rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zbek milliy teatrining shakllanishida jadidlarning o'rni katta edi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida: "Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Teatr-bu ibratxonadir", deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir",-deb yozadi.

Turkistonda 1911-yil dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", A.Samadovning "Marhamlar", Fitratning "Bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning qilgan munozaralari" nomli asarlari shular jumlasidandir. Ular ichida, ayniqsa, o'zbek milliy teatr durdonasiga aylangan Behbudiyning "Padarkush" dramasi g'oyatda muhim voqelik bo'ldi.

Turkistonda birinchi o'zbek milliy teatri Samarqand shahrida Mahmudxo'ja Behbudi rahbarligida tashkil etildi. Bu truppada namoyish etilgan ilk asar ham uning "Padarkush" pyesasi edi. O'zbek milliy teatri shakllanishi va rivojlanishida ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniy va jadidlar harakatining atoqli namoyandasi Hamza Hakimzoda Niyoziy katta xizmat qildilar. 1914-yil boshlarida Abdulla Avloniy Toshkent shahrida "Turon" nomidagi teatr truppasini tashkil etdi va u sahnalashtirgan birinchi asar ham "Padarkush" pyesasi bo'ldi. 1915-yilda teatrning Turkiston shaharlari bo'ylab gastrollari zo'r muvaffaqiyat bilan o'tdi.

An'anaviy xalq og'zaki musiqali asarlari asrlar davomida saqlanib keldi. Xalq musiqa san'atida terma, qo'shiq, lapar, yalla, ashula, keng tarqalgan edi. Qo'shiq, yalla va laparlar hazilomuz raqslar va o'yin jo'rligida ijro etilardi. Termalar ko'pincha xalq qissago'ylari bo'lmish baxshilar va shoirlar tomonidan ijro etiluvchi ohangdor kuylarni o'ziga mujassam etgan edi. Ashula esa keng qamrovli turli kuy-ohangga ega qo'shiq hisoblanardi.

Xalq mumtoz shoirlari g'azallari va she'rlari ashulalar uchun matn bo'lib xizmat qilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek xalqi musiqiy ijodiyoti o'zida tirik qahramonlik mazmunidagi epik rivoyatlarni mujassamlashtirgan dostonlar ("Go'ro'g'li", "Alpomish", "Kuntug'mish",

“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Hasan va Dalli”, “Rustam va Avaz”) alohida o‘rin tutgan. Mazkur dostonlar to‘rtlik she‘r tuzilishiga ega bo‘lib, musiqasi nisbatan soda ohangli va bu musiqada nota yozuvi qo‘llanilmagan.

Xalq sozandalari mashhur usta-bastakorlar qo‘lida ta‘lim olishgan. Ko‘p asrlar davomida butun Sharqda keng tarqalgan mumtoz maqomlar professional musiqaning og‘zaki an‘analaridagi bebaho xazinasini tashkil etgan. Maqomlar yirik turkumi og‘zaki-cholg‘uli (yakkaxon va cholg‘uli) asarlardir. Musiqa asboblari ham nihoyatda rang-barangligi bilan ajralib turar edi. Bu borada torli-kamonchali cholg‘u asboblari (g‘ijjak, qo‘biz, uchtor), torli-nounli (do‘mbira, dutor, tanbur, ud, rubob), torli-zarbli (chang), puflama nayli (nay, surnay), mushtuk-puflamali (karnay), zarbli-membranali (doira, nog‘ora, chindovul) kabi cholg‘u asboblari keng tarqalgan edi.

Turkistonning o‘sha kezlardagi musiqa madaniyatida yakkaxon ijrochilar ham, ansambl ijrosi ham rivojlandi. Karnay, nog‘ora yoki doira, ya‘ni qattiq jaranglovchi cholg‘u asboblari an‘anaviy bayramlarda, to‘y-tantanalarda, ommaviy tomoshalarda jo‘ravoz bo‘lgan, birmuncha past jaranglovchi cholg‘u asboblari-surnay, dutor, g‘ijjak esa kamer (xonda)yoki konsert (davrada) ijrosiga mo‘ljallangan edi.

Xorazm maqom va musiqa maktabi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida yanada rivojlandi. O‘z davrining ma‘rifatli hukmdori bo‘lgan Feruz san‘at namoyondalariga katta imkoniyatlar yaratib berib, ular faoliyatiga homiylik qilgan. Bundan tashqari bevosita musiqa san‘atini rivojlantirishga oid farmonlar ham chiqarilgan.

Mustahkamlash:

Shundan so‘ng guruhlariga yuqorida berilgan ma‘lumotlar asosida savollar beriladi.


- 1.O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, mustamlakachi hukumat siyosiy maqsadlarni nazarda tutgan edi?
- 2.Mahmudxo‘ja Behbudiyning: “Teatr-bu ibratxonadir”, deb aytgan fikrini sharhlang?
- 3.XIX asr oxirida Turkistonda qaysi musiqa asboblari bo‘lgan?
- 4.Xorazm maqomi va musiqasi ravnaqida Muhammad Rahimxon II (Feruz)ning o‘rni nimalardan iborat ?

1-jadvalni to'ldiring.

Mavzu bo'yicha tushunchalarni saralash jadvali

Mavzuning ahamiyati			
№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo'lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	

Debat metodini qo'llash sxemasi:



Uyga vazifa: (variativ topshiriqlar)

- 1.Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" sahna asaridan o'zingizga yoqqan qismidan sinfdoshingiz bilan rol ijro eting (amaliy).
- 2.O'z tasavvuringiz mahsuli sifatida barkamol shaxs obrazining senariysini (sahna ko'rinishi) yozib keling (amaliy).
- 3.Alla qo'shig'i (qiz bolalar) yoki lapar aytib bering?
- 4.Xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan "Sartarosh Ali" qo'shig'ini (o'g'il bolalar) kuylab bering.

4-dars ishlanma

MAVZU: 11-Sinf. O‘zbekistonda ma’naviy va tarixiy merosning tiklanishi.

Reja:

1. Tarixiy xotiraning tiklanishi
2. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning tiklanishi
3. Ma’naviyat targ‘iboti.

Darsning maqsadi:

- a) ta’limiy maqsad - Tarixiy xotira, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning tiklanishi haqida keng tushuncha berish;
- b) tarbiyaviy maqsad-o‘quvchilarni bag‘rikenglik, saxovatpeshalik, yurtga sadoqat, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad- o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat, g‘urur, iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish.

№	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘quvchilarning bilimlarini takrorlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Mustahkamlash	20 daqiqa
5	Dars yakuni va o‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
6	Uyga topshiriq berish	2 daqiqa

Darsning jihozi: mavzuga oid adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari, buyuk allomalar portretlari, milliy liboslar.

Elektron ta’lim resurslari:

<https://www.youtube.com/watch?v=CITI0SUtbps>

<http://ich.uz/uz/>

<https://meros.uz/>

Dars turi: guruhlarda ishlash, bahs-munozara.

Interfaol metodlar: Aqliy hujum, bahs-munozara, baliq skeleti, tarix loto, "BBB" metodi

Darsning shiori: Ajdodlar xotirasi mangu barhayot.

Darsning bosqichli jadvali:

Darsning borishi

Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lib, guruhlar nomlanadi va guruh vakillari tomonidan guruh sardorini ham aniqlab olamiz.

O'quvchilarning bilimlarini takrorlash: o'quvchilarning boshlang'ich bilimlarini takrorlab olish maqsadida quyidagi tarqatma savollar bilan murojaat qilinadi.

1. Tarixiy xotira tushunchasini izohlang.
2. 2007-yil Toshkentning Islom madaniyati poytaxti deb atalish sabablarini sanashga harakat qiling.
3. Tarixiy shaxslar bo'yicha ma'lumotlar bering.

Yangi mavzu bayoni

O'zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma'naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlab bo'lmashligini hayotning o'zi ko'rsatdi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati istiqbolning dastlabki paytidanoq bu borada zarur choralar ko'rdi. 1991-yili Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta'sis etildi. Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Navoiy haykali Toshkentning Komsomol ko'li deb nomlangan istirohat bog'iga o'rnatildi va bu bog' Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i deb ataladigan bo'ldi. 1994-yilni hukumat qarori bilan mamlakatimizda Ulug'bek yili, deb e'lon qilinishi, uning 600 yilligini O'zbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YuNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham buyuk allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligining nishonasidir. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi ham keng miqyosda nishonlandi. Mamlakat Prezidenti "1996-yilni Amir Temur yili" deb atash to'g'risida farmon qabul qildi. "Temur tuzuklari" bir necha tilda chop etildi. O'sha davr tarixiy-madaniy yodgorliklari tiklanib, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Juda qisqa fursatda Toshkentda bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar tarixi davlat muzeyi qurildi.



Samarqand.
Amir Temur haykali



Shahrisabz.
Amir Temur haykali



Toshkent.
Temuriylar tarixi davlat muzeyi

Hukumatning maxsus qaroriga binoan, 1999-yil dekabrda Xorazmda Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, Nukusda Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li tavalludining 175 yilligi, 1998-yil oktyabrda esa Farg‘onada Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Islom olamining zabardast allomalari bo‘lmish Imom Ismoil Buxoriyning 1225 yilligi, Imom Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi, Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi va boshqa allomalarning yubileyleri keng nishonlandi.

Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an‘analarning tiklanishi. Istiqlol sharofati bilan xalqimizning milliy-ma‘naviy merosini tiklash va yangilash hamda xalqimiz ongiga yetkazish va turmushiga singdirish muhim vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish “Navro‘z” bayramining xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo‘ldi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident farmoniga ko‘ra, 21-mart – Navro‘z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Qadimiy xalq bayrami – Navro‘zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat bilan ma‘qullab, ko‘tarinki ruhda kutib oldi va hozirda ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda.

Mustahkamlash:

Shundan so‘ng guruhlariga yuqorida berilgan ma‘lumotlar asosida savollar beriladi.

1. Yurtimizning qaysi shaharlarida Amir Temur haykali o‘rnatildi?
2. Mustaqillikning dastlabki yillarida qaysi allomalarning yubileyleri keng nishonlandi?
3. Xalqimizning azaliy qadriyatlari, sevimli bayramlari haqida so‘zlab bering. 1945-1989-yillarda milliy qadriyatlarimiz nega oyoq-osti qilindi?
4. YuNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan qadriyatlarimizni sanab bering?

5. Tarixiy xotira tushunchasini izohlab bering?.
6. O'zbek xalqining qadriyatlari va an'analarini qayta tiklash bo'yicha qanday qarorlar qabul qilindi?.

Bahs-munozara metodi

1-bosqich-xalqimizning azaliy qadriyatlari, sevimli bayramlari haqida so'zlab bering. 1945-1989-yillarda milliy qadriyatlarimiz nega oyoq-osti qilindi mazmunidagi munozarali savol o'quvchilarga beriladi.


2-bosqich-savol doirasida o'quvchilar turli fikr bildiradilar.

3-bosqich-fikr va mulohazalar tinglanadi.

4-bosqich-fikr va mulohazalar tahlil qilinadi.

5-bosqich-aniq va maqbul yechim tanlab olinadi.

Baliq skeleti metodi



Uyga vazifa: (variativ topshiriqlar)

1. Milliy qadriyatlarimizni ifodalovchi tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan buyumlarni restavratsiya qilish. (Laboratoriya mashg'uloti).
2. Milliylikimiz aks etgan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan inshootlar misolida foto slayd tayyorlash.
3. Milliylikimiz aks etgan uy-ro'zg'or buyumlarini tasniflash va foto slayd tayyorlash.
4. Hudud tarixi bilan bog'liq bo'lgan rivoyat, afsona, maqollar, xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib kelish.

MUNDARIJA

SO ‘ZBOSHI	3
I BOB. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1.	O‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari
1.2.	O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qo‘yiladigan pedagogik va psixologik talablar (joriy tahlil)
1.3.	Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati va didaktik omillari
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	
II-BOB. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISH ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH TIZIMI	
2.1.	Aksiologik yondashuv asosida “O‘zbekiston tarixi” fanidan ta’lim resurslarini takomillashtirish mexanizmlari
2.2.	O‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda “O‘zbekiston tarixi” fanining pedagogik imkoniyatlari
2.3.	O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning ko‘rgazmalilik tamoyili (metodik aspekt)
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	
III BOB. O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH SAMARADORLIGINING PEDAGOGIK EKSPERIMENTAL TADQIQI	
3.1.	O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash metodikasiga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni
3.2.	Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini baholash parametrlari va ko‘rsatkichlarining tahlili
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	
UMUMIY XULOSALAR	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	
Ilovalar	


Xakimjonov Baxodir Xakimjonovich

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINI O‘QITISH ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

Monografiyada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir.



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 03.12.2025.

“Cambria” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 7,5. Shartli bosma taboq 7,8.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10